A) 0,4 B) 0,5 C) 0,2 D) 0,6

✓12 soni $\frac{3}{4}$ dan necha marta katta?

A) 16 B) 15 C) 55 D) 18

Yechimi: Necha marta katta desa ":" bo'lish lozim.

$12\frac{3}{4}=12\frac{4}{3}=\cancel{12}\cdot\frac{4}{\cancel{3}}=16$ **Javob: 16**

2317. 90522 soni 423 dan necha marta katta?
A) 234 B) 214 C) 124 D) 204

2318. 35 soni $\frac{1}{5}$ dan necha marta katta?
A) 175 B) 165 C) 275 D) 515

2319. 480 soni $2\frac{2}{7}$ dan necha marta katta?
A) 110 B) 280 C) 210 D) 30

✓Agar $5\frac{5}{12}$ soni $1\frac{5}{13}$ marta oshirilgan bo'lsa, u qanchaga ko'paygan?
A) $1\frac{1}{12}$ B) $2\frac{1}{12}$ C) 5 D) 2

Yechimi: **Javob:B)**

Agar $5\frac{5}{12}$ soni $1\frac{5}{13}$ marta oshirilgan $\Rightarrow$ $5\frac{5}{12}\cdot 1\frac{5}{13}=\frac{65}{12}\cdot\frac{18}{13}=\frac{\cancel{65}^{5}}{\cancel{12}_{2}}\cdot\frac{\cancel{18}^{3}}{\cancel{13}}=\frac{15}{2}=7\frac{1}{2}$

u qanchaga ko'paygan? $\Rightarrow$ $7\frac{1}{2}-5\frac{5}{12}=2\frac{6-5}{12}=2\frac{1}{12}$

Izoh: Qanchaga ko'payganini bilish uchun ayrish ("–") lozim.

2320. Agar $2\frac{1}{4}$ soni $1\frac{1}{3}$ marta oshirilgan bo'lsa, u qanchaga ko'paygan?
A) 0,75 B) 0,25 C) 1,75 D) 0,5

2321. Agar $4\frac{3}{8}$ soni $1\frac{1}{7}$ marta oshirilgan bo'lsa, u qanchaga ko'paygan?
A) 0,125 B) 0,375 C) 0,625 D) 0,25

2322. Agar $4\frac{9}{10}$ soni $3\frac{1}{3}$ marta oshirilgan bo'lsa, u qanchaga ko'paygan?
A) $10\frac{13}{30}$ B) $11\frac{13}{30}$ C) $12\frac{13}{30}$ D) $\frac{13}{30}$

✓Ikki kunda 220 kg qulupnay terildi. Ikkinchi kuni birinchiga kunga qaraganda 3 marta ko'p qulupnay terildi. birinchi kuni qancha qulupnay terildi?
A) 50 B) 110 C) 55 D) 22

Yechimi:

1–kun $\Rightarrow x$

Ikkinchi kuni birinchiga kunga qaraganda 3 marta ko'p qulupnay terildi $\Rightarrow 3x$

Ikki kunda 220 kg qulupnay terildi $\Rightarrow x+3x=220$

$x+3x=220$ **Javob: 55**

$4x=220$

$x=55$

Izoh: Qaysindan marta katta desa shuni "x" deb belgilang.

2323. Ikki kunda 294 yashik uzum terildi. Ikkinchi kun birinchi kunga qaraganda qaraganda 6 marta ko'p uzum terildi. Birinchi kuni qancha uzum terilgan?
A) 42 B) 56 C) 252 D) 84

2324. Ashrab birinchi kun kitobning 27 betini o'qidi. U ikkinchi kuni kitobning birinchi kunga qaraganda 3 marta ko'p betini o'qidi. U ikki kunda kitobning necha betini o'qigan?
A) 54 B) 81 C) 108 D) 25

2325. Sayohatchi birinchi kuni 12 km yo'l yurdi. U ikkinchi kuni birinchi kunga qaraganda 2 marta ko'p , uchinchi kuni esa birinchi kunga nisbatan 3 marta ko'p yo'l bosdi. Sayohatchi uch kunda qancha masofani bosib o'tgan?
A) 12 B) 72 C) 36 D) 24

✓Birinchi kuni ish normasining $\frac{1}{4}$ qismi bajarildi. Ikkinchi kuni birinchi kunda bajarilgan ishning $\frac{1}{8}$ qismicha ko'p ish bajarildi. Shu ikki kunda qancha bajariladi?
A) $\frac{17}{32}$ B) $\frac{1}{32}$ C) 55 D) $\frac{7}{32}$

Yechimi: Birinchi kuni ish normasining $\frac{1}{4}$ qismi bajarildi $\Rightarrow$ $\frac{1}{4}x+\frac{1}{4}\cdot\frac{1}{8}x$

Ikkinchi kuni birinchi kunda bajarilgan ishning $\frac{1}{8}$ qismicha ko'p ish bajarildi? $\Rightarrow$ $\frac{1}{4}x+\frac{1}{4}\cdot\frac{1}{8}x$

Shu ikki kunda qancha bajariladi $\Rightarrow$ $\frac{1}{4}x+\frac{1}{4}x+\frac{1}{4}\cdot\frac{1}{8}x$

$\frac{1}{4}x+\frac{1}{4}x+\frac{1}{4}\cdot\frac{1}{8}x=\frac{1}{4}x+\frac{1}{4}x+\frac{1}{32}x=\frac{8x+8x+x}{32}=\frac{17x}{32}$

Javob: $\frac{17}{32}$

Izoh: Qismicha ko'pda, oldin qismi keyin qo'shish lozim.

2326. Birinchi kuni ish normasining $\frac{1}{3}$ qismi bajarildi. Ikkinchi kuni birinchi kunda bajarilgan ishning $\frac{1}{6}$ qismicha ko'p ish bajarildi. Shu ikki kunda qancha bajariladi?
A) $\frac{17}{18}$ B) $\frac{13}{18}$ C) $\frac{7}{18}$ D) $\frac{11}{18}$

2327. Ishchilar birinchi kuni buyurtmaning $\frac{2}{9}$ qismini, ikkinchi kuni esa $\frac{1}{3}$qismini bajarishdi. Ikki kunda ishchilar buyurtmaning qancha qismini bajaradilar?
A) $\frac{7}{9}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{6}{9}$ D) $\frac{5}{9}$

2328. Bekzod pulining $\frac{4}{7}$ qismiga kitob va $\frac{2}{7}$ qismiga daftar xarid qildi. Bekzodda pulining qancha qismi qoldi?

A) $\frac{1}{7}$ B) $\frac{6}{7}$ C) $\frac{5}{7}$ D) $\frac{3}{7}$

2329. Ikki kunda bog'dagi o'rikning $\frac{11}{12}$ qismi terildi. Agar birinchi kuni o'rikning $\frac{5}{12}$ qismi terilgan bo'lsa, ikkinchi kuni jami o'rikning qancha qismi terilgan?

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{4}{12}$ C) $\frac{5}{12}$ D) $\frac{3}{12}$

✓Yer maydoni xaritasida masshtab 1: 1000 ko'rsatilgan. Xaritadagi ikki nuqta orasidagi masofa 1,7 sm ga teng. Haqiqiy masofani (m) hisoblang?

A) 18 B) 170 C) 17 D) 1700

Yechimi:

$$1{,}7 : \frac{1}{1000} = \frac{17}{10} \cdot 1000 = \frac{17}{\cancel{10}} \cdot 100\cancel{0} = 1700$$

$100\ sm = 1\ m$
$17\ 00\ sm = 17\ m$ $\Leftarrow$ $100\ sm = 1m$, $17\ \cancel{00}\ sm = 17\ m$

Javob: 17

Izoh: Haqiqiy tasvirning uzunligini toppish uchun masshtabga bo'lish lozim.

Masshtab(1:1000)–chizmadagi o'lcham haqiqiy o'lchamdan necha marta kichikligini ko'rsatuvchi son.

2330. Yer maydoni xaritasida masshtab 1:1000 ko'rsatilgan. Xaritadagi ikki nuqta orasidagi masofa 5,5 sm ga teng. Haqiqiy masofani (m) hisoblang?

A) 550 B) 55 C) 5,5 D) 5500

2331. Yer maydoni xaritasida masshtab 1: 2000 ko'rsatilgan. Xaritadagi ikki nuqta orasidagi masofa 7 mm ga teng. Haqiqiy masofani (m) hisoblang?

A) 14 B) 1,4 C) 3,5 D) 140

2332. Yer maydoni xaritasida masshtab 1:500 ko'rsatilgan. Xaritadagi ikki nuqta orasidagi masofa 0,4 sm ga teng. Haqiqiy masofani (m) hisoblang?

A) 20 B) 0,2 C) 200 D) 2

✓Ikki shahar orasidagi masofa xaritada 48 sm. Xaritaning masshtab 1: 2000 000. bu shaharlar orasidagi haqiqiy masofani (km) hisoblang?

A) 960 B) 170 C) 17 D) 1700

Yechimi:

$$48 : \frac{1}{2000000} = 48 \cdot 2000000 = 96000000\ sm$$

$100000\ sm = 1km$
$96000000\ sm = 960\ km$

$\Uparrow$

$100000\ sm = 1km$
$960\ \cancel{00000}\ sm = 960\ km$

Javob: 960

2333. Ikki shahar orasidagi masofa xaritada 12,8 sm. Xaritaning masshtab 1:1500 000. bu shaharlar orasidagi haqiqiy masofani (km) hisoblang?

A) 190 B) 192 C) 1920 D) 19,2

2334. Ikki shahar orasidagi masofa xaritada 85,48 sm. Xaritaning masshtab 1: 2500 000. bu shaharlar orasidagi haqiqiy masofani (km) hisoblang?

A) 2137 B) 21,37 C) 213,7 D) 21370

2335. Ikki shahar orasidagi masofa xaritada 24 sm. Xaritaning masshtab 1: 500 000. bu shaharlar orasidagi haqiqiy masofani (km) hisoblang?

A) 1200 B) 12 C) 210 D) 120

✓A va B qishloqlar orasidagi masofa 60 km ga teng. Agar xaritaning masshtab 1:1500 000 bo'lsa, bu qishloqlar orasidagi masofa Xaritada qancha (sm) bo'lishini hisoblang?

A) 0,08 B) 40 C) 1,7 D) 4

Yechimi:

$$60 \cdot \frac{1}{1500000} = 6000000 \cdot \frac{1}{1500000} =$$

$$= 60\cancel{00000} \cdot \frac{1}{15\cancel{00000}} = \frac{60}{15} = 4\ sm$$

Javob: 4

$60\ km = 6000000\ sm$
$100000\ sm = 1\ km$

Izoh: Xaritada qancha (dm, sm, mm) bo'lishini toppish uchun masshtabga ko'paytirish lozim.

2336. Xaritaning masshtabi 1: 2000 000 ko'rsatilgan. Ikki shahar orasidagi masofa 420 km ga teng. Bu shaharlar orasidagi masofa xaritada qancha (sm) bo'ladi?

A) 2100 B) 21 C) 2,1 D) 210

2337. Xaritaning masshtabi 1: 5000 000 ko'rsatilgan. Ikki shahar orasidagi masofa 5250 km ga teng. Bu shaharlar orasidagi masofa xaritada qancha (sm) bo'ladi?

A) 105 B) 2,1 C) 10,5 D) 10

2338. Xaritaning masshtabi 1: 90 000 ko'rsatilgan. Ikki shahar orasidagi masofa 17,1 km ga teng. Bu shaharlar orasidagi masofa xaritada qancha (mm) bo'ladi?

A) 190 B) 19 C) 1,9 D) 21

✓A va B qishloqlar orasidagi masofa xaritada 7,2 sm, aslida haqiqiy masofa 360 km. Xaritaning masshtabi qancha (sm) bo'lishini hisoblang?

A) 1:50000 B) 1:500
C) 1:5000000 D) 1:5000

Yechimi: $1\ km = 100000\ sm$

$$\frac{xaritadagi\ uzunligi}{xaqiqiy\ uzunligi} = \frac{7{,}2\ sm}{360\ km} = \frac{7{,}2\ sm}{360 \cdot 100000\ sm} =$$

$$= \frac{72}{3600 \cdot 100000} = \frac{2}{10000000} = \frac{1}{5000000}$$

Javob: 1:5000 000

Izoh: Xaritaning uznunligini haqiqiy uzunligiga bo'lamiz.

2339. Ikki shahar orasidagi masofa xaritada 5 sm ko'rsatilgan. Haqiqiy uzunligi25 km ga teng. xaritaning masshtabini toping?

A) 1:50000 B) 1: 500000
C) 1: 5000 D) 1: 5000000

2340. Ikki shahar orasidagi masofa xaritada 20 sm ko'rsatilgan. Haqiqiy uzunligi 90 km ga teng. xaritaning masshtabini toping?

A) 1:450000 B) 1: 4500000
C) 1: 45000 D) 1: 45000000

2341. Ikki shahar orasidagi masofa xaritada 40 sm ko'rsatilgan. Haqiqiy uzunligi45 km ga teng. xaritaning masshtabini toping?

A) 1:112500 B) 1: 1125000
C) 1: 11250000 D) 1: 11250

✓1 dan 280 gacha sonlar orasida 7 ga bo'linmaydiganlari nechta?

A) 150 B) 15 C) 240 D) 100

Yechimi:

$$280-\left[\frac{280}{7}\right]=280-40=240$$ **Javob: 240**

Izoh: 1 dan "n" gacha sonlar orasida "m" ga bo'linmaydiganlari desa, solishtiring(butun qismni olish lozim). $n-\left[\frac{n}{m}\right] \Leftrightarrow 280-\left[\frac{280}{7}\right]$

2342. 1 dan 299 gacha sonlar orasida 6 ga bo'linmaydiganlari nechta?

A) 150 B) 250 C) 50 D) 49

2343. 1 dan 580 gacha sonlar orasida 13 ga bo'linmaydiganlari nechta?

A) 536 B) 526 C) 100 D) 436

2344. 1 dan 683 gacha sonlar orasida 17 ga bo'linmaydiganlari nechta?

A) 543 B) 125 C) 653 D) 643

✓1 dan 120 gacha sonlar orasida 2 ga ham, 5 ga ham bo'linmaydiganlari nechta?

A) 48 B) 12 C) 24 D) 10

Yechimi:

$$120-\left(\left[\frac{120}{2}\right]+\left[\frac{120}{5}\right]-\left[\frac{120}{2\cdot5}\right]\right)=$$ **Javob: 48**

$$=120-(60+24-12)=120-72=48$$

Izoh: 1 dan "n" gacha sonlar orasida "m" va k ga bo'linmaydiganlari desa, solishtiring(butun qismni olish lozim). $n-\left(\left[\frac{n}{m}\right]+\left[\frac{n}{k}\right]-\left[\frac{n}{nk}\right]\right)$

2345. 1 dan 126 gacha sonlar orasida 2 ga ham, 7 ga ham bo'linmaydiganlari nechta?

A) 50 B) 54 C) 45 D) 64

2346. 1 dan 120 gacha sonlar orasida 3 ga ham, 5 ga ham bo'linmaydiganlari nechta?

A) 56 B) 60 C) 61 D) 64

2347. 1 dan 175 gacha sonlar orasida 5 ga ham, 7 ga ham bo'linmaydiganlari nechta?

A) 120 B) 126 C) 110 D) 136

✓ Sinfdagi 42 ta o'quvchidan 31 tasi suzish to'garagiga, 16 tasi voleybol to'garagiga qatnashadi. Agar har bir o'quvchi hech bo'lmaganda bitta to'garagiga qatnashsa, faqqat suzish to'garagiga qatnashadigan o'quvchilar nechtani tashkil etadi?

A) 48 B) 12 C) 26 D) 10

Yechimi:

$$\underline{2ta\ to'garakga\ qatnashganlari} \Rightarrow \underline{(31+16)-42=5}$$

$$\underline{\text{faqqat suzish to'garagiga qatnashadigan o'quvchilar}} \Rightarrow \underline{31-5=26}$$ **Javob: 26**

Izoh: Avval 2 ta mashg'ulotga qatnashadiganlarni toppish lozim.

2348. Sinfdagi 36 ta o'quvchidan 27 tasi suzish to'garagiga, 18 tasi voleybol to'garagiga qatnashadi. Agar har bir o'quvchi hech bo'lmaganda bitta to'garagiga qatnashsa, 2 ta to'garakga qatnashadigan o'quvchilar nechtani tashkil etadi?

A) 9 B) 17 C) 18 D) 45

2349. 40 kishidan 32 tasi o'yin to'garagiga, 27 tasi esa xorda ashula aytadi. Necha kishi faqat o'yin to'garagiga qatnashadi?

A) 59 B) 13 C) 19 D) 8

2350. 42 ta turistdan 28 tasi ingliz tilini, 25 tasi fransuz tilini bilishadi. Shu turistlardan nechtasi ikkala tilni ham bilishadi?

A) 12 B) 16 C) 11 D) 13

✓ $\overline{2ery6}$ ni mingli, yuzli, o'nli va birli qismlarga ajratib yozilgan javobni toping.

A) $2\cdot10000+e\cdot1000+r\cdot100+y\cdot10+6$

B) $2\cdot1000+e\cdot1000+r\cdot100+y\cdot10+6$

C) $2\cdot1000+e\cdot100+r\cdot100+y\cdot10+6$

D) $2\cdot1000+e\cdot100+r\cdot100+y\cdot10$

Yechimi:

$\overline{ab}=a\cdot10+b$

$24=2\cdot10+4$

$\overline{abc}=a\cdot100+b\cdot10+c$

$938=9\cdot100+3\cdot10+8$

$\overline{abck}=a\cdot1000+b\cdot100+c\cdot10+k$

$3568=3\cdot1000+5\cdot100+6\cdot10+8$

Javob: $\overline{2ery6}=2\cdot10000+e\cdot1000+r\cdot100+y\cdot10+6$

Izoh: Yuqorida yozilganlar pastida misol $\overline{ab}=a\cdot10+b$ ✓ qilib yozib qo'yilgan.
$24=2\cdot10+4$

2351. $\overline{45dfg}$ ni mingli, yuzli, o'nli va birli qismlarga ajratib yozilgan javobni toping.

A) $4\cdot10000+5\cdot100+d\cdot100+f\cdot10+g$

B) $4\cdot10000+5\cdot1000+d\cdot100+f\cdot10+g$

C) $4\cdot10000+5\cdot1000+d\cdot100+g\cdot10+f$

D) $4\cdot10000+5\cdot1000+f\cdot100+d\cdot10+g$

2352. $\overline{2gh007}$ ni mingli, yuzli, o'nli va birli qismlarga ajratib yozilgan javobni toping.

A) $2\cdot100000+h\cdot10000+g\cdot1000+7$

B) $2\cdot1000000+g\cdot10000+h\cdot1000+7$ ✓

C) $2\cdot100000+g\cdot10000+h\cdot1000+7$

D) $2\cdot100000+g\cdot10000+h\cdot100+7$

2353. $\overline{800as}$ ni mingli, yuzli, o'nli va birli qismlarga ajratib yozilgan javobni toping.

A) $8\cdot10000+a\cdot100+s\cdot10+7$

B) $8\cdot10000+a\cdot100+s\cdot10$

C) $8\cdot100000+a\cdot10+s$

D) $8\cdot10000+a\cdot10+s$

✓ $\overline{aa2a}+\overline{28a}=\overline{a402}$ dan a ni toping.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

Yechimi:

1–usul

$\overline{aa2a}+\overline{28a}=\overline{a402}$ ning har birini mingli, yuzli, o'nli va birli qismlarga ajratib yozamiz.

$\overline{aa2a}+\overline{28a}=\overline{a402}$

$a\cdot1000+a\cdot100+2\cdot10+a+2\cdot100+8\cdot10+a=$

$=a\cdot1000+4\cdot100+2$

$1102a+300=1000a+402$

$102a=102$

$a=1$

ustuncha qilib qo'shilgan uni tahlil qiling:

2–usul

$\begin{array}{r}\overline{aa2a}\\ +\overline{28a}\\ \hline \overline{a402}\end{array}\Rightarrow$ $a+a=2$ *yoki* $a+a=12$ *ekanligidan* $a=1$ *yoki* $a=6$

$a=1\Rightarrow\begin{array}{r}1121\\ +281\\ \hline 1402\end{array}\Rightarrow$ *demak,* $a=1$

$a=6\Rightarrow\begin{array}{r}6626\\ +286\\ \hline 7912\end{array}\Rightarrow$ *demak,* $a=6$ *emas*

2354. $\overline{18c}+\overline{c8c}=566$ dan c ni toping.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

2355. $\overline{bb2b}-\overline{5bl}=3883$ dan b ni toping.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

2356. $\overline{a22}+\overline{a22}=\overline{8aa}$ dan a ni toping.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

2357. $\overline{1a1a1}+\overline{13131}=\overline{a5a5a}$ dan a ni toping.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

✓ $\overline{b008}-\overline{cc}=\overline{cc0c}$ dan c; $b$ni toping.

A) c=9; b=1 B) c=9; b=1

C) c=1; b=9 D) c=9; b=5

Yechimi:

$\overline{b008}-\overline{cc}=\overline{cc0c}$

agar ayruv "–" qilib berilsa, o'ng tomonga "+" qilib o'tkazish lozim

$\overline{b008}-\overline{cc}=\overline{cc0c}$ $\Rightarrow$ $\begin{array}{r}\overline{b0008}\\ -\overline{cc}\\ \hline \overline{cc0c}\end{array}\Rightarrow\begin{array}{r}\overline{cc0c}\\ +\overline{cc}\\ \hline \overline{b0008}\end{array}$

$\Downarrow$ $\Downarrow$

$\overline{b008}=\overline{cc0c}+\overline{cc}$ | $c+c=8$ *yoki* $c+c=18$ **ekanligidan** $a=4$ *yoki* $c=9$

$c=4\Rightarrow\begin{array}{r}4404\\ +44\\ \hline 4458\end{array}\Rightarrow$ *demak,* $c=4$ *emas*

$c=9\Rightarrow\begin{array}{r}9909\\ +99\\ \hline 10008\end{array}\Rightarrow$ *demak,* $c=9$ $b=1$

Javob: c=9; b=1

Izoh: Bir xil harflar, bir xil raqamlardir.

2358. $\overline{abba}-\overline{2ab6}=\overline{b702}$ dan a; b ni toping.

A) a=8; b=15 B) a=3; b=1

C) a=8; b=5 D) a=4; b=5

2359. $\overline{a003b}-\overline{bba}=\overline{98aa}$ dan a; b ni toping.

A) a=8; b=15 B) a=1; b=2

C) a=1; b=5 D) a=4; b=5

2360. $\overline{98c}+\overline{8c}=\overline{a0c4}$ dan a; c ni toping.

A) a=4; c=2 B) a=2; c=1

C) a=1; c=7 D) a=1; c=2

2361. $\overline{ABC}+\overline{MN}=\overline{FEDP}$ dan $F^{M+N}+A^{F}$ ni toping.

A) 11 B) 20 C) 31 D) 10

2362. $\overline{abc}+\overline{dec}=\overline{fkmc}$ dan $f^{a+b}(b+d)^{c}$ ni toping.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

✓ Ikki xonali son bilan uning raqamlari o'rinlarini almashtirishdan hosil bo'lgan son ayirmasi quyidagilardan qaysi biriga qoldiqsiz bo'linadi?

A) 5 B) 9 C) 11 D) 4

Yechimi: Ikki xonali son $\Rightarrow\overline{ab}$

Ikki xonali son bilan uning raqamlari o'rinlarini almashtirishdan hosil bo'lgan son ayirmasi $\Rightarrow\overline{ab}-\overline{ba}$

$\overline{ab}-\overline{ba}=10a+b-(10b+a)=10a+b-10b-a=9a-9b=9(a-b)$

demak, 9 ga karali ekan **Javob:** 9

2363. Ikki xonali son bilan uning raqamlari o'rinlarini almashtirishdan hosil bo'lgan son yig'indisi quyidagilardan qaysi biriga qoldiqsiz bo'linadi?

A) 8 B) 3 C) 11 D) 9

2364. Ikki xonali sonning o'ng tomoniga 0 raqami yozilsa, berilgan sonning yarmi bilan 323 ning yig'indisiga teng. bo'ldan son hosil bo'ladi. Berilgan sonni toping.

A) 18 B) 34 C) 26 D) 24

2365. Ikki xonali son o'zining raqamlari yig'indisidan 4 marta katta. Raqamlari kvadratlarining yig'indisi 5 ga teng. Shu ikki xonali sonning kvadratini hisoblang.
A) 144 B) 441 C) 121 D) 361

2366. Raqamlari yig'indisining uchlanganiga teng ikki xonali sonni toping.
A) 27 B) 17 C) 11 D) 21

2367. Raqamlari yig'indisiga bo'lganda, bo'linmasi 4 ga va qoldig'i nolga teng bo'ladigan ikki xonali sonlardan birini ko'rsating.
A) 16 B) 36 C) 42 D) 25

✓A, B–raqamlar, AB va 5A esa ikki xonali sonlar. Agar AB•3=5A bo'lsa, A^2+B^2 ning qiymati qanchaga teng bo'ladi?
A) 65 B) 37 C) 13 D) 50

Yechimi:

$\underline{AB\cdot 3=5A} \Rightarrow \boxed{AB=\frac{5A}{3}}$

$\underline{5A} \Rightarrow \begin{bmatrix}51\\54\\57\end{bmatrix} \Rightarrow \begin{bmatrix}\frac{51}{3}=17\\ \frac{54}{3}=18??\\ \frac{57}{3}=19??\end{bmatrix}$

$\underline{\frac{51}{3}=17} \Rightarrow \boxed{AB=\frac{5A}{3}}$

$A^2+B^2=1^2+7^2=50$

Javob: 50

Izoh: $\underline{AB\cdot 3=5A} \Rightarrow \boxed{AB=\frac{5A}{3}}$ ekanligidan ellik nechidir son 3 ga bo'linadi deb qidirish lozim.

2368. A, B–raqamlar, BA va 9A esa ikki xonali sonlar. Agar BA•6=9A bo'lsa, $A+B$ ning qiymati qanchaga teng bo'ladi?
A) 8 B) 7 C) 6 D) 1

2369. A, B–raqamlar, BA va 4A esa ikki xonali sonlar. Agar BA•3=4A bo'lsa, A^2+B^2 ning qiymati qanchaga teng bo'ladi?
A) 18 B) 34 C) 26 D) 24

2370. A, B–raqamlar, AB va B5 esa ikki xonali sonlar. Agar AB•5=B5 bo'lsa, $B-A$ ning qiymati qanchaga teng bo'ladi?
A) 8 B) 3 C) 11 D) 9

✓Otasi 66, o'g'li 16 yoshda. Necha yildan keyin otasi o'g'lidan 3 marta katta bo'ladi?
A) 5 B) 9 C) 6 D) 4

Yechimi:

$\underline{\text{Necha yildan keyin}} \Rightarrow \boxed{x}$

$\underline{\text{Otasi 66, o'g'li 16 yoshda. Necha yildan keyin otasi o'g'lidan 3 marta katta}} \Rightarrow \boxed{66+x=3(x+16)}$

$66+x=3(x+16)$

$66+x=3x+48$

$-2x=-18$

$x=9$

Javob: 9

Izoh: Necha yildan keyin degani uchun "+" (qo'shish) lozim. Agar necha yil oldin desa "–" (ayrish) lozim.

2371. Otasi 40, o'g'li 16 yoshda. Necha yildan keyin otasi o'g'lidan 2 marta katta bo'ladi?
A) 8 B) 5 C) 4 D) 6

2372. Buvisi 100, nabirasi 28 yoshda. Nechi yil oldin nabirasi buvisidan 4 marta yosh bo'lgan?
A) 8 B) 5 C) 4 D) 6

2373. Onasi 50, qizi 28 yoshda. Nechi yil oldin qizi onasidan 2 marta yosh bo'lgan.
A) 5 B) 6 C) 8 D) 4

✓Ikki sonning yig'indisi 5,6 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 3 marta kichik. Shu sonlarning kattasini toping.
A) 5,2 B) 9,3 C) 6,2 D) 4,2

Yechimi:

$\underline{\text{ikki sonning yig'indisi 5,6 ga teng.}} \Rightarrow \boxed{x+y=5,6}$

$\underline{\text{Ulardan biri ikkinchisidan 3 marta kichik.}} \Rightarrow \boxed{x=\frac{y}{3}}$

$\begin{cases}x+y=5,6\\ x=\frac{y}{3}\end{cases}$ *sistemani yechamiz.*

$x+y=5,6$

$\frac{y}{3}+y=5,6$

$y+3y=5,6\cdot 3$

$4y=16,8$

$y=4,2$

Javob: 4,2

Izoh: bu turdagi misollarni yechish uchun sistemasini tuzib olish lozim.

2374. Ikki soning yig'indisi 6,5 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 4 marta kichik. Shu sonlarning kattasini toping.
A) 6 B) 5,2 C) 4 D) 5,3

2375. Ikki sonning yigindisi 7 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 4 marta kichik bo'lsa, shu sonlarning kattasini toping.
A) 5,2 B) 6,2 C) 5,6 D) 5,4

2376. Ikki soning yig'indisi 4,8 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 3 marta kichik. Shu sonlarning kichigini toping.
A) 1,2 B) 1,4 C) 1,6 D) 2,1

✓Fermada tovuq va qo'ylar bor. Ularning jami soni 170 ta, oyoqlar soni 440 ta. Qo'ylar nechta?
A) 50 B) 80 C) 60 D) 70

Yechimi:

fermadagi tovuqlar soni $\Rightarrow \boxed{x}$

fermadagi qo'ylar soni $\Rightarrow \boxed{y}$

fermadagi tovuq oyoqlari soni $\Rightarrow \boxed{2x}$

fermadagi qo'ylar oyoqlari soni $\Rightarrow \boxed{4y}$

$\begin{cases} x+y=170 \\ 2x+4y=440 \end{cases}$ *sistemani yechamiz*

$\begin{cases} x+y=170\,(\cdot -2) \\ 2x+4y=440 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} -2x-2y=-340 \\ 2x+4y=440 \end{cases}$

$+\begin{cases} -2x-2y=-340 \\ 2x+4y=440 \end{cases}$

$2y=100$

$y=50$

Javob: 50

Izoh: Bu turdagi misollarni yechish uchun sistemasini tuzib olish lozim.

2377. Fermada tovuq va qo'ylar bor. Ularning jami soni 139 ta, oyoqlar soni 446 ta. Tovuqlar nechta?

A) 65 B) 55 C) 42 D) 84

2378. Katakda quyonlar va tovuqlar bor. Agar oyoqlar 180 ta va boshlari 57 ta bolsa, tovuqlar nechta?

A) 35 B) 33 C) 24 D) 14

2379. Do'kondagi 3 g'ildirakli va 2 g'ildrakli velosipedlar soni 70 ta, g'ildraklari soni 166 ta. 3 g'ildrakli velosipedlar soni topilsin.

A) 26 B) 34 C) 16 D) 44

✓Agar ikki sondan birinchisining ikkilanganidan ikkinchi sonning ayirmasi 7 ga teng, birinchi sondan ikkinchi son ikkilanganining ayirmasi 8 ga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.

A) 5; 3 B) 8; 0 C) 6; 4 D) 7; 4

Yechimi:

Agar ikki sondan $\Rightarrow$ $x,\ y$

Agar ikki sondan birinchisining ikkilanganidan ikkinchi sonning ayirmasi 7 ga teng. $\Rightarrow$ $2x-y=7$

birinchi sondan ikkinchi son ikkilanganining ayirmasi 8 ga teng. $\Rightarrow$ $x-2y=8$

$\begin{cases} 2x-y=7 \\ x-2y=8 \end{cases}$ sistemani yechamiz.

$\begin{cases} 2x-y=7 \\ x-2y=8\,(\cdot -2) \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x-y=7 \\ -2x+4y=-16 \end{cases}$

$+\begin{cases} 2x-y=7 \\ -2x+4y=-16 \end{cases}$

$3y=9$

$y=3$

$2x-y=7$

$2x-3=7$

$2x=10$

$x=5$

Javob: 5; 3

Izoh: Bu turdagi misollarni yechish uchun sistemasini tuzib olish lozim.

2380. 2500 so'mga 1 kg anjir va 20 kg husayni uzum sotib olishdi. Agar 5 kg anjir 10 kg uzum 3500 so'm tursa, har bir meaning 1 kg qancha?

A) 615; 115 B) 500; 100

C) 145; 180 D) 285; 135

2381. Kinoteatrda ikki kunda 792 ta bilet sotildi.Bir kassasida ikkinchi kassasiga qaraganda 86 ta ko'p bilet sotilgan. Har bir kassada nechtadan bilet sotilgan?

A) 539; 253 B) 429; 363

C) 439; 353 D) 449; 343

2382. Ikki ishchi 86 ta detal tayorladi. Birinchi ishchi ikkinchisiga qaraganda 8 ta kam detal tayorlagan. har bir ishchi nechtadan detal tayorlagan.

A) 39; 47 B) 49; 37

C) 19; 67 D) 29;57

2383. 14 m matodan 4 ta erkaklar 2 ta bolalar kastumi tikish mumkin. Agar 15 m shu matodan 2 ta erkaklar va 6 ta bolalar kastumi tikish mumkin bo'lsa, 1 ta erkaklar va 1 ta bolalar ko'ylagi uchun necha metr mato kerak?

A) 2,6 B) 3,4 C) 1,6 D) 4,3

✓Bir nechta natural sonlarning yig'indisi 75 ga teng. Agar shu sonlarning har biridan 2 ni ayirib, yig'indi hisoblansa, 61 ga teng bo'ladi. Yigindida nechta son qatnashgan?

A) 3 B) 7 C) 4 D) 5

Yechimi:

Yigindida nechta son qatnashgan? $\Rightarrow$ n

Bir nechta natural sonlarning yig'indisi 75 ga teng. $\Rightarrow$ $a_1+a_2+...+a_n=75$

Agar shusonlarning har biridan 2 ni ayirib, $\Rightarrow$ $a_1-2+a_2-2+...+a_n-2$

Agar shu sonlarning har biridan 2 ni ayirib, yig'indi hisoblansa, 61 ga teng. $\Rightarrow$ $a_1+a_2+...+a_n-2n=61$

$a_1+a_2+...+a_n-2n=61$

$75-2n=61$

$-2n=61-75$

$-2n=-14$

$n=7$

Javob: 7

2384. Bir nechta natural sonlarning yig'indisi 94 ga teng. Agar shu sonlarning har biridan 3 ni ayirib, yig'indi hisoblansa, 58 ga teng bo'ladi. Yigindida nechta son qatnashgan?

A) 5 B) 12 C) 14 D) 8

2385. Bir nechta natural son berilgan va ularning yigindisi 76. Agarda har bir sonni 3 ga oshirsak, unda yangi sonlar yig'indisi 97 ga teng. Qancha son berilgan edi?

A) 3 B) 7 C) 6 D) 17

2386. Bir nechta natural sonlarning yig'indisi 205 ga teng. Agar shu sonlarning har biridan 5 ni ayirib, yig'indi hisoblansa, 90 ga teng bo'ladi. Yigindida nechta son qatnashgan?

A) 3 B) 23 C) 14 D) 13

2387. Bir nechta natural son berilgan va ularning yigindisi 25. Agarda har bir sonni 7 ga oshirsak, unda yangi sonlar yig'indisi 95 ga teng. Qancha son berilgan edi?

A) 5 B) 8 C) 9 D) 10

✓Berilgan beshta sonning har biri 3 ga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan sonlarning har biriga 2 q... Hosil bo'lgan sonlar yig'indisi 70 ga teng bo'lsa, berilgan sonlar yig'indisi nechaga teng bo'lgan?

A) 20 B) 70 C) 30 D) 40

Yechimi:

Berilgan beshta sonning har biri 3 ga ko'paytirilib, $\Rightarrow$ $a; b; c; n; m$ / $3a; 3b; 3c; 3n; 3m$

so'ngra hosil bo'lgan sonlarning har biriga 2 qo'shildi.

$\Downarrow$

$3a+2;\ 3b+2;\ 3c+2;\ 3n+2;\ 3m+2$

Hosil bo'lgan sonlar yig'indisi 70 ga teng bo'lsa.

$\Downarrow$

$$3a+2+3b+2+3c+2+3n+2+3m+2=70$$

$$3a+2+3b+2+3c+2+3n+2+3m+2=70$$

$$3a+3b+3c+3n+3m+2\cdot 5=70$$

$$3a+3b+3c+3n+3m=70-10$$

$$3a+3b+3c+3n+3m=60$$

$$3(a+b+c+n+m)=60$$

$$a+b+c+n+m=20$$

J: 20

2388. Berilgan to'rtta sonning har biri 6 ga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan sonlarning har biriga 5 qo'shildi. Hosil bo'lgan sonlar yig'indisi 50 ga teng bo'lsa, berilgan sonlar yig'indisi nechaga teng bo'lgan?

A) 5 B) 12 C) 14 D) 45

2389. Berilgan oltita sonning har biri 4 ga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan sonlarning har biridan 5 ayrildi. Hosil bo'lgan sonlar yig'indisi 50 ga teng bo'lsa, berilgan sonlar yig'indisi nechaga teng bo'lgan?

A) 5 B) 12 C) 20 D) 8

2390. Berilgan beshta sonning har biri 7 ga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan sonlarning har biridan 2 ayrildi. Hosil bo'lgan sonlar yig'indisi 60 ga teng bo'lsa, berilgan sonlar yig'indisi nechaga teng bo'lgan?

A) 10 B) 12 C) 14 D) 8

✓7 ta sonning o'rta arifmetigi 13 ga teng. Bu sonlarga qaysi son qo'shilsa, ularning o'rta arifmetigi 18 bo'ladi?

A) 20 B) 73 C) 30 D) 53

Yechimi:

7 ta sonning o'rta arifmetigi 13 ga teng. $\Rightarrow \dfrac{a_1+a_2+...+a_7}{7}=13$

Bu sonlarga qaysi son qo'shilsa, ularning o'rta arifmetigi 18. $\Rightarrow \dfrac{a_1+a_2+...+a_7+x}{8}=18$

$$\frac{a_1+a_2+...+a_7}{7}=13$$

$\Downarrow$

$$a_1+a_2+...+a_7=13\cdot 7$$

$$a_1+a_2+...+a_7=91$$

$$\frac{\overbrace{a_1+a_2+...+a_7}^{91}+x}{8}=18$$

$$\frac{91+x}{8}=18$$

$$91+x=18\cdot 8$$

$$x=144-91$$

$$x=53$$

Javob: 53

2391. 11 ta sonning o'rta arifmetigi 14 ga teng. Bu sonlarga qaysi son qo'shilsa, ularning o'rta arifmetigi 13 bo'ladi?

A) 5 B) 1 C) 4 D) 2

2392. 5 ta sonning o'rta arifmetigi 16 ga teng. Bu sonlarga qaysi son qo'shilsa, ularning o'rta arifmetigi 22 bo'ladi?

A) 80 B) 12 C) 20 D) 52

2393. 9 ta sonning o'rta arifmetigi 21 ga teng. Bu sonlarga qaysi son qo'shilsa, ularning o'rta arifmetigi 34 bo'ladi?

A) 51 B) 121 C) 142 D) 151

✓M ta sonning o'rta arifmetigi 13 ga, boshqa N tasiniki esa 35 ga teng. Shu M+N ta sonning o'rta arifmetigini toping.

A) $\dfrac{13N+35M}{M+N}$ B) $\dfrac{13M}{M+N}$ C) $\dfrac{13M+35N}{M+N}$ D) $\dfrac{M}{N}$

Yechimi:

M ta sonning o'rta arifmetigi 13 ga $\Rightarrow \dfrac{a_1+a_2+...+a_M}{M}=13$

boshqa N ta sonning o'rta arifmetigi 35 ga $\Rightarrow \dfrac{b_1+b_2+...+b_N}{N}=35$

Shu M+N ta sonning o'rta arifmetigi

$\Downarrow$

$$\frac{a_1+a_2+...+a_M+b_1+b_2+...+b_N}{M+N}=???$$

$\dfrac{a_1+a_2+...+a_M}{M}=13$ $\Downarrow$ $a_1+a_2+...+a_M=13M$

$\dfrac{b_1+b_2+...+b_N}{N}=35$ $\Downarrow$ $b_1+b_2+...+b_N=35N$

$$\frac{\overbrace{a_1+a_2+...+a_M}^{13M}+\overbrace{b_1+b_2+...+b_N}^{35N}}{M+N}=\frac{13M+35N}{M+N}$$

Javob:A

2394. N ta sonning o'rta arifmetigi 24 ga, boshqa M tasiniki esa 17 ga teng. Shu M+N ta sonning o'rta arifmetigini toping.

A) $\dfrac{24N+17M}{M+N}$ B) $\dfrac{13M}{M+N}$ C) $\dfrac{24M+17N}{M+N}$ D) $\dfrac{M}{N}$

2395. C ta sonning o'rta arifmetigi 25 ga, boshqa K tasiniki esa 31 ga teng. Shu C+K ta sonning o'rta arifmetigini toping.

A) $\dfrac{24K+31C}{K+C}$ B) $\dfrac{31K}{K+C}$ C) $\dfrac{25C+31K}{K+C}$ D) $\dfrac{C}{K}$

2396. N ta sonning o'rta arifmetigi 78 ga, boshqa M tasiniki esa 87 ga teng. Shu M+N ta sonning o'rta arifmetigini toping.

A) $\dfrac{78N+87M}{M+N}$ B) $\dfrac{13M}{M+N}$

C) $\dfrac{78M+87N}{M+N}$ D) $\dfrac{M}{N}$

✓Kasrning suratiga 2 qo'shilsa, kasr 1 ga, maxrajiga uch qo'shilsa, u $\frac{1}{2}$ ga teng bo'ladi. Shu kasrning $\frac{3}{5}$ qismini toping.

A) $\frac{3}{7}$ B) $\frac{4}{7}$ C) $\frac{5}{7}$ D) $\frac{8}{7}$

Yechimi:

$\underline{kasr} \Rightarrow \frac{x}{y}$

$\underline{\text{Kasrning suratiga 2 qo'shilsa, kasr 1 ga}} \Rightarrow \boxed{\frac{x+2}{y}=1}$

$\underline{\text{maxrajiga uch qo'shilsa, u } \frac{1}{2} \text{ ga teng bo'ladi}} \Rightarrow \boxed{\frac{x}{y+3}=\frac{1}{2}}$

$$\begin{cases} \frac{x+2}{y}=1 \\ \frac{x}{y+3}=\frac{1}{2} \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x+2=y \\ 2x=y+3 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x-y=-2 \\ 2x-y=3 \end{cases}$$

$$\underline{\begin{cases} x-y=-2 \\ 2x-y=3 \end{cases}} \Rightarrow \underline{\begin{cases} x-y=-2 \\ 5-y=-2 \\ -y=-2-5 \\ y=7 \end{cases}}$$

$$\underline{\frac{x}{y}=\frac{5}{7} \Rightarrow \frac{3}{5} \text{ Shu kasrning } \frac{3}{5} \text{ qismini toping.}} \Rightarrow \boxed{\frac{5}{7}\cdot\frac{3}{5}=\frac{3}{7}}$$

Javob: $\frac{3}{7}$

2397. Kasrning maxraji suratidan 4 birlik ortiq. Agar kasrning surati va maxraji 1 birlik ortirilsa, $\frac{1}{2}$ soni hosil bo'ladi. Berilgan kasrning kvadratini toping.

A) $\frac{25}{81}$ B) $\frac{49}{121}$ C) $\frac{9}{49}$ D) $\frac{121}{225}$

2398. Kasr surati va maxrajining yig'indisi 23 ga teng. Surati maxrajidan 9 ta kam. Kasrni toping.

A) $\frac{7}{16}$ B) $\frac{8}{15}$ C) $\frac{16}{7}$ D) $\frac{10}{13}$

Prosent (Foizlar)

✓ 35 % ni kasr ko'rinishini toping.

A) 0,38 B) 0,12 C) 0,35 D) 1,2

Yechimi:

Ta'rif: Sonning yuzdan bir qismi shu sonning protsenti(foizi) deyiladi.

demak,

$\underline{35\% \text{ ni kasr ko'rinishi}} \Rightarrow \boxed{35\%=\frac{35}{100}=0,35}$

Javob: 0,35

Izoh: a % ni kasr ko'rinishda $\frac{a}{100}$ qilib yozib olish lozim.

2399. 12,8% ni kasr ko'rinishini toping.

A) 0,0128 B) 0,128 C) 1,28 D) 12,8

2400. $35\frac{5}{7}$ % ni kasr ko'rinishini toping.

A) 5/14 B) 11/14 C) 3/14 D) 9/14

2401. $187\frac{1}{2}$ % ni kasr ko'rinishini toping.

A) 18,75 B) 1,75 C) 0,1875 D) 1,875

2402. 25% ni kasr ko'rinishini toping.

A) 0,25 B) 2,5 C) 0,025 D) 0,36

2403. $6\frac{1}{4}$ % ni kasr ko'rinishini toping.

A) 0,625 B) 0,0625 C) 6,25 D) 0,0125

2404. 22,5% ni kasr ko'rinishini toping.

A) 2,25 B) 0,0225 C) 0,235 D) 0,225

2405. 750% ni kasr ko'rinishini toping.

A) 0,75 B) 7,5 C) 75 D) 0,075

✓ 240 ning85 % ini toping.

A) 482 B) 124 C) 265 D) 204

Yechimi:

1–usul

$\underline{240 \to 100\%,\ x \to 85\%} \Rightarrow \boxed{x=\frac{240\cdot 85}{100}=204}$

2–usul

$\underline{a \text{ sonining } t \text{ % i}} \Rightarrow \boxed{x=a\cdot\frac{t}{100}}$

$\underline{240 \text{ ning } 85 \text{ % i}} \Rightarrow \boxed{x=240\cdot\frac{85}{100}=204}$

Javob: 204

Izoh: *2*–usulda avval protsentni kasr ko'rinishda $\frac{85}{100}$ qilib yozib olib keyin, berilgan sonni ko'paytirish lozim.

$x=240\cdot\frac{85}{100}$

2406. 500 ning 3% ini toping.

A) 15 B) 30 C) 45 D) 25

2407. 280 ning 10% ini toping.

A)18 B) 28 C)14 D) 12

2408. 9,5 ning 280% ini toping.

A) 2,66 B) 0,266 C) 28,6 D) 26,6

2409. 8,5 ning 120% ini toping.

A) 8,6 B) 10,8 C) 10,2 D) 9,4

2410. 1,25 ning 1,2% ini toping.

A) 0,015 B) 0,15 C) 0,05 D) 1,5

✓85 % i204 ga teng sonni toping.

A) 482 B) 240 C) 265 D) 204

Yechimi:

$\underline{85 \text{ % i } 204 \text{ ga teng son}} \Rightarrow \boxed{\frac{85}{100}x=204}$

$\frac{85}{100}x=204$

$x=204:\frac{85}{100}$

$x=204\cdot\frac{100}{85}=240$

Javob: 240

Izoh: Avval protsentni kasr ko'rinishda $\frac{85}{100}$ qilib yozib oling.

2411. 8% i 24 ga teng sonni toping.
A) 200 B)150 C) 300 D) 250

2412. 30% i $12\frac{3}{4}$ ga teng sonni toping.
A) 32,5 B) 5,35 C) 40,5 D) 42,5

2413. 10% ni 0,14 kg ga teng sonni toping.
A) 1,4 B) 2,8 C) 3,5 D) 0,28

2414. 52% i 1,04 ga teng sonni toping.
A) 3 B) 2 C) 4 D) 5

2415. $1\frac{1}{4}$% i 55 ga teng sonni toping.
A) 440 B) 4400 C) 6600 D) 4000

2416. 750% ni 450 ga teng sonni toping.
A) 60 B) 50 C) 80 D)90

2417. 120% ni 0,6 ga teng sonni toping.
A) 0,4 B) 0,8 C) 0,15 D) 0,5

✓85%• x = 204 tenglamani yeching.
A) 482 B) 240 C) 265 D) 204
Yechimi:

$\frac{85}{100}x = 204$

$x = 204 : \frac{85}{100}$ **Javob: 240**

$x = 204 \cdot \frac{100}{85} = 240$

Izoh: Yechimi oldingi misol bilan bir xil.

2418. 60%•x = 24 tenglamani yeching.
A) 40 B) 80 C) 60 D) 100

2419. $1\frac{2}{3}$ %•x = 4,75 tenglamani yeching.
A) 275 B) 560 C) 180 D) 285

2420. $2\frac{1}{2}$ %•x = 0,15 tenglamani yeching.
A) 5 B) 4 C) 6 D) 3

2421. $10\frac{3}{4}$ %•x = 8,6 tenglamani yeching.
A) 80 B) 90 C) 70 D) 85

2422. $\frac{2}{3}$%•x = $4\frac{1}{5}$ tenglamani yeching.
A) 620 B) 630 C) 680 D) 600

✓ $\frac{5}{16}$ kasrni prosent ko'rinishini toping.
A) 48,2 B) 31,25 C) 26,5 D) 20.4
Yechimi:

$\frac{5}{16} \cdot 100 = \frac{500}{16} = 31,25\%$ **Javob: 31,25**

Izoh: solishtirib o'rganing.

$\frac{5}{16}$ kasrni prosent ko'rinishini toping $\Rightarrow \frac{5}{16} \cdot 100$

35 % ni kasr ko'rinishi $\Rightarrow \frac{35}{100}$

2423. $\frac{1}{2}$ kasrni present (%) ko'rinishini toping.
A) 40 B) 60 C) 80 D) 50

2424. 0,2 kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 60 B) 40 C) 20 D) 30

2425. $\frac{1}{8}$ kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 12,5 B)1,25 C) 25 D) 14,5

2426. 0,042 kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 30 B) 4,2 C) 6,5 D) 4,4

2427. $\frac{2}{5}$ kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 60 B) 40 C) 64 D) 28

2428. $1\frac{3}{4}$ kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 175 B) 165 C) 145 D) 180

2429. 0,125 kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 15,2 B) 16,4 C) 12,5% D) 8,96

2430. 4,25 kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 350 B) 325 C) 300 D) 425

2431. 1,2 kasrni prosent (%) ko'rinishini toping.
A) 150 B) 140 C) 120 D) 160

✓ $3p-3 \in N$ son 1; 2; 3; 6; 9 18; va 21 ga qoldiqsiz bo'linadi. p ning eng kichik natural qiymatini toping.
A) 43 B) 35 C) 41 D) 24
Yechimi: **J: 43**

1; 2; 3; 6; 9; 18; va 21 ga qoldiqsiz bo'linadi. $\Rightarrow EKUK(1; 2; 3; 6; 9; 18; \text{va } 21)$

$\Downarrow$

$\frac{EKUK(1; 2; 3; 6; 9; 18; \text{ va } 21)}{18}$ $EKUK(18 \text{ va } 21) = \frac{18 \cdot 21}{3} = 126$

$3p-3 = 126 \Rightarrow 3p = 126+3 \Rightarrow 3p = 129 \Rightarrow p = 43$

Izoh: Berilgan sonlarga EKUK topamiz(EKUK(1,2,3,6,9,18,21)). Keyin berilgan songa $3p-3 = 126$ tenglash lozim.

2432. $4p-8 \in N$ son 5; 15; 20 30; va 40 ga qoldiqsiz bo'linadi. p ning eng kichik natural qiymatini toping.
A) 42 B) 120 C) 128 D) 32

2433. $5p+2 \in N$ son 4; 8; 24 32; va 64 ga qoldiqsiz bo'linadi. p ning eng kichik natural qiymatini toping.
A) 42 B) 38 C) 128 D) 39

2434. $3p-9 \in N$ son 7; 21; 35 42; va 70 ga qoldiqsiz bo'linadi. p ning eng kichik natural qiymatini toping.
A) 42 B) 120 C) 73 D) 32

✓Barcha uch xonali sonlar ichida 44 ga qoldiqsiz bo'linadiganlari nechta?
A) 43 B) 22 C) 41 D) 20
Yechimi:

$999:44\approx\underline{22},7045$ | $99:44\approx\underline{2},25$

$\Downarrow$ | $\Rightarrow$ | $\Downarrow$

22 | 2

$\Updownarrow$

$22-2=20$

Javob: 20

TEZ TOPISH FORMULASI:

$$\left[\frac{999}{a}\right]-\left[\frac{99}{a}\right]\Rightarrow\left[\frac{999}{44}\right]-\left[\frac{99}{44}\right]=22-2-0=20$$

Izoh: formulaga soling tez va aniq chiqadi.

2435. Barcha uch xonali sonlar ichida 35 ga qoldiqsiz bo'linadiganlari nechta?

A) 28 B) 24 C) 26 D) 20

2436. Barcha uch xonali sonlar ichida 22 ga qoldiqsiz bo'linadiganlari nechta?

A) 42 B) 45 C) 41 D) 32

2437. Barcha uch xonali sonlar ichida 11 ga qoldiqsiz bo'linadiganlari nechta?

A) 79 B) 90 C) 81 D) 82

2438. Barcha uch xonali sonlar ichida 7 ga qoldiqsiz bo'linadiganlari nechta?

A) 142 B) 126 C) 127 D) 128

✓ 59 ni bo'lganda, qoldiq 9 chiqadigan barcha natural sonlarning yig'indisini toping.

A) 85 B) 22 C) 45 D) 20

Yechimi:

59 ni bo'lganda, qoldiq 9 chiqadigan

$\Downarrow$

$\begin{array}{|c|c|}\hline 59 & x \\ \hline - & y \\ \hline 9 & \\ \hline\end{array}\Rightarrow\boxed{\begin{array}{l}59=xy+9\\ xy=50\end{array}}$

$50=2\cdot5^2$

$$NBY(50)=\frac{2^{1+1}-1}{2-1}\cdot\frac{5^{2+1}-1}{5-1}=$$

$$=\frac{4-1}{2-1}\cdot\frac{125-1}{5-1}=\frac{3}{1}\cdot\frac{124}{4}=3\cdot31=93$$

9 dan kichik 50 ga karrali

1, 2, 5 shu sonl arg *a bo'lganda*

qoldiq 9 bo'lmaydi shuning uchun

$\Rightarrow1+2+5=8$

$93-8=85$

Javob: 85

Izoh: Qoldiqni berilgan sondan ayrib $\begin{array}{l}59=xy+9\\ xy=50\end{array}$ NBY ni hisoblash lozim(NBY(50)). Qoldiqgacha sonlar ichidan 50 ga bo'linadigan sonlarni ayirib chiqarib tashlaymiz.

2439. 89 ni bo'lganda, qoldiq 9 chiqadigan barcha natural sonlarning yig'indisini toping.

A) 186 B) 148 C) 166 D) 120

2440. 213 ni bo'lganda, qoldiq 13 chiqadigan barcha natural sonlarning yig'indisini toping.

A) 435 B) 445 C) 465 D) 332

2441. 255 ni bo'lganda, qoldiq 5 chiqadigan barcha natural sonlarning yig'indisini toping.

A) 460 B) 390 C) 360 D) 472

✓520 ni o'zidan farqli bo'lgan ikki son ko'paytmasi shaklida tasvirlashning nechta varianti bor?

A) 7 B) 11 C) 4 D) 13

Yechimi:

$520=2^3\cdot5\cdot13$

$NBS(520)=(3+1)\cdot(1+1)\cdot(1+1)=16$ **Javob: 7**

$\frac{16}{2}-1=8-1=7$

TEZ TOPISH FORMULASI:

$$\frac{NBS(a)}{2}-1\Rightarrow\frac{NBS(520)}{2}-1$$

2442. 320 ni o'zidan farqli bo'lgan ikki son ko'paytmasi shaklida tasvirlashning nechta varianti bor?

A) 8 B) 14 C) 6 D) 11

2443. 480 ni ni o'zidan farqli bo'lgan ikki son ko'paytmasi shaklida tasvirlashning nechta varianti bor?

A) 12 B) 24 C) 11 D) 20

2444. 640 ni o'zidan farqli bo'lgan ikki son ko'paytmasi shaklida tasvirlashning nechta varianti bor?

A) 9 B) 16 C) 7 D) 11

✓1 dan 200 gacha sonlar ichida 5 ga bo'linib, 7 ga bo'linmaydigan sonlar nechta?

A) 43 B) 22 C) 40 D) 35

Yechimi:

$\left[\frac{200}{5}\right]-\left[\frac{200}{5\cdot7}\right]=40-5=35$ **Javob: 35**

2445. 1 dan 120 gacha sonlar ichida 3 ga bo'linib, 5 ga bo'linmaydigan sonlar nechta?

A) 36 B) 32 C) 17 D) 40

2446. 1 dan 250 gacha sonlar ichida 2 ga bo'linib, 5 ga bo'linmaydigan sonlar nechta?

A) 100 B) 125 C) 105 D) 112

2447. 1 dan 350 gacha sonlar ichida 4 ga bo'linib, 9 ga bo'linmaydigan sonlar nechta?

A) 68 B) 87 C) 38 D) 78

✓Uchta sonning o'rta arifmetigi 30 ga, dastlabki ikkitasiniki esa 25 ga teng. Uchinchi sonni toping.

A) 43 B) 22 C) 40 D) 20

Yechimi:

Uchta sonning o'rta arifmetigi 30 ga $\Rightarrow\boxed{\frac{a+b+c}{3}=30}$

dastlabki ikkitasiniki esa 25 ga teng $\Rightarrow\boxed{\frac{a+b}{2}=25}$

$\frac{a+b+c}{3}=30\Rightarrow\boxed{a+b+c=90}$

$\frac{a+b}{2}=25\Rightarrow\boxed{a+b=50}$

$\begin{cases} a+b+c=90 \\ a+b=50 \end{cases}$ *sistemani yechamiz* $\rightarrow \begin{cases} a+b+c=90 \\ a+b=50 \end{cases}$

$c=40$

Javob: 40

2448. Uchta sonning o'rta arifmetigi 36 ga, dastlabki ikkitasiniki esa 24 ga teng. Uchinchi sonni toping.
A) 40 B) 48 C) 60 D) 20

2449. To'rtta sonning o'rta arifmetigi 16 ga, dastlabki uchtasiniki esa 11 ga teng. To'rtinchi sonni toping.
A) 31 B) 45 C) 41 D) 32

2450. Beshta sonning o'rta arifmetigi 22 ga, dastlabki to'rttasiniki esa 12 ga teng. Beshinchi sonni toping.
A) 62 B) 90 C) 60 D) 72

✓Ikki sonning yig'indisi 8,2 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 4 marta kichik. Shu sonlarning kattasini toping.
A) 6 B) 6,56 C) 5,56 D) 5,56

Yechimi:

Ikki sonning yig'indisi 8,2 ga teng. $\Rightarrow a+b=8,2$

Ulardan biri ikkinchisidan 4 marta kichik. $\Rightarrow a=\frac{b}{4}$

$\begin{cases} a+b=8,2 \\ a=\frac{b}{4} \end{cases}$ *sistemani yechamiz*

$\begin{cases} a+b=8,2 \\ a=\frac{b}{4} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a+b=8,2 \\ \frac{b}{4}+b=8,2 \\ b+4b=8,2\cdot 4 \\ 5b=32,8 \\ b=32,8:5 \\ b=6,56 \end{cases}$ **Javob: 6,56**

$a=\frac{b}{4}=\frac{6,56}{4}=\frac{656}{400}=1,64$

Izoh: Tenglamalar sistemasini tuzishda "marta kichik" $\frac{b}{4}$. "marta katta" $4b$ qilish lozim.

2451. Ikki sonning yig'indisi 10,8 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 3 marta kichik. Shu sonlarning kichigini toping.
A) 1,2 B) 4,8 C) 2,7 D) 5,4

2452. Ikki sonning yig'indisi 11,5 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 4 marta katta. Shu sonlarning kattasini toping.
A) 10,2 B) 9,2 C) 8,4 D) 9,6

2453. Ikki sonning yig'indisi 6,6 ga teng. Ulardan biri ikkinchisidan 5 marta katta. Shu sonlarning kattasini toping.
A) 6,2 B) 5,5 C) 1,1 D) 7,2

✓Ikki sonning ko'paytmasi 5,76 ga teng. Birinchi ko'paytuvchi 0,8 ga, ikkinchi ko'paytuvchi 1,6 ga bo'linsa, ko'paytma necha bo'ladi?
A) 6 B) 6,5 C) 4,5 D) 5,5

Yechimi:

Ikki sonning ko'paytmasi 5,76 ga teng. $\Rightarrow a\cdot b=5,76$

Birinchi ko'paytuvchi 0,8 ga, ikkinchi ko'paytuvchi 1,6 ga bo'linsa. $\Rightarrow \frac{a}{0,8}\cdot\frac{b}{1,6}$

$\frac{a}{0,8}\cdot\frac{b}{1,6}=\frac{a\cdot b}{0,8\cdot 1,6}=\frac{5,76}{0,8\cdot 1,6}=4,5$ **Javob: 4,5**

2454. Ikki sonning ko'paytmasi 5,5 ga teng. Birinchi ko'paytuvchi 0,5 ga, ikkinchi ko'paytuvchi 5,5 ga bo'linsa, ko'paytma necha bo'ladi?
A) 1,2 B) 2 C) 2,7 D) 5,4

2455. Ikki sonning ko'paytmasi 8,16 ga teng. Birinchi ko'paytuvchi 0,4 ga, ikkinchi ko'paytuvchi 6 ga bo'linsa, ko'paytma necha bo'ladi?
A) 1,2 B) 4,8 C) 2,7 D) 3,4

✓32 dan 62,4 necha foiz ortiq?
A) 90 B) 65 C) 95 D) 55

Yechimi:

$32 \rightarrow 100\%$
$62,4 \rightarrow x\%$
$\Rightarrow 32x=62,4\cdot 100$
$32x=6240$
$x=195$

necha foiz ortiq? $\Rightarrow 195-100=95$

Javob: 95

Izoh: Proporsiyani tuzishda shartidagi "dan" so'zıga e'tibor bering shu son to'g'risiga 100 % qilish lozim. Quyidagiga e'tibor bering.

32 *dan* 62,4
necha foiz ortiq?

$32 \rightarrow 100\%$
$62,4 \rightarrow x\%$

2456. 56,2 soni 20 dan necha foiz ortiq?
A) 19 B) 181 C) 81 D) 281

2457. 40 dan 29,2 necha foiz kam?
A) 12 B) 47 C) 26 D) 27

2458. 10,2 soni 17 dan necha foiz kam?
A) 40 B) 80 C) 60 D) 50

✓8 foizi 40 ning 25 foziga teng bo'lgan sonni toping.
A) 190 B) 165 C) 195 D) 125

Yechimi:

8 foizi $\Rightarrow 0,08$

40 ning 25 foziga $\Rightarrow 40\cdot 0,25$

8 foizi 40 ning 25 foziga teng. $\Rightarrow 0,08x=40\cdot 0,25$

$0,08x=40\cdot 0,25$
$0,08x=10$
$x=10:0,08$
$x=125$

Javob: 125

2459. 18 foizi 72 ning 35 foziga teng bo'lgan sonni toping?

A) 190 B) 140 C) 181 D) 240

2460. 28 foizi 70 ning 30 foziga teng bo'lgan sonni toping?
A) 72 B) 77 C) 65 D) 75

2461. 38 foizi 80 ning 19 foziga teng bo'lgan sonni toping?
A) 40 B) 80 C) 60 D) 50

✓ Ushbu 3,4 ;1,5 sonlar ayirmasining 25% ini toping.
A) 0,375 B) 0,265 C) 0,475 D) 0,19

Yechimi:

Ushbu 3,4 ; 1,5 sonlar ayirmasi $\Rightarrow$ $3,4-1,5$

3,4 ; 1,5 sonlar ayirmasining 25% ini $\Rightarrow$ $(3,4-1,5)\cdot 0,25$

$(3,4-1,5)\cdot 0,25=0,475$

Javob: 0,475

2462. Ushbu 3,4 ; 1,5 sonlar yig'indisining 25% ini toping
A) 1,9 B) 1,225 C) 1,85 D) 1,22

2463. Ushbu 7,05 ;1,15 sonlar ayirmasining 20% ini toping.
A) 1,28 B) 1,77 C) 1,68 D) 1,18

2464. Ushbu 7,05 ;1,15 sonlar yig'indisining 20% ini toping.
A) 1,28 B) 1,77 C) 1,68 D) 1,64

✓Ikki sonning ayirmasi 5 ga teng. Agar shu sonlardan kattasining 20 % i kichigining $\frac{7}{30}$ qismiga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.
A) 30 va 35 B) 63 va 68
C) 36 va 41 D) 45 va 50

Yechimi:

Ikki sonning ayirmasi 5 ga teng. $\Rightarrow$ $a-b=5$

Agar shu sonlardan kattasining 20 % i kichigining $\frac{7}{30}$ qismiga teng. $\Rightarrow$ $\frac{20}{100}a=\frac{7}{30}b$

$$\begin{cases} a-b=5 \\ 0,2a=\frac{7}{30}b \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a-b=5 \\ a=\frac{7}{6}b \end{cases}$$

$0,2a=b$

$a=\frac{7b}{30}:\frac{1}{5}$

$a=\frac{7b}{30}\cdot 5 \Rightarrow a=\frac{7b}{6}$

$a-b=5$

$\frac{7b}{6}-b=5$

$7b-6b=30$

$b=30$

Javob: 30 va 35

Izoh: Protsentni kasr ko'rinishida yozib olib keyin yakkalash lozim.

2465. Ikki sonning ayirmasi 7 ga teng. Agar shu sonlardan kattasining $\frac{2}{5}$ qismiga kichigining 50 % i teng bo'lsa, shu sonlarni toping.
A) 18 va 11 B) 20 va 13 C) 35 va 28 D) 28 va 14

2466. Ikki sonning yig'indisi 24 ga teng. Agar shu sonlardan birining 60 % i ikkinchisining $\frac{3}{10}$ qismiga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.
A) 18 va 6 B) 20 va 4 C) 7 va 17 D) 8 va 16

2467. Ikki sonning ayirmasi 5 ga teng. Agar shu sonlardan kattasining 20% i kichigini 2/9 qismiga teng bo'lsa, shu sonlarni toping.
A) 18 va 13 B) 20 va 25 C) 45 va 50 D) 21 va 16

✓Ishchining oylik maoshi 950 so'm. Agar uning maoshi 60 % ortsa, u qancha maosh oladi?
A) 1520 B) 1068 C) 1420 D) 1560

Yechimi:

a soni t % ga oshirilsa $\Rightarrow$ $a\cdot\left(1+\frac{t}{100}\right)$

Ishchining oylik maoshi 950 so'm. Agar uning maoshi 60% ortsa $\Rightarrow$ $950\cdot\left(1+\frac{60}{100}\right)$

$950\cdot\left(1+\frac{60}{100}\right)=950\cdot 1,6=1520$ **Javob: 1520**

2468. Ishchining oylik maoshi 350 so'm. Agar uning maoshi 30% ortsa, u qancha maosh oladi?
A) 555 B) 600 C) 455 D) 400

2469. Nafaqaxo'rning oylik nafaqasi 450 so'm. Agar uning nafaqasi 20% ga ortsa, u qancha nafaqa oladi?
A) 560 B) 540 C) 470 D) 500

2470. Talabaning stipendiyasi 120 ming so'm. Agar uning stipendiyasi 20% ga ortsa, u necha ming so'm stipendiya oladi?
A) 148 B) 144 C) 142 D) 140

✓Ishchining oylik maoshi 950 so'm. Agar uning maoshi 2 marta 10 % ortsa, u qancha maosh oladi?
A) 1520,8 B) 1249,5 C) 1420 D) 1149,5

Yechimi:

a soni t % ga "n" marta oshirilsa $\Rightarrow$ $a\cdot\left(1+\frac{t}{100}\right)^n$

Ishchining oylik maoshi 950 so'm. Agar uning maoshi 2 marta 10% ortsa $\Rightarrow$ $950\cdot\left(1+\frac{10}{100}\right)^2$

$950\cdot\left(1+\frac{10}{100}\right)^2=950\cdot 1,1^2=1149,5$

Javob: 1149,5

2471. Ishchining oylik maoshi 3500 so'm. Har yili uning maoshi 10% ortsa, u 2 yildan keyin qancha maosh oladi?
A) 4355 B) 4600 C) 4235 D) 4468

2472. Nafaqaxo'rning oylik nafaqasi 4500 so'm. Har yili uning nafaqasi 10% ga ortsa, u 2 yildan keyin qancha nafaqa oladi?
A) 5605 B) 5445 C) 4705 D) 5000

2473. Talabaning stipendiyasi 120 ming so'm. Har yili uning stipendiyasi 20% ga ortsa, u 2 yildan keyin necha ming stipendiyasi oladi?

A) 148,8 B) 172,8 C) 190,2 D) 180

✓Ishchining oylik maoshi 900 so'm. Agar uning maoshi 20 %kamaysa, u qancha maosh oladi?

A) 720 B) 768 C) 420 D) 560

Yechilishi:

a soni t % ga kamaytirilsa $\Rightarrow \boxed{a\left(1-\frac{t}{100}\right)}$

Ishchining oylik maoshi 900 so'm. Agar uning maoshi 20% kamaysa $\Rightarrow \boxed{900\left(1-\frac{20}{100}\right)}$

$900\cdot\left(1-\frac{20}{100}\right)=900\cdot 0,8=720$ **Javob: 720**

2474. Ishchining oylik maoshi 7500 so'm. Agar uning maoshi 30% kamaysa, u qancha maosh oladi?

A) 5250 B) 6000 C) 5450 D) 4000

2475. Nafaqaxo'rning oylik nafaqasi 8500 so'm. Agar uning nafaqasi 20% ga kamaysa, u qancha nafaqa oladi?

A) 6800 B) 5640 C) 5800 D) 7800

2476. Talabaning stipendiyasi 160 ming so'm. Agar uning stipendiyasi 25% ga kamaysa, u necha ming so'm stipendiya oladi?

A) 120 B) 144 C) 130 D) 140

✓Ishlab chiqarish samaradorligi birinchi yili 15% ga, ikkinchi yili 20% ga ortdi. Shu ikki yil ichida samaradorlik necha foizga ortgan?

A) 35 B) 38 C) 40 D) 60

Yechimi:

$\boxed{t_1\ \%\ \Uparrow,\ t_2\ \%\ \Uparrow} \Rightarrow \boxed{A=\left(1+\frac{t_1}{100}\right)\cdot\left(1+\frac{t_2}{100}\right)\cdot a}$

$\boxed{15\ \%\ \Uparrow,\ 20\ \%\ \Uparrow} \Rightarrow \boxed{A=\left(1+\frac{15}{100}\right)\cdot\left(1+\frac{20}{100}\right)\cdot a}$

$A=\left(1+\frac{15}{100}\right)\cdot\left(1+\frac{20}{100}\right)\cdot a=1,15\cdot 1,2a=1,38a$

$1,38a-a=0,38a \qquad 0,38a \Rightarrow 38\%$

Javob: 38

2477. Ishlab chiqarish samaradorligi birinchi yili 10% ga, ikkinchi yili 20% ga ortdi. Shu ikki yil ichida samaradorlik necha foizga ortgan?

A) 32 B) 36 C) 54 D) 30

2478. Mahsulot inflyasiya natijasida birinchi 20% ga, keyinchalik esa 30% oshirilgan. Mahsulotning oxirgi narxi dastlabkisiga qaraganda necha foizga ortgan?

A) 68 B) 50 C) 56 D) 48

2479. Mahsulotning narxi birinchi marta 15% ga, ikkinchi marta yangi bahosi yana 25% ga oshirildi. Mahsulotning oxirgi narxi dastlabkisiga qaraganda necha foizga ortgan?

A) 48,25 B) 43,75 C) 30 D) 40

✓Ishlab chiqarish samaradorligi birinchi yili 15% ga kamaydi, ikkinchi yili 20% ga ortdi. Shu ikki yil ichida samaradorlik qanday o'zgargan?

A) 2 % ortgan
B) 5% ortgan
C) 2% kamaygan
D) 5% kamaygan

Yechimi:

$\boxed{t_1\ \%\ \Downarrow,\ t_2\ \%\ \Uparrow} \Rightarrow \boxed{A=\left(1-\frac{t_1}{100}\right)\cdot\left(1+\frac{t_2}{100}\right)\cdot a}$

$\boxed{15\ \%\ \Downarrow,\ 20\ \%\ \Uparrow} \Rightarrow \boxed{A=\left(1-\frac{15}{100}\right)\cdot\left(1+\frac{20}{100}\right)\cdot a}$

$A=\left(1-\frac{15}{100}\right)\cdot\left(1+\frac{20}{100}\right)\cdot a=0,85\cdot 1,2\ a=1,02\ a$

$1,02a-a=0,02\ a \qquad 0,02a \Rightarrow 2\%\ ortgan$

Javob: 2% ortgan

Izoh: Agar 1,02 a ning oldidagi butun qismi 0, 76 a bo'lganda (ya'ni "0" butun) kamaygan bo'lardi. Shunda javob ($a-0,76a=0,34a$) 34% kamaygan

2480. Ishlab chiqarish samaradorligi birinchi yili 35% ga kamaydi, ikkinchi yili 60% ga ortdi. Shu ikki yil ichida samaradorlik qanday o'zgargan?

A) o'zgarmagan B) 4% ortgan
C) 4% kamaygan D) 20 % ortgan

2481. Ishlab chiqarish samaradorligi birinchi yili 25% ga kamaydi, ikkinchi yili 30% ga ortdi. Shu ikki yil ichida samaradorlik qanday o'zgargan?

A) o'zgarmagan B) 2,5% ortgan
C) 2,5% kamaygan D) 0,75% kamaygan

2482. Mahsulot inflyasiya natijasida birinchi 35% ga oshirildi, keyinchalik esa 10% kamaytirildi. Mahsulotning oxirgi narxi dastlabkisiga qaraganda qanday o'zgargan?

A) o'zgarmagan B) 16% ortgan
C) 21,5% ortgan D) 21,5 % kamaygan

2483. Mahsulot inflyasiya natijasida birinchi 20% ga oshirildi, keyinchalik esa 30% kamaytirildi. Mahsulotning oxirgi narxi dastlabkisiga qaraganda qanday o'zgargan?

A) o'zgarmagan B) 16% ortgan
C) 16% kamaygan D) 0,8% kamaygan

2484. Mahsulotning narxi birinchi marta 50% ga kamaytirildi, ikkinchi marta yangi bahosi 50% ga oshirildi. Mahsulotning oxirgi narxi dastlabkisiga qaraganda qanday o'zgargan?

A) o'zgarmagan B) 25% ortgan
C) 75% kamaygan D) 25% kamaygan

✓*Go'sht qaynatilganda o'z vaznining 40 % ini yo'qatadi.* 7,2 kg qaynatilgan go'sht xosil qilish uchun qozonga necha kg go'sht solish kerak?

A) 12 B) 15 C) 22 D) 35

Yechimi:

$t_1\ \%\ \Downarrow\ A=\left(1-\frac{t_1}{100}\right)\cdot a \Rightarrow \boxed{7,2=\left(1-\frac{40}{100}\right)\cdot a}$

$7,2=\left(1-\frac{40}{100}\right)\cdot a$

$7,2=0,6a$ **Javob: 12 kg**

$a=12$

2485. Go'sht qaynatilganda o'z vaznining 40% ini yo'qotadi. 6 kg qaynatilgan go'sht hosil qilish uchun qozonga necha kg go'sht solish kerak?
A) 20 B) 15 C) 30 D) 10

2486. 1 kg yangi uzilgan nokdan 84% quritilgan nok olinadi. 252 kg quritilgan nok olish uchun qancha kg yangi uzilgan nok kerak?
A) 150 B) 300 C) 100 D) 200

2487. 14 % ga arzonlashtirilgandan keyin mahsulotning bahosi 1892 so'm bo'ldi. Mahsulotning dastlabki bahosini aniqlang
A) 2750 B) 1500 C) 2200 D) 2500

2488. Olxo'ri quritilganda 35% olxo'ri qoqisi hosil bo'ladi. 64 kg olxo'ri quritilsa, qancha olxo'ri qoqisi olinadi?
A) 22,4 B) 18,5 C) 41,6 D) 24

2489. Do'konga 96 ta karam keltirildi. Agar karamning 80% sotilgan bo'lsa, do'konda qancha karam qolgan?
A) 20 B) 18 C) 19,2 D) 22,5

✓Mahsulotning bahosi 30 % ga oshirildi. ma'lum vaqtdan keyin 20 % gaarzonlashtirildi, shundan so'ng uning narxi 8944 so'm bo'ldi. Mahsulotning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 8400 B) 9300 C) 8600 D) 8500

Yechimi:

$t_1\%\uparrow,\ t_2\%\downarrow$

$$A=\left(1-\frac{t_1}{100}\right)\cdot\left(1-\frac{t_2}{100}\right)\cdot a$$

$\Downarrow$

30% ↑, 20 % ↓ ⇒
1,3 0,8

$$\begin{cases} 8944=1,3\cdot 0,8a \\ a=\dfrac{8944}{1,3\cdot 0,8} \\ a=8600 \end{cases}$$

Javob: 8600

2490. Mahsulotning bahosi 20 % ga oshirildi. ma'lum vaqtdan keyin 30 % gaarzonlashtirildi, shundan so'ng uning narxi 1680 so'm bo'ldi. Mahsulotning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 1200 B) 1500 C) 3000 D) 2000

2491. Mahsulotning bahosi 80 % ga oshirildi. ma'lum vaqtdan keyin 60 % gaarzonlashtirildi, shundan so'ng uning narxi 2160 so'm bo'ldi. Mahsulotning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan? ✓
A) 1500 B) 3000 C) 1000 D) 2000

✓Umumiy daftarning bahosi oldin 15%, keyin 139 so'm arzonlashgach, 150 so'm bo'ldi. daftarning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 400 B) 390 C) 500 D) 340

Yechimi:

Umumiy daftarning bahosi oldin 15 % ⇒ $(1-0,15)a=0,85a$

$\Downarrow$

Umumiy daftarning bahosi oldin 15%, keyin 139 so'm arzonlashgach, 150 so'm bo'ldi ⇒ $0,85a-139=150$

$0,85a-139=150$

$0,85a=289$

$a=340$

Javob: 340

2492. Umumiy daftarning bahosi oldin 40 %, keyin 180 so'm arzonlashgach, 1500 so'm bo'ldi. daftarning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 2800 B) 1800 C) 3000 D) 2000

2493. Umumiy daftarning bahosi oldin 25%, keyin 250 so'm arzonlashgach, 2000 so'm bo'ldi. daftarning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 1500 B) 3000 C) 1000 D) 2200

2494. Umumiy daftarning bahosi oldin 35%, keyin 175 so'm qimmatlashgach, 2200 so'm bo'ldi. daftarning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 1000 B) 3500 C) 1500 D) 2000

2495. Umumiy daftarning bahosi oldin 18%, keyin 138 so'm qimmatlashgach, 2380 so'm bo'ldi. daftarning dastlabki bahosi necha so'm bo'lgan?
A) 2300 B) 3080 C) 1900 D) 2000

✓Ikkita buyumning birgalikdagi bahosi 35800 so'm turadi. Agar birinchi buyumning bahosi 10% kamaytirilsa, ikkinchisiniki esa 15% ortirilsa, ular birgalikda 38070 so'm turadi. Birinchi buyumning dastlabki bahosini toping.
A) 12400 B) 25790 C) 23500 D) 13340

Yechimi:

Ikkita buyumning birgalikdagi bahosi 35800 so'm turadi. ⇒ $x+y=35800$

$\Downarrow$

Agar birinchi buyumning bahosi 10% kamaytirilsa, ikkinchisiniki esa 15% ortirilsa, ular birgalikda 38070 so'm turadi.

$\Downarrow$

$$\begin{cases} (1-0,1)x+(1+0,15)y=38070 \\ 0,9x+1,15y=38070 \end{cases}$$

$$\begin{cases} x+y=35800 \\ 0,9x+1,15y=38070 \end{cases}$$

$$\begin{cases} x+y=35800 \quad (\cdot -1,15) \\ 0,9x+1,15y=38070 \end{cases} \Leftrightarrow + \begin{cases} -1,15x-1,15y=-35800\cdot 1,15 \\ 0,9x+1,15y=38070 \end{cases}$$

$$-0,25x=-41170+38070$$

$$x=3100:0,25$$

$$x=12400$$

Javob: 12400

2496. Ikkita buyumning birgalikdagi bahosi 75100 so'm turadi. Agar birinchi buyumning bahosi 20% kamaytirilsa,

ikkinchisiniki esa 10% ortirilsa, ular birgalikda 65870 so'm turadi. Birinchi buyumning dastlabki bahosini toping.
A) 55800 B) 66960 C) 23160 D) 19200

2497. Ikkita buyumning birgalikdagi bahosi 35000 so'm turadi. Agar birinchi buyumning bahosi 15% kamaytirilsa, ikkinchisiniki esa 20% ortirilsa, ular birgalikda 37660 so'm turadi. Birinchi buyumning dastlabki bahosini toping.
A) 25990 B) 12400 C) 14260 D) 22500

✓Matematikadan o'tkazilgan imtihonda o'quvchilarning 12% i birorta ham masalalarni yecha olmadi, 195 ta o'quvchi masalalarni yechishda xatolikka yo'l qo'ydi. Agar barcha masalalarni to'liq yechgan o'quvchilarning masalalarni umuman yecha olmagan o'quvchilarga nisbati 7:3kabi bo'lsa, qancha o'quvchi imtihon topshirgan?
A) 440 B) 340 C) 240 D) 325

Yechimi:

Matematikadan o'tkazilgan imtihonda o'quvchilarning 12% i birorta ham masalalarni yecha olmadi. $\Rightarrow 0{,}12x$

195 ta o'quvchi masalalarni yechishda xatolikka yo'l qo'ydi. $\Rightarrow 195$

Agar barcha masalalarni to'liq yechgan $\Rightarrow 0{,}88x-195$

Agar barcha masalalarni to'liq yechgan o'quvchilarning masalalarni umuman yecha olmagan o'quvchilarga nisbati 7 : 3 kabi

$$\Downarrow$$

$$\frac{0{,}88x-195}{0{,}12x}=\frac{7}{3} \Rightarrow \text{proporsiyadan } x=325 \text{ chiqadi}$$

Javob: 325

2498. Matematikadan o'tkazilgan imtihonda o'quvchilarning 10% i birorta ham masalalarni yecha olmadi, 325 ta o'quvchi masalalarni yechishda xatolikka yo'l qo'ydi. Agar barcha masalalarni to'liq yechgan o'quvchilarning masalalarni umuman yecha olmagan o'quvchilarga nisbati 5 : 2kabi bo'lsa, qancha o'quvchi imtihon topshirgan?
A) 500 B) 380 C) 700 D) 710

2499. Matematikadan o'tkazilgan imtihonda o'quvchilarning 15% i birorta ham masalalarni yecha olmadi, 180 ta o'quvchi masalalarni yechishda xatolikka yo'l qo'ydi. Agar barcha masalalarni to'liq yechgan o'quvchilarning masalalarni umuman yecha olmagan o'quvchilarga nisbati 5:3kabi bo'lsa, qancha o'quvchi imtihon topshirgan?
A) 230 B) 300 C) 460 D) 410

✓To'rtta sonning yig'indisi 161 ga teng. Ulardan dastlabki uchtasi 4; 5 va 8 sonlariga to'g'ri proporsional, birinchi va to'rtinchi sonlar esa 6 va 4 sonlariga teskari proporsional. Ikkinchi sonni toping.
A) 45 B) 35 C) 40 D) 30

Yechimi:

To'rtta sonning yig'indisi 161ga teng.

$$\Downarrow$$

$$a+b+n+m=161$$

ulardan dastlabki uchtasi 4,5 va 8 sonlariga to'g'ri proporsional. $\Rightarrow \begin{cases} a=4x, \\ b=5x \\ n=8x \end{cases}$

$$\Downarrow$$

$$4x+5x+8x+?=161$$

birinchi va to'rtinchi sonlar esa 6 va 4 sonlariga teskari proporsional. $\Rightarrow \frac{a}{m}=\frac{4}{6}$

$$\frac{a}{m}=\frac{4}{6} \Rightarrow \frac{4x}{m}=\frac{4}{6}$$

$$m=6x$$

$$4x+5x+8x+6x=161$$

Javob: 35

$$23x=161$$

$$x=7$$

$$b=5x \Rightarrow b=5\cdot 7=35$$

2500. To'rtta sonning yig'indisi 192 ga teng. Ulardan dastlabki uchtasi 4; 5 va 9 sonlariga to'g'ri proporsional, birinchi va to'rtinchi sonlar esa 6 va 4 sonlariga teskari proporsional. Ikkinchi sonni toping.
A) 50 B) 40 C) 45 D) 35

2501. To'rtta sonning yig'indisi 189 ga teng. Ulardan dastlabki uchtasi 5; 6 va 9 sonlariga to'g'ri proporsional, ikkinchi va to'rtinchi sonlar esa 7 va 6 sonlariga teskari proporsional. uchinchi sonni toping.
A) 81 B) 63 C) 72 D) 54

✓a ning qanday qiymatida $9-a$ va $15-a$ lar qarama-qarshi sonlar bo'ladi?
A) 9 B) 12 C) 10 D) 15

Yechimi:

$9-a$ va $15-a$ lar qarama-qarshi sonlar.

$$\Downarrow$$

$$9-a=-(15-a)$$

$$9-a=-15+a$$

$$-2a=-24$$

$$a=12$$

Javob: 12

2502. n ning qanday qiymatida $9-4n$ va $26-n$ lar qarama-qarshi sonlar bo'ladi.
A) 0 B) 7 C) 4 D) 5

2503. a ning qanday qiymatida $8-a$ va $82-9a$ lar qarama-qarshi sonlar bo'ladi.
A) 81 B) 3 C) 9 D) 4

2504. a ning qanday qiymatida $39-7a$ va $25-a$ lar qarama-qarshi sonlar bo'ladi.
A) 9 B) 10 C) 8 D) 7

✓a sonining b songa nisbati $\frac{7}{11}$ ga, c sonining b songa nisbati $\frac{11}{5}$ ga teng. c sonining a soniga nisbati nechaga teng?

A) $\frac{121}{3}$ B) $\frac{11}{35}$ C) $\frac{121}{35}$ D) $\frac{12}{35}$

Yechimi:

a sonining b songa nisbati $\frac{7}{11}$ ga teng $\Rightarrow \frac{a}{b}=\frac{7}{11}$

c sonining b songa nisbati $\frac{11}{5}$ ga teng $\Rightarrow \frac{c}{b}=\frac{11}{5}$

c sonining a soniga nisbati nechaga teng? $\Rightarrow \frac{c}{a}=?$

c sonining a soniga nisbati nechaga teng? $\Rightarrow \frac{c}{a}=?$

$\frac{a}{b}=\frac{7}{11} \Rightarrow a=\frac{7}{11}b$ $\quad$ $\frac{c}{b}=\frac{11}{5} \Rightarrow c=\frac{11}{5}b$

$\frac{c}{a}=? \Rightarrow \frac{c}{a}=\frac{\frac{11}{5}b}{\frac{7}{11}b}=\frac{11}{5}:\frac{7}{11}=\frac{121}{35}$

Javob: $\frac{121}{35}$

2505. a sonining b songa nisbati $\frac{5}{11}$ ga, c sonining b songa nisbati $\frac{9}{11}$ ga teng. c sonining a soniga nisbati nechaga teng?

A) 5 B) $\frac{9}{5}$ C) $\frac{4}{5}$ D) $\frac{5}{9}$

2506. a sonining b songa nisbati $\frac{3}{4}$ ga, c sonining b songa nisbati $\frac{25}{32}$ ga teng. c sonining a soniga nisbati nechaga teng?

A) $\frac{12}{25}$ B) $\frac{25}{24}$ C) $\frac{24}{25}$ D) 4

✓a soni b^2+6 bilan to'g'ri proporsional. b=8 bo'lganda, a=140 bo'lsa, b=−3 bo'lganda, a soni nechaga teng bo'ladi?

A) 30 B) 12 C) 10 D) 15

Yechimi:

a soni bilan to'g'ri b^2+6 proporsional. $\Rightarrow a=x\left(b^2+6\right)$

$b=8$ bo'lganda, $a=140$ bo'lsa $\Rightarrow \begin{cases} a=x\left(b^2+6\right) \\ 140=x\left(8^2+6\right) \end{cases}$

$\Downarrow$

$x=2$

$b=-3$ bo'lganda, a soni nechaga teng bo'ladi $\Rightarrow \begin{cases} a=x\left(b^2+6\right) \\ x=2 \\ a=2\left(b^2+6\right) \end{cases}$

$\Downarrow$

$a=2\left(b^2+6\right) \Rightarrow a=2\left((-3)^2+6\right) \Rightarrow \quad a=30$

Javob: 30

2507. a soni b^2-23 bilan to'g'ri proporsional. b=6 bo'lganda, a=−39 bo'lsa, b=−2 bo'lganda, a soni nechaga teng bo'ladi?

A) 10 B) 72 C) 38 D) 57

2508. a soni b^2+7 bilan to'g'ri proporsional. b=6 bo'lganda, a=−43 bo'lsa, b=−4 bo'lganda, a soni nechaga teng bo'ladi?

A) 81 B) −32 C) −23 D) 23

✓ Sinfda o'qiydigan o'g'il bolalar sonining barcha o'quvchilar soniga nisbati $\frac{11}{17}$ ga teng bo'lsa, qiz bolalar sonining o'g'il bolalar soniga nisbati nechaga teng bo'ladi?

A) $\frac{6}{11}$ B) $\frac{5}{11}$ C) $\frac{3}{11}$ D) $\frac{11}{6}$

Yechimi:

Sinfda o'qiydigan o'g'il bolalar $\Rightarrow a$

Sinfda o'qiydigan qiz bolalar soni $\Rightarrow b$

barcha o'quvchilar $\Rightarrow a+b$

Sinfda o'qiydigan o'g'il bolalar sonining barcha o'quvchilar soniga nisbati $\Rightarrow \frac{a}{a+b}=\frac{11}{17}$

$\frac{a}{a+b}=\frac{11}{17} \Rightarrow \begin{cases} a=11x \\ a+b=17x \end{cases}$

$a+b=17x$

$11x+b=17x$

$b=17x-11x$

$b=6x$

qiz bolalar sonining o'g'il bolalar soniga nisbati nechaga teng bo'ladi? $\Rightarrow \frac{b}{a}=\frac{6x}{11x}=\frac{6}{11}$

Javob: A)

2509. Sinfda o'qiydigan o'g'il bolalar sonining barcha o'quvchilar soniga nisbati $\frac{13}{27}$ ga teng bo'lsa, qiz bolalar sonining o'g'il bolalar soniga nisbati nechaga teng bo'ladi?

A) $\frac{13}{14}$ B) $\frac{12}{13}$ C) $\frac{14}{11}$ D) $\frac{14}{13}$

2510. Sinfda o'qiydigan o'g'il bolalar sonining barcha o'quvchilar soniga nisbati $\frac{19}{31}$ ga teng bo'lsa, qiz bolalar sonining o'g'il bolalar soniga nisbati nechaga teng bo'ladi?

A) $\frac{16}{11}$ B) $\frac{19}{12}$ C) $\frac{12}{19}$ D) $\frac{19}{11}$

✓ Sayohat uchun ma'lum miqdorda pul yig'ish kerak edi. Agar har bir sayohatchi 750 so'mdan to'lasa, to'lovga 1200 so'm yetmaydi, agar har bir sayohatchi 800 so'mdan to'lasa, keragidan 1200 so'm ortib qoladi. Sayohatga necha kishi qatnashishi kerak edi?

A) 48 B) 45 C) 50 D) 55

Yechimi:

Sayohat uchun ma'lum miqdorda pul yig'ish kerak edi $\Rightarrow x$

Agar har bir sayohatchi 750 so'mdan to'lasa, to'lovga 1200 so'm yetmaydi $\Rightarrow \boxed{x=750y+1200}$

Agar har bir sayohatchi 800 so'mdan to'lasa, keragidan 1200 so'm ortib qoladi $\Rightarrow \boxed{x=800y-1200}$

$$x=x$$

$$750y+1200=800y-1200$$

$$-50y=-2400$$

$$y=48$$

Javob:48

2511. Sayohat uchun ma'lum miqdorda pul yig'ish kerak edi. Agar har bir sayohatchi 550 so'mdan to'lasa, to'lovga 3200 so'm yetmaydi, agar har bir sayohatchi 900 so'mdan to'lasa, keragidan 5200 so'm ortib qoladi. Sayohatga necha kishi qatnashishi kerak edi?

A) 55 B) 48 C) 30 D) 24

2512. Sayohat uchun ma'lum miqdorda pul yig'ish kerak edi. Agar har bir sayohatchi 550 so'mdan to'lasa, to'lovga 4700 so'm yetmaydi, agar har bir sayohatchi 950 so'mdan to'lasa, keragidan 6100 so'm ortib qoladi. Sayohatga necha kishi qatnashishi kerak edi?

A) 29 B) 31 C) 27 D) 24

✓ Firma mahsulotni 380 so'mga sotib, 5 foiz zarar qildi. Shu mahsulotning tannarxini toping?

A) 400 B) 450 C) 500 D) 550

Yechimi:

$$\left(1-\frac{5}{100}\right)x=380 \Rightarrow \begin{array}{l} 0{,}95x=380 \\ x=380:0{,}95 \\ x=400 \end{array}$$

Javob:400

2513. Firma mahsulotni 6400 so'mga sotib, 20 foiz zarar qildi. Shu mahsulotning tannarxini toping?

A) 9000 B) 8332 C) 7330 D) 8000

2514. Firma mahsulotni 1100 so'mga sotib, 12 foiz zarar qildi. Shu mahsulotning tannarxini toping?

A) 2029 B) 1231 C) 1250 D) 1324

✓ Bir kombayn daladagi hosilni 5 soatda, boshqasi esa shu hosilni 10 soatda yig'ib olishi mumkin. Ikkala kombayn birgalikda hosilni qancha soatda yig'ib olishi mumkin?

A) $3\frac{1}{3}$ B) $2\frac{1}{3}$ C) $3\frac{2}{3}$ D) $1\frac{1}{3}$

Yechimi:

Agar 1–kombayn hosilni x soatda, 2–kombayn y soatda, ikkala kombayn birgalikda hosilni z soatda yig'ib olsa, u holda

$$\frac{1}{x}+\frac{1}{y}=\frac{1}{z} \Rightarrow \frac{1}{5}+\frac{1}{10}=\frac{1}{z}$$

$$\frac{3}{10}=\frac{1}{z} \Rightarrow z=3\frac{1}{3}$$

Javob: $3\frac{1}{3}$

Izoh: ishga oid misollar bir taqsim qilib olinadi ya'ni $\frac{1}{x}+\frac{1}{y}=\frac{1}{z} \Rightarrow$ ikkalasi birgalikda deganni uchun "+" lozim.

2515. Usta muayyan ishni 12 kunda, uning shogirdi esa 60 kunda bajaradi. Agar usta va shogird birga ishlasalar, o'sha ishni necha kunda bajarishadi?

A) 10 B) 11 C) 8 D) 9

2516. Meshdagi suv Anvarning o'ziga 10 kunga, ukasiga esa 15 kunga yetadi. Meshdagi suv ikkalasiga necha kunga yetadi?

A) 9 B) 6 C) 8 D) 7

2517. Hovuzga 2 ta quvur o'tkazilgan. Birinchi quvur hovuzni 25 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa 100 soatda. Ikkala quvur birgalikda hovuzni qancha vaqtda to'ldiradi?

A) 10 B) 12 C) 20 D) 24

✓ Katta kombayn daladagi hosilni 15 soatda, kichkinasi esa shu hosilni 36 soatda yig'ib olishi mumkin. 10 ta katta va 12 ta kichik kombayn birgalikda hosilni qancha soatda yig'ib olishi mumkin?

A) 1 B) 3 C) 2 D) 8

Yechimi:

$$a\cdot\frac{1}{x}+b\cdot\frac{1}{y}=\frac{1}{z} \Rightarrow 10\cdot\frac{1}{15}+12\cdot\frac{1}{36}=\frac{1}{z} \Rightarrow z=1$$

Javob: 1

Izoh: Nechta desa ko'paytirib $\boxed{10}\cdot\frac{1}{15}+\boxed{12}\cdot\frac{1}{36}=\frac{1}{z}$ qo'shish lozim.

2518. Usta muayyan ishni 24 kunda, uning shogirdi esa 60 kunda bajaradi. Agar 6 ta usta va 15 ta shogird birga ishlasalar, o'sha ishni necha kunda bajarishadi?

A) 4 B) 3 C) 2 D) 9

2519. Meshdagi suv Anvarning o'ziga 5 kunga, ukasiga esa 35 kunga yetadi. Meshdagi suv Anvar va 7 ta ukasiga birga necha kunga yetadi?

A) 9 B) 2,5 C) 8 D) 3,5

✓ Hovuzga 2 ta quvur o'tkazilgan. Birinchi quvur bo'sh hovuzni 10 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa 15 soatda bo'shatadi. Hovuz bo'sh bo'lgan vaqtda ikkala quvur birdaniga ochilsa, hovuz necha soatdan keyin to'ladi?

A) 30 B) 25 C) 20 D) 15

Yechimi:

$$\frac{1}{x}-\frac{1}{y}=\frac{1}{z} \Rightarrow$$

Birinchi quvur bo'sh hovuzni 10 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa 15 soatda bo'shatadi. $\Rightarrow \boxed{\frac{1}{10}-\frac{1}{15}=\frac{1}{x}}$

$\frac{1}{10}-\frac{1}{15}=\frac{1}{x} \Rightarrow \boxed{\begin{array}{c}\frac{3-2}{30}=\frac{1}{x}\\ \frac{1}{30}=\frac{1}{x}\\ x=30\end{array}}$ **Javob: 30**

Izoh: Bo'shatadi degan so'ziga Etibor bering shuning uchun "–" qo'shish lozim.

2520. Hovuzga 2 ta quvur o'tkazilgan. Birinchi quvur bo'sh hovuzni 12 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa 15 soatda bo'shatadi. Hovuz bo'sh bo'lgan vaqtda ikkala quvur birdaniga ochilsa, hovuz necha soatdan keyin to'ladi?
A) 10 B) 20 C) 60 D) 30

2521. Hovuzga 2 ta quvur o'tkazilgan. Birinchi quvur bo'sh hovuzni 12 soatda to'ldiradi, ikkinchisi esa 24 soatda bo'shatadi. Hovuz bo'sh bo'lgan vaqtda ikkala quvur birdaniga ochilsa, hovuz necha soatdan keyin to'ladi?
A) 36 B) 24 C) 25 D) 12

✓ Massasi 400 g va kontsentratsiyasi 8 % bo'lgan eritma, massasi 600 g va kontsentratsiyasi 13 % bo'lgan eritma bilan aralashtirildi. Hosil bo'lgan aralashmaning konsentratsiyasini (% da) toping.
A) 15 B) 5 C) 11 D) 21

Yechimi: konsentratsiyani topish formulasi:

$$p=\frac{p_1\cdot m_1+p_2\cdot m_2}{m_1+m_2} \quad p=\frac{8\cdot 400+13\cdot 600}{400+600}=\frac{11000}{1000}=11$$

Javob : (C)

2522. Massasi 200 g va kontsentratsiyasi 3 % bo'lgan eritma, massasi 300 g va kontsentratsiyasi 8 % bo'lgan eritma bilan aralashtirildi. Hosil bo'lgan aralashmaning konsentratsiyasini (% da) toping.
A) 7 B) 6 C) 11 D) 2

2523. 45 *l* tuzli suvning tarkibida 12 % tuz , yana bir idishda 15 *l* tuzli suvning tarkibida 16 % tuzli eritma bilan aralashtirildi. Hosil bo'lgan aralashmaning necha % li tuzli eritma bor.
A) 13 B) 5 C) 11 D) 21

2524. Yog'lig'i 2 % bo'lgan 80 *l* sut bilan yo'g'lig'i 5% bo'lgan 20 *l* sut aralashtirilsa, yog'lig'i necha % bo'lgan sut olish mumkin?
A) 1,6 B) 2,6 C) 1,1 D) 2,1

2525. Birinchi idishda 40 kg 20% li, ikkinchi idishda 20 kg 35 % li erimtma bor. Ularni aralashtirib, necha % eritma olinadi ?
A) 16 B) 26 C) 15 D) 25

✓ 8 % li 3 kg eritmaga 4% li necha kg eritmani aralashtirib 5 % li eritmani hosil qilish mumkin ?
A) 5 B) 9 C) 7 D) 21

Yechimi: Aralashmani topish formulasi:

$$p=\frac{p_1\cdot m_1+p_2\cdot m_2}{m_1+m_2} \quad 5=\frac{8\cdot 3+4\cdot x}{3+x}\Leftrightarrow 5=\frac{24+4\cdot x}{3+x}\Rightarrow x=9$$

Javob : (B)

2526. 9 % li 7 kg eritmaga 5 % li necha kg eritmani aralashtirib 6 % li eritmani hosil qilish mumkin
A) 8 B) 21 C) 11 D) 2

2527. 6 % li necha kg eritmaga 9 % li 3 kg eritmani aralashtirib 7 % li eritmani hosil qilish mumkin
A) 6 B) 5 C) 11 D) 13

2528. Yog'lig'i 2 % bo'lgan 80 *l* sut bilan yog'lig'i 5% bo'lgan necha *l* sut aralashtirilsa, yog'lig'i 2,6 % bo'lgan sut olish mumkin?
A) 16 B) 20 C) 11 D) 21

✓ $\frac{73!}{3^n}$ ifoda butun son bo'lsa, *n* eng katta qiymati nechiga teng bo'ladi?
A) 32 B) 42 C) 24 D) 34

Yechimi:

$$n=\left[\frac{73}{3}\right]+\left[\frac{73}{3^2}\right]+\left[\frac{73}{3^3}\right]+\left[\frac{73}{3^4}\right]+\ldots=24+8+2+0=34$$

Javob: 34 (D)

Izoh: butun qismini olish lozim.

2529. $\frac{197!}{3^n}$ ifoda butun son bo'lsa, *n* eng katta qiymati nechiga teng bo'ladi?
A) 85 B) 95 C) 65 D) 27

2530. $\frac{300!}{2^n}$ ifoda butun son bo'lsa, *n* eng katta qiymati nechiga teng bo'ladi?
A) 296 B) 286 C) 233 D) 236

2531. $\frac{600!}{7^n}$ ifoda butun son bo'lsa, *n* eng katta qiymati nechiga teng bo'ladi?
A) 98 B) 88 C) 78 D) 68

2532. $\frac{200!}{9^n}$ ifoda butun son bo'lsa, *n* eng katta qiymati nechiga teng bo'ladi?
A) 45 B) 55 C) 48 D) 50

2533. $\frac{320!}{25^n}$ ifoda butun son bo'lsa, *n* eng katta qiymati nechiga teng bo'ladi?
A) 34 B) 44 C) 39 D) 36

2534. $\frac{490!}{49^n}$ ifoda butun son bo'lsa, *n* eng katta qiymati nechiga teng bo'ladi?
A) 98 B) 38 C) 40 D) 48

k soniga karrali n xonali sonlar topish

✓ **4** soniga karrali **6** xonali sonlar nechta? .
A) 30000 B) 225000
C) 3600 D) 25000

Yechimi:

k soniga karrali **n** xonali sonlar topish

$$N=\left[\frac{\overbrace{999\ldots9}^{n}}{k}\right]-\left[\frac{\overbrace{999\ldots9}^{n-1}}{k}\right]$$

(Butun qismini olib hisoblash lozim.)

$$N=\left[\frac{999999}{4}\right]-\left[\frac{99999}{4}\right]=[249999,75]-[24999,75]=$$

$$=249999-24999=225000$$

2535. 3 soniga karrali **5** xonali sonlar nechta?

A) 210000 B) 30000
C) 3000 D) 2000

2536. 2 soniga karrali 7 xonali sonlar nechta ?

A) 4500000 B) 5999
C) 4600000 D) 449999

2537. 6 soniga karrali 4 xonali sonlar nechta ?

A) 1550 B) 1599
C) 1555 D) 1500

2538. 3 soniga karrali **6** xonali sonlar nechta ?

A) 300000 B) 3000000
C) 3000 D) 480

Bir nomalumli chiziqli tengsizliklar

✓ **Tengsizliklar uchun quyidagi keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?**

1) $-11,7<0$ 2) $98,3<0$

3) (x – manfiy son) $x>0$

4) (y – manfiy son) $y<0$

A) 1; 2 B) 3; 4 C) 1; 4 D) 2; 4

Yechimi:

1) $-11,7<0$ 2) $98,3<0$

3) (x – manfiy son) $x>0$ **Javob: 1; 4**

4) (y – manfiy son) $y<0$

Izoh: Manfiy sonlar "0" dan kichik. musbat sonlar noldan "0" dan katta.

2539. Tengsizliklar uchun quyidagi keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?

1) $-9,15>0$ 2) $-8,8<0$

3) (x – musbat son) $x>0$

4) (y – manfiy son) $y>0$

A) 1; 2 B) 3; 4 C) 1; 4 D) 2; 3

2540. Tengsizliklar uchun quyidagi keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?

1) $4,005>0$ 2) $-1,9>0$

3) (x – musbat son) $x<0$

4) (y – manfiy son) $y<0$

A) 1; 2 B) 3; 4 C) 1; 4 D) 2; 3

2541. Tengsizliklar uchun quyidagi keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?

1) $-6,265>0$ 2) $25,23<0$

3) (x – musbat son) $x>0$

4) (y – manfiy son) $y<0$

A) 3; 4 B) 2; 4 C) 1; 4 D) 2; 3

✓ $3,35<4,5$ ni ikkala qismini 4 ga ko'paytiring.

A) $13,4<18$ B) $13,4>18$ C) $13,4>9$ D) $13,4<9$

Yechimi:

$3,35<4,5 \quad (\cdot 4)$

$4\cdot 3,35<4\cdot 4,5$ **Javob:** $13,4<18$

$13,4<18$

Izoh: Agar ko'paytiriladigan son manfiy son (ya'ni -4) bo'lganda. tengsizlik belgisi ("<" dan ">" ga) o'zgarar edi.

2542. $\frac{5}{6}>\frac{2}{3}$ ni ikkala qismini -12 ga ko'paytiring.

A) $-10<-8$ B) $-10>-8$ C) $-10<-6$ D) $-10<-2$

2543. $1,8<2,4$ ni ikkala qismini 5 ga ko'paytiring.

A) $9>12$ B) $9<12$ C) $9>16$ D) $9>6$

2544. $-2a>-4$ ni ikkala qismini $-0,5$ ga ko'paytiring. (a – musbat son)

A) $a>2$ B) $2a<2$ C) $a<2$ D) $-a<-2$

✓ $-2<5$ ni ikkala qismini 2 ga bo'ling.

A) $-1>2,5$ B) $-1<8,5$ C) $-1<2,5$ D) $-4<10$

Yechimi:

$-2<5 \quad (:2)$

$-2:2<5:2$ **Javob:** $-1<2,5$

$-1<2,5$

Izoh: Agar bo'linadigan (":") son manfiy son (ya'ni -2) bo'lganda. tengsizlik belgisi ("<" dan ">" ga) o'zgarar edi.

2545. $\frac{2}{3}x>-\frac{1}{4}$ ni ikkala qismini $-\frac{2}{3}$ ga bo'ling.

A) $-x<\frac{3}{8}$ B) $-x>-\frac{3}{8}$ C) $-x<-\frac{3}{8}$ D) $-x>\frac{3}{8}$

2546. $-25>-30$ ni ikkala qismini 5 ga bo'ling.

A) $5>6$ B) $-5>-6$ C) $-5<-6$ D) $5<9$

2547. $12a>4,8$ ni ikkala qismini $-0,5$ ga bo'ling.

A) $24a<9,6$ B) $-24a<9,6$

C) $-24a<-9,6$ D) $24a<-9,6$

✓ $-11<9$ *va* $8>5$ tengsizliklarni qo'shing.

A) $-1>2,5$ B) $19<-4$ C) $19>-4$ D) $-4<10$

Yechimi:

$-11<9$ *va* $8>5$

$$\begin{cases}-11<9 \quad (\cdot -1)\\ 8>5\end{cases} \Leftrightarrow +\begin{cases}11>-9\\ 8>5\end{cases}$$

$19>-4$ **Javob:** $19>-4$

Izoh: tengsizlik belgilari bir xil ya'ni $\begin{cases}<\\<\end{cases}$ *yoki* $\begin{cases}>\\>\end{cases}$ bo'gandagina ularni qo'shish lozim.

2548. $-8<2$ *va* $3<5$ tengsizliklarni qo'shing.

A) $5<-9$ B) $-5<9$ C) $-5>7$ D) $-5<7$

2549. $\begin{matrix}3x+y<2x+1 \ va\\ 3y-2x<14-2x\end{matrix}$ tengsizliklarni qo'shing.

A) $x>y+15$ B) $5x-y<15$

C) $-y<x+2$ D) $x+4y<15$

2550. $\begin{matrix}3x^2+2y>4a-2 \ va\\ 5y-3x^2<3-4a\end{matrix}$ tengsizliklarni qo'shing.

A) $-6x^2+3y>-8a+5$ B) $6x^2-3y>8a-5$

C) $-24x<9,6$ D) $7y<1$

✓ Agar $b-a=-1,3$ bo'lsa a va b sonlarni taqqoslang.

A) $a>b$ B) $a<b$

C) $a=b$ D) taqqoslab bo'lmaydi

Yechimi: $b-a=-1,3$

natija "–1,3" manfiy bo'lganidan kichik sondan katta son ayirilganini tushunish lozim, ya'ni

$b-a=-1,3 \Rightarrow b<a$ **Javob:** $a>b$

Izoh: Natijadagi "–" yoki "+" ga qarash lozim.

2551. Agar $b-a=0{,}01$ bo'lsa a va b sonlarni taqqoslang.
A) $a>b$ B) $a<b$ C) $a=b$ D) taqqoslab bo'lmaydi

2552. Agar $a-b=(-5)^4$ bo'lsa a va b sonlarni taqqoslang.
A) $a>b$ B) $a<b$ C) $a=b$ D) taqqoslab bo'lmaydi

2553. Agar $a-b=-5^4$ bo'lsa a va b sonlarni taqqoslang.
A) $a>b$ B) $a<b$ C) $a=b$ D) taqqoslab bo'lmaydi

2554. Agar $b-a=(-2)^3$ bo'lsa a va b sonlarni taqqoslang.
A) $a<b$ B) $a>b$ C) $a=b$ D) taqqoslab bo'lmaydi

✓ $x<-2$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping.
A) -2 B) -3 C) -1 D) -4

Yechimi:
Quyidagi belgilarni o'qilishini bilish lozim.

" < ": "kichik" deb o'qilsin masalan: $x<5$: *x kichik 5* " > " : "katta" deb o'qilsin masalan: $x>-6$: *x katta* -6	" ≤ ": "kichik yoki teng" deb o'qilsin masalan: $x\le -2$: *x kichik yoki teng* -2 " ≥ " : "katta yoki teng" deb o'qilsin masalan: $x\ge 14$: *x katta yoki teng* 14

$x<-2$ bo'lganidan



Javob: –3
Izoh: Agar $x\le -2$ bo'lsa, javobga "–2" ni olardik.

2555. $x\le 3$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) 2 B) 4 C) 1 D) 3

2556. $x<3$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

2557. $x<4$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) 3 B) 2 C) 4 D) 1

2558. $x<-5$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) –4 B) –6 C) –2 D) –3

2559. $x\le 11$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) 11 B) 12 C) 14 D) 10

✓ $x<7{,}29$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping.
A) -2 B) 8 C) 7 D) –4

Yechimi:
Tengsizliklarni belgilarini nomini eslab qoling.
" ≤ *va* ≥ " : *noqat'iy* tengsizlik belgisidir.
" < *va* > " : *qat'iy* tengsizlik belgisidir.
$x<7{,}29$ bo'lganidan



Javob: 7
Izoh: Agar $x\le 7{,}29$ bo'lsa, javobga "7" ni olardik, chunki 7,29 soni butun son emas.

2560. $x\le 0{,}3$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) 0,3 B) 1 C) –1 D) 0

2561. $x<2{,}3$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) 2,3 B) 4 C) 2 D) 3

2562. $x<-0{,}4$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) –1 B) –2 C) 0 D) 0,4

2563. $x<-5\frac{4}{9}$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) –7 B) –6 C) –4 D) –5

2564. $x\le -3{,}14$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng katta butun qiymatini toping?
A) –4 B) –2 C) –1 D) 0

✓ $x>-3$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping.
A) -2 B) -3 C) -1 D) -4

Yechimi: $x>-3$ bo'lganidan



Javob: –2

Izoh: Agar $x\ge -3$ bo'lsa, javobga "–3" ni olardik.

2565. $x\ge 6$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?
A) 2 B) 4 C) 6 D) 3

2566. $x\ge -6$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?
A) –5 B) –4 C) 6 D) –6

2567. $x>-4$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?
A) –3 B) –2 C) –4 D) –1

2568. $x>-1$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?
A) –1 B) –4 C) 0 D) –3

2569. $x\ge 1$, tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?
A) 2 B) 1 C) 4 D) 0

✓ $x>4{,}21$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping.

A) 2 B) 5 C) 1 D) 4

Yechimi:

$x>4{,}21$ bo'lganidan

Javob: 5

Izoh: Agar $x\geq 4$, 2 bo'lsa, javobga "5" ni olardik, chunki 4,21 soni butun son emas.

2570. $x\geq 3{,}24$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?

A) 3,24 B) 4 C) −1 D) 0

2571. $x>0{,}3$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?

A) 1 B) 4 C) 2 D) 0,3

2572. $x>-0{,}4$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?

A) −1 B) −2 C) 0 D) 1

2573. $x>-5\frac{4}{9}$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?

A) −7 B) −6 C) −5 D) −4

2574. $x\geq -3{,}14$ tengsizlikning qanoatlantiruvchi eng kichik butun qiymatini toping?

A) −3 B) −4 C) −1 D) 0

✓ $12(x-4)+4<x-2$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;2)$ B) $(-\infty;-1)$

C) $(-\infty;2]$ D) $(-\infty;-2)$

Yechimi: tenglamani yechganday yechamiz.

tenglama		tengsizlik
$2(x-4)+4=x-2$		$2(x-4)+4<x-2$
$2x-8+4=x-2$	$\Leftrightarrow$	$2x-8+4<x-2$
$2x-x=-2+8-4$		$2x-x<-2+8-4$
$x=2$		$x<2$

$x<2$ bo'lganidan

$(-\infty;2)$ **Javob: A)**

Izoh: Agar $x\leq 2$ bo'lsa, javobga $(-\infty;2]$ ni olardik, ya'ni son tomoni to'rtburchak qavsdir.

Agar $x>2$ bo'lganida

$(2;+\infty)$

2575. $x+2\geq 15$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;13)$ B) $(13;+\infty)$ C) $(-\infty;13]$ D) $[13;+\infty)$

2576. $x-6<8$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;14)$ B) $(14;+\infty)$ C) $(-\infty;14]$ D) $[14;+\infty)$

2577. $2x-16>0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;8)$ B) $(8;+\infty)$ C) $(-\infty;8]$ D) $[8;+\infty)$

2578. $3x-16<0$ tengsizlikni yeching.

A) $\left(-\infty;5\frac{1}{3}\right)$ B) $\left(5\frac{1}{3};+\infty\right)$ C) $\left(-\infty;5\frac{1}{3}\right]$ D) $\left[5\frac{1}{3};+\infty\right)$

2579. $3(x+1)\leq x+5$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;1]$ B) $(1;+\infty)$ C) $(-\infty;1)$ D) $[1;+\infty)$

2580. $4(x-1)\geq 5+x$ tengsizlikni yeching.

A) $(3;+\infty)$ B) $(-\infty;3)$ C) $[3;+\infty)$ D) $(-\infty;3]$

✓ $3(x-2)-4(x+1)<2(x-3)-2$ tengsizlikni yeching.

A) $\left(-\frac{2}{3};+\infty\right)$ B) $\left(-\infty;\frac{1}{3}\right)$ C) $\left(-\infty;\frac{2}{3}\right)$ D) $\left(-\infty;\frac{2}{3}\right]$

Yechimi: tenglamani yechganday yechamiz.

$3(x-2)-4(x+1)<2(x-3)-2$

$3x-6-4x-4<2x-6-2$

$-x-10<2x-8$

$-3x<2$

$x>-\frac{2}{3}$



$\left(-\frac{2}{3};+\infty\right)$

tengsizlik belgisiga e'tibor bering, noma'lum (x tomon) tomonda "−" bo'lsa, $-3x<2$ "<" belgi o'zgaradi ">":

$x>-\frac{2}{3}$ bo'ladi. **Javob: A)**

Izoh: eslab qoling "x ning " oldida "−" bo'lsa, belgi o'zgaradi. yana bir misol:

$-4x+24\leq 0$

$-4x\leq -24$

$x\geq 6$ $[6;+\infty)$

2581. $25-5x<0$ tengsizlikni yeching.

A) $[5;+\infty)$ B) $(-\infty;5]$ C) $(-\infty;5)$ D) $(5;+\infty)$

2582. $9-3x\geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;3)$ B) $(-\infty;3]$ C) $[3;+\infty)$ D) $(3;+\infty)$

2583. $-10x+5<0$ tengsizlikni yeching.

A) $[0{,}5;+\infty)$ B) $(-\infty;0{,}5]$ C) $(-\infty;0{,}5)$ D) $(0{,}5;+\infty)$

2584. $1{,}8-3x\geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;0{,}6]$ B) $(6;+\infty)$ C) $(-6;+\infty)$ D) $(-\infty;0{,}6)$

2585. $x+2<3(x+2)-4$ tengsizlikni yeching.

A) $(0;+\infty)$ B) $[0;+\infty)$ C) $(-\infty;0)$ D) $(-\infty;0]$

✓ $\frac{x}{5}-5>1\frac{3}{4}-\frac{5x}{2}$ tengsizlikni yeching.

A) $(2,4;+\infty)$ B) $[2,5;+\infty)$ C) $(-\infty;2,5)$ D) $(2,5;+\infty)$

Yechimi: *tenglamani yechganday yechamiz.*

$\frac{x}{5}-5>1\frac{3}{4}-\frac{5x}{2}\ (\cdot 20)$

$\frac{4/x}{5}\cdot 20/_5 > \frac{5/7}{4}\cdot 10/_{5x}-\frac{10/5x}{2}$

$4x-100>35-50x$

$54x>135$

$x>2,5$



Javob: (D) $(2,5;+\infty)$

2586. $\frac{x-1}{3}\ge\frac{3x-3}{5}$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;1)$ B) $(1;+\infty)$ C) $(-\infty;1]$ D) $[1;+\infty)$

2587. $\frac{3x-3}{4}\ge\frac{2x-1}{3}$ tengsizlikni yeching.

A) $(5;+\infty)$ B) $(-\infty;5)$ C) $(-\infty;5]$ D) $[5;+\infty)$

2588. $\frac{3x}{2}-\frac{3}{5}<4x+3$ tengsizlikni yeching.

A) $\left(-\frac{36}{25};+\infty\right)$ B) $\left(\frac{36}{25};+\infty\right)$

C) $\left(-\infty;-\frac{36}{25}\right)$ D) $\left(-\infty;-\frac{36}{25}\right)$

2589. $\frac{4-3y}{2}-\frac{8y+1}{6}<15y-6$ tengsizlikni yeching.

A) $\left[\frac{47}{107};+\infty\right)$ B) $\left(\frac{47}{107};+\infty\right)$

C) $\left(-\infty;\frac{47}{107}\right]$ D) $\left(-\infty;\frac{47}{107}\right)$

✓ $\frac{1}{3}-2(x+4)$ ifoda x ning qanday qiymatlarida musbat bo'lishini aniqlang.

A) $\left(-\frac{2}{3};+\infty\right)$ B) $\left(-\infty;\frac{1}{3}\right)$

C) $\left(-\infty;-3\frac{5}{6}\right)$ D) $\left(-\infty;\frac{2}{3}\right]$

Yechimi: musbat sonlar noldan katta $(...>0)$ ekanini hisobga olsak. $\frac{1}{3}-2(x+4)>0$ *ga ega bo'lamiz*

$\frac{1}{3}-2(x+4)>0\ (\cdot 3)$

$1-6x-24>0$

$-6x>-1+24$

$-6x>23$

$x<-\frac{23}{6}$



$x<-3\frac{5}{6}$ $\left(-\infty;-3\frac{5}{6}\right)$

Javob: (C)

2590. $\frac{3}{8}x+4$ ifoda x ning qanday qiymatlarida musbat bo'lishini aniqlang.

A) $\left(-\infty;-\frac{32}{3}\right)$ B) $\left(-\frac{32}{3};+\infty\right)$

C) $\left(-\infty;-\frac{32}{3}\right]$ D) $\left[-\frac{32}{3};+\infty\right)$

2591. $\frac{5}{2}-4x$ ifoda x ning qanday qiymatlarida musbat bo'lishini aniqlang.

A) $\left(\frac{5}{8};+\infty\right)$ B) $\left(-\infty;\frac{5}{8}\right)$ C) $\left(-\infty;\frac{5}{8}\right]$ D) $\left[\frac{5}{8};+\infty\right)$

2592. $\frac{2x-1}{2}-\frac{2x}{5}-\frac{3x-2}{5}+\frac{x}{4}$ ifoda x ning qanday qiymatlarida musbat bo'lishini aniqlang.

A) $[0,4;+\infty)$ B) $(0,4;+\infty)$ C) $(-0,4;+\infty)$ D) $(0,8;+\infty)$

2593. $8+\frac{3y-2}{4}-\frac{y-1}{6}+\frac{5y+4}{3}$ ifoda y ning qanday qiymatlarida musbat bo'lishini aniqlang.

A) $(4;\infty+)$ B) $[-4;+\infty)$ C) $(-4;+\infty)$ D) $(5;+\infty)$

✓ $\frac{8y-3}{5}-\frac{2}{5}$ ifoda x ning qanday qiymatlarida manfiy bo'lishini aniqlang.

A) $\left(-\frac{5}{8};+\infty\right)$ B) $\left(-\infty;\frac{5}{8}\right)$

C) $\left(-\infty;-\frac{5}{8}\right)$ D) $\left(-\infty;\frac{5}{8}\right]$

Yechimi: manfiy sonlar noldan kichik $(...<0)$ ekanini hisobga olsak,

$\frac{8y-3}{5}-\frac{2}{5}<0$ *ga ega bo'lamiz*

$\frac{8y-3}{5}-\frac{2}{5}<0\ (\cdot 5)$

$8y-3-2<0$

$8y<5$

$y<\frac{5}{8}$



$\left(-\infty;\frac{5}{8}\right)$

Javob: B)

2594. $-2x+\frac{3}{4}$ *ifoda* x *ning qanday qiymatlarida manfiy* bo'lishini aniqlang.

A) $\left(-\infty;\frac{3}{8}\right)$ B) $\left(\frac{3}{8};+\infty\right)$ C) $\left(-\infty;\frac{3}{8}\right]$ D) $\left[\frac{3}{8};+\infty\right)$

2595. $-15+3(x-5)+9$ ifoda x ning qanday qiymatlarida manfiy bo'lishini aniqlang.

A) $[7;+\infty)$ B) $(-7;+\infty)$ C) $(7;+\infty)$ D) $(-\infty;7)$

2596. $-\frac{x+1}{2}+2x+\frac{x-2}{3}+\frac{x}{2}$ ifoda x ning qanday qiymatlarida manfiy bo'lishini aniqlang.

A) $(-\infty;0,5]$ B) $(0,5;+\infty)$ C) $(-\infty;0,5)$ D) $[0,5;+\infty)$

✓ $4(y-1)<2+7y$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng kichik butun sonni toping.

A) -3 B) -4 C) -1 D) 0

Yechimi:

$4(y-1)<2+7y$

$4y-4<2+7y$

$4y-7y<2+4$

$-3y<6$

$y>-2$

$(-2;+\infty)$

Javob: -1

2597. $6y+1\geq 2(y-1)-3y$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng kichik butun sonni toping.

A) 1 B) -1 C) 0 D) 2

2598. $\frac{y-4}{3}+3y\geq\frac{y}{3}-\frac{y+1}{4}$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng kichik butun sonni toping.

A) 1 B) -4 C) -1 D) 0

2599. $\frac{3x+1}{4}-\frac{x}{2}<\frac{5x-2}{3}+\frac{3x}{5}$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng kichik butun sonni toping.

A) -3 B) 0 C) -1 D) 1

✓ $4(2-x)<5(1-x)$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng katta butun sonni toping.

A) -3 B) -4 C) -1 D) 0

Yechimi:

$4(2-x)<5(1-x)$

$8-4x<5-5x$

$-4x+5x<5-8$

$x<-3$



$x<-3$ bo'lganidan $(-\infty;-3)$

Javob: -4

2600. $6x+5\leq 0$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng katta sonni toping.

A) -1 B) -4 C) 1 D) 0

2601. $3(1-x)>2(2-x)$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng katta sonni toping.

A) 0 B) -1 C) -2 D) 2

2602. $(x+1)(x-4)+4\geq(x+2)(x-3)-x$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng katta sonni toping.

A) -6 B) -7 C) 6 D) -5

2603. $x+9>8-4x$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan eng katta butun sonni toping.

A) -3 B) 0 C) -1 D) aniqlab bo'lmaydi

✓ a ning qanday qiymatlarida $\frac{a}{3}$ kasr $\frac{a+1}{4}$ kasrdan katta bo'ladi?

A) $(3;+\infty)$ B) $(-\infty;3)$ C) $(-\infty;-3)$ D) $(-\infty;3]$

Yechimi:

$\frac{a}{3}$ kasr $\frac{a+1}{4}$ kasrdan katta bo'ladi $\Rightarrow \frac{a}{3}>\frac{a+1}{4}$

$\frac{a}{3}>\frac{a+1}{4}\ (\cdot 12)$

$4a>3a+3$

$a>3$

$(3;+\infty)$ **Javob: (A)**

2604. b ning qanday qiymatlarida $\frac{b+3}{2}$ kasr $\frac{b-1}{5}$ kasrdan kichik bo'ladi?

A) $\left(-5\frac{2}{3};+\infty\right)$ B) $\left(-\infty;5\frac{2}{3}\right)$

C) $\left(-\infty;-5\frac{2}{3}\right)$ D) $\left(-\infty;5\frac{2}{3}\right]$

2605. x ning qanday qiymatlarida $\frac{3x-5}{6}$ kasr $\frac{6x-7}{15}$ va $\frac{3-x}{9}$ kasrlar ayirmasidan katta bo'ladi?

A) $(-3;+\infty)$ B) $(-\infty;3)$ C) $(-\infty;-3)$ D) $(-\infty;3]$

2606. x ning qanday qiymatlarida $\frac{2-5x}{4}$ va $\frac{7x-3}{6}$ kasrlar yig'indisi $\frac{2x+5}{18}$ kasrdankatta bo'ladi?

A) $\left(1\frac{3}{7};+\infty\right)$ B) $\left(-\infty;-1\frac{3}{7}\right)$

C) $\left(-\infty;1\frac{3}{7}\right)$ D) $\left(-\infty;-1\frac{3}{7}\right]$

✓ $3(x-2)+x<4x+1$ tengsizlikni yeching

A) $x\in R$ B) 6 C) $\varnothing$ D) 5

Yechimi:

$3(x-2)+x<4x+1$

$3x-6+x<4x+1$

$3x+x-4x<1+6$

$0<7$

$x\in R$

Javob: $x\in R$

Izoh: Agar to'g'ri tengsizlik $(0<7)$ bo'lib tugasa, $x\in R$: noto'g'ri tengsizlik $(0>7)$ bo'lib tugasa $\varnothing$ olinishi lozim. $x\in R$ ning o'rniga $(-\infty;+\infty)$ yoki "istalgan son" deb ham yoziladi.

2607. $5(x+2)-x>3(x-1)+x$ tengsizlikni yeching.

A) $x-$istalgan son B) $(-\infty;0)$

C) $\varnothing$ D) $(0;+\infty)$

2608. $5(x+2)+2(x+3)<3(x-1)+4x$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;+\infty)$ B) $(-\infty;0)$ C) $\varnothing$ D) $(0;+\infty)$

2609. $\frac{3x+6}{4}-\frac{x}{4}>\frac{x+2}{2}$ tengsizlikni yeching.

A) $x\in R$ B) $(-\infty;0)$ C) $\varnothing$ D) $(0;+\infty)$

2610. $\frac{2x-1}{5}-4<x-\frac{3x+1}{5}$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;+\infty)$ B) $(-\infty;0)$ C) $\varnothing$ D) $(0;+\infty)$

2611. $3(2x-1)+3(x-1)>5(x+2)+2(2x-3)$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;+\infty)$ B) $(-\infty;0)$ C) $\varnothing$ D) $(0;+\infty)$

2612. $\frac{5x+3}{2}-1\geq 3x-\frac{x-7}{2}$ tengsizlikni yechi ng.

A) $(-\infty;+\infty)$ B) $(-\infty;0)$ C) $\varnothing$ D) $(0;+\infty)$

2613. $5x+1\geq 2(x-1)+3x+3$ tengsizlikni yeching.

A) $x\in R$ B) $(-\infty;0)$ C) $\varnothing$ D) $(0;+\infty)$

Bir no'malumli tengsizliklar sistemasi

✓ $\begin{cases}x>2\\x>5\end{cases}$ tengsizlikni yeching

A) $(5;+\infty)$ B) $[5;+\infty)$ C) $(-\infty;5)$ D) $(-5;+\infty)$

Yechimi: $\begin{cases}x>2\\x>5\end{cases}$



$(5;+\infty)$ **Javob:(A)**

Izoh: Ikkita chiziq birga yurgan joy javob bo'ladi. Shuning uchun javobga "5" dan "+∞" olindi.

2614. $\begin{cases}x>0\\x>-1\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $(-\infty;0)$ B) $(-1;+\infty)$ C) $(0;+\infty)$ D) $(-\infty;-1)$

2615. $\begin{cases}x>2\\x\geq -3\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $(-2;+\infty)$ B) $(-\infty;-3)$ C) $(-3;+\infty)$ D) $(2;+\infty)$

2616. $\begin{cases}x\geq -2\\x\geq -4\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $(-\infty;2)$ B) $[-2;+\infty)$ C) $(-2;+\infty)$ D) $[-4;+\infty)$

✓ $1\begin{cases}x\leq 1\\x<5\end{cases}$ tengsizlikni yeching

A) $(5;+\infty)$ B) $[1;+\infty)$ C) $(-\infty;1]$ D) $(1;+\infty)$

Yechimi: $\begin{cases}x\leq 1\\x<5\end{cases}$



$(-\infty;1]$ **Javob:(C)**

Izoh: Ikkita chiziq birga yurgan joy javob bo'ladi. Shuning uchun javobga "−∞" dan "1" olindi.

2617. $\begin{cases}x<0\\x<-1\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $(-\infty;-1)$ B) $(-\infty;0)$ C) $(-\infty;0)$ D) $(-1;+\infty)$

2618. $\begin{cases}x<-2\\x<-5\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $(-5;+\infty)$ B) $(-\infty;-2)$ C) $(-\infty;2)$ D) $(-\infty;-5)$

2619. $\begin{cases}x\leq 1\\x\leq 0\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $(-\infty;0]$ B) $(-\infty;1]$ C) $(-\infty;0)$ D) $(-\infty;1)$

✓ $\begin{cases}x>2\\x<5\end{cases}$ tengsizlikni yeching

A) $(5;+\infty)$ B) $[5;+\infty)$ C) $(-\infty;2]$ D) $(2;5)$

Yechimi: $\begin{cases}x>2\\x<5\end{cases}$



$(2;5)$

Javob: $(2;5)$

Izoh: Ikkita chiziq birga yurgan joy javob bo'ladi. Shuning uchun javobga "2" dan "5" gacha olinadi.

Eslatma!: $(2;5)$ ni $2<x<5$ qo'sh tengsizlik ko'rinishida ham yozish mumkin.

2620. $\begin{cases}x>3\\x<6\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $(-\infty;6)$ B) $(3;6)$ C) $(3;+\infty)$ D) $(1;6)$

2621. $\begin{cases}x\leq -2\\x\geq -7,5\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $-7,5\leq x<-2$ B) $-7,5<x<-2$

C) $-7,5\leq x\leq -2$ D) $-7,5<x\leq -2$

2622. $\begin{cases}x<0\\x\geq -2\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $[-2;0)$ B) $[-\infty;0)$ C) $[-2;+\infty)$ D) $(-2;0)$

2623. $\begin{cases}x<1,5\\x\geq -1,5\end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $-1,5<x<1,5$ B) $-1,5\leq x\leq 1,5$

C) $-1,5\leq x<1,5$ D) $-1,5<x\leq 1,5$

2624. $\begin{cases} x \geq 0 \\ x < \frac{1}{2} \end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $\left(0;\frac{1}{2}\right)$ B) $\left[\frac{1}{2};+\infty\right)$ C) $\left[0;\frac{1}{2}\right]$ D) $\left[0;\frac{1}{2}\right)$

✓ $\begin{cases} x \geq 5 \\ x \leq 2 \end{cases}$ tengsizlikni yeching.

A) $(5;+\infty)$ B) $\varnothing$ C) $(-\infty;1]$ D) $(-5;+\infty)$

Yechimi: $\begin{cases} x \geq 5 \\ x \leq 2 \end{cases}$



$\varnothing$ **Javob:(B)**

Izoh: Ikkita chiziq birga yurgan joy javob bo'ladi. 2 ta chiziqli kesishish joyi yo'q demak, "$\varnothing$" olinadi.

2625. $\begin{cases} x > 11 \\ x < 7 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $\varnothing$ B) $(3;6)$ C) $(3;+\infty)$ D) $(1;6)$

2626. $\begin{cases} x < 0 \\ x \geq 2 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $[-2;0)$ **B)** $[-\infty;0)$ C) $\varnothing$ D) $(-2;0)$

2627. $\begin{cases} x \geq 9 \\ x < \frac{1}{2} \end{cases}$ tengsizliklar sistemasini yeching.

A) $\left(0;\frac{1}{2}\right)$ B) $\varnothing$ C) $\left[0;\frac{1}{2}\right]$ D) $\left[0;\frac{1}{2}\right)$

✓ $\begin{cases} x \leq 3 \\ x > -1 \end{cases}$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan butun sonlar nechta?

A) 2 B) 4 **C) 3** D) 5

Yechimi: $\begin{cases} x \leq 3 \\ x > -1 \end{cases}$



$(-1;3]$ 0; 1; 2; 3 $\Rightarrow$ 4 *ta*

Javob: 4

2628. $\begin{cases} x \geq 0{,}8 \\ x < 2{,}2 \end{cases}$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan butun sonlar nechta?

A) 2 **B) 3** C) 1 D) 0

2629. $\begin{cases} x \leq 7{,}5 \\ x \geq -0{,}5 \end{cases}$ tengsizlikning yechimi bo'ladigan butun sonlar nechta?

A) 6 **B) 7** C) 9 D) 8

2630. $\begin{cases} x \leq 2{,}7 \\ x \geq 0 \end{cases}$ tengsizlikning butun yechimlari o'rta arifmetigini toping.

A) 2 B) 1 C) 3 D) 6

2631. $\begin{cases} x < 5{,}1 \\ x \geq -5{,}1 \end{cases}$ tengsizlikning butun yechimlari o'rta arifmetigini toping.

A) 32 B) 0 C) 29 D) 10

✓ $\begin{cases} x+8<12 \\ -3x>15 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasining eng katta butun yechimini toping.

A) −2 B) −6 C) −3 D) −5

Yechimi: Sistemani tepasini keyin esa pastini alohida – alohida qilib ishlab chiqamiz.

$\begin{cases} x+8<12 \\ -3x>15 \end{cases}$



$\begin{cases} x+8<12 \\ x<12-8 \\ x<4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} -3x>15 \\ x<-5 \end{cases}$

$(-\infty;-5)$

$\begin{cases} x+8<12 \\ -3x<15 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x<4 \\ x<-5 \end{cases}$

Javob: −6

2632. $\begin{cases} 3x-18>0 \\ 4x>12 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasining eng kichik butun yechimini toping.

A) 7 B) 4 C) 6 D)3

2633. $\begin{cases} 7x-14 \geq 0 \\ 2x \geq 8 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasining eng kichik butun yechimini toping.

A) 2 **B) 1** C) 4 D) 5

2634. $\begin{cases} 3x+3 \leq 2x+1 \\ 3x-2 \leq 4x+2 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasining barcha butun yechimlari ko'paytmasini toping.

A) 24 B) −12 C) 16 D) **−24**

2635. $\begin{cases} 4x+2 \geq 5x+3 \\ 2-3x<7-2x \end{cases}$ tengsizliklar sistemasining barcha butun yechimlari ko'paytmasini toping.

A) −24 B) −12 C) 16 D) 24

✓ $\begin{cases} 5(x+1)-x>2x+2 \\ 4(x+1)-4 \leq 2(2x+1)-x \end{cases}$ tengsizlikning eng katta va kichik butun yechimlari yig'indisini toping.

A) 2 **B) 4** C) 3 D) 1

Yechimi: Sistemani tepasini alohida pastini alohida qilib olib chiqamiz.

$5(x+1)-x>2x+2$

$4(x+1)-4\le 2(2x+1)-x$

$5(x+1)-x>2x+2$

$5x+5-x>2x+2$

$5x-x-2x>2-5$

$2x>-3$

$x>-\frac{3}{2}$

$x>-1,5$

$4(x+1)-4\le 2(2x+1)-x$

$4x+4-4\le 4x+2-x$

$4x-4x+x\le 4+2-4$

$x\le 2$

$$\begin{cases}5(x+1)-x>2x+2\\4(x+1)-4\le 2(2x+1)-x\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}x>-1,5\\x\le 2\end{cases}$$



$(-1,5;2]$ eng katta butun yechimi $\Rightarrow 2$

eng kichik butun yechimi $\Rightarrow -1$

eng katta va kichik butun yechimlari yeg'indisi $\Rightarrow 2+(-1)=1$ **Javob: (D)**

2636. $\begin{cases}2(x-1)-3<5(2x-1)-7x\\3(x+1)-2\le 6(1-x)+7x\end{cases}$ tengsizlikning eng katta va kichik butun yechimlari yig'indisini toping.

A) 4 B) 3 C) 5 D) 2

2637. $\begin{cases}5(x+1)\le 3(x+3)+1\\\frac{2x-1}{7}\le\frac{x+1}{2}\end{cases}$ tengsizlikning eng katta va kichik butun yechimlari yig'indisini toping.

A) 1 B) −2 C) −1 D) −3

2638. $\begin{cases}2(2x+1)+x>3(x-1)+4\\\frac{2x-1}{3}\ge\frac{3x-2}{4}\end{cases}$ tengsizlikning eng katta va kichik butun yechimlari ko'paytmasini toping.

A) 0 B) 2 C) 3 D) 5

✓ $-7<2x+3\le 11$ qo'sh tengsizlikni yeching.

A) $(-5;4]$ B) $(-4;4]$ C) $(-3;4]$ D) $(-5;6]$

Yechimi: Qo'sh tengsizlikni sistema ko'rinishda yozib olamiz.

$-7<2x+3\le 11$ ⇓

$$\begin{cases}-7<2x+3\\2x+3\le 11\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}-2x<3+7\\2x\le 11-3\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}-2x<10\\2x\le 8\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}x>-5\\x\le 4\end{cases}$$



$(-5;4]$ **Javob: (A)**

2639. $-16<4x+12<44$ qo'sh tengsizlikni yeching.

A) $(-5;4]$ B) $(-4;4]$ C) $(-7;8]$ D) $(-7;8)$

2640. $-2\le\frac{x+12}{2}\le 1$ qo'sh tengsizlikni yeching.

A) $(-16;-10]$ B) $(-4;-10]$ C) $[-16;-10]$ D) $(-5;6]$

2641. $1\le\frac{3x+17}{2}<28$ qo'sh tengsizlikni yeching.

A) $[-5;13)$ B) $(-4;13]$ C) $(-5;13]$ D) $(-5;6]$

Sonning moduli. modulli chiziqli tenglamalar.

✓ -150 ni modulini toping.

A) 20 B) 40 C) 30 D) 150

Yechimi: Sonning moduli deganda shu sonning ishorasini hisobga olmagandagi qiymati tushuniladi. Belgisi $\Rightarrow|\ |$

-150 moduli $\Rightarrow|-150|=150$

Javob: 150

Izoh: sonning "modulini" "absolyut qiymati" ham deyiladi. modulning formulasi. $\Rightarrow|-a|=a$; $|a|=a$

2642. 44 ni modulini toping.

A) 20 B) 44 C) −44 D) 150

2643. −78 ni modulini toping.

A) −78 B) 78 C) 30 D) 15

2644. −5,2 ni absolyut qiymatini toping.

A) 52 B) 5,2 C) −5,2 D) 3,2

2645. 3,9 ni absolyut qiymatini toping.

A) 3,9 B) 5,2 C) −39 D) −3,9

2646. $\left|-\frac{3}{4}\right|$ ni toping.

A) $\frac{3}{4}$ B) $-\frac{3}{4}$ C) 30 D) 150

2647. $\left|-1\frac{5}{7}\right|$ ni toping.

A) $\frac{3}{4}$ B) $-\frac{3}{4}$ C) $1\frac{5}{7}$ D) $-1\frac{5}{7}$

✓ $|-15|+|-20|-|-3|\cdot|-5|$ ni hisoblang.

A) 20 B) 40 C) 30 D) 150

Yechimi:

$|-15|+|-20|-|-3|\cdot|-5|=15+20-3\cdot 5=35-15=20$

Javob:(A)

Izoh: har birini moduldan chiqarib hisoblang.

2648. $|-6|+|19|$ ni hisoblang.

A) 20 B) 24 C) 25 D) 35

2649. $|19|-|-81|$ ni hisoblang.

A) 20 B) 100 C) 62 D) −62

2650. $|-5,6|+|-5,9|$ ni hisoblang.

A) 20 B) 0,3 C) −44 D) 11,5

2651. $|-32|+|-32|:|8|-|-4|$ ni hisoblang.

A) 32 B) 44 C) 34 D) 150

2652. $|-40|:|8|-|-12|:|-3|$ ni hisoblang.

A) 1 B) 6 C) 4 D) 5

✓ $\dfrac{|-15|+|-20|}{2\cdot|3-8|}$ ni hisoblang.

A) 2,5 B) 4,4 C) 3,5 D) 1,5

Yechimi:

$$\frac{|-15|+|-20|}{2\cdot|3-8|}=\frac{15+20}{2\cdot5}=\frac{35}{10}=\frac{7}{2}=3\frac{1}{2}$$

Javob: 3,5

Izoh: har birini moduldan chiqarib hisoblang.

2653. $\dfrac{|-104|:|-2|-8}{8\cdot|2017-2018|}$ ni hisoblang.

A) 2 B) 11 C) 5,5 D) –5,5

2654. $\dfrac{|-15|-9+|-20|-8}{8\cdot|23-8|}$ ni hisoblang.

A) 0,2 B) 10,4 C) 0,12 D) 0,15

2655. $\dfrac{|4-5\cdot|4-6|+4\cdot|3-6||}{|3-4|7-5|}$ ni hisoblang.

A)1,4 B) 1,3 C) 4,4 D) 1,2

✓ $|-19,2|$ *va* $|-21|$ ni hisoblang.

A) $|-19,2|=|-21|$ B) $|-19,2|>|-21|$

C) $|-19,2|<|-21|$ D) $\varnothing$

Yechimi:

$$\begin{array}{|l} |-19,2| \quad |-21| \\ \hline \end{array} \Rightarrow \begin{array}{|l} |19,2 \;<\; 21 \\ \hline \end{array}$$

Javob: $|-19,2|<|-21|$

Izoh: har birini moduldan chiqarib keyin taqqoslang.

2656. $|-5|$ *va* $|5|$ taqqoslang.

A) $|-5|=|15|$ B) $|-5|=|5|$

C) $|-5|>|5|$ D) $|-5|<|5|$

2657. $|-4,7|$ *va* $|-5|$ taqqoslang.

A) $|-4,7|=|-5|$ B) $|-4,7|>|-5|$

C) $|-14,7|<|-5|$ D) $|-4,7|<|-5|$

2658. $|-6,(8)|$ *va* $\left|6\frac{3}{5}\right|$ taqqoslang.

A) $|-6,(8)|=\left|6\frac{3}{5}\right|$ B) $|-6,(8)|<\left|6\frac{3}{5}\right|$

C) $\varnothing$ D) $|-6,(8)|>\left|6\frac{3}{5}\right|$

✓ $a=|-6,2|;\ b=|6,(2)|;\ c=\left|6\frac{4}{5}\right|$; *va* $k=\left|6\frac{6}{7}\right|$ sonlarni kamayish tartibida yozing.

A) $k>c>b>a$ B) $k>c>a>b$

C) $a>c>b>k$ D) $c>k>b>a$

Yechimi:

$$\begin{array}{|l} a=|-6,2|;\ b=|6,(2)|; \\ c=\left|6\frac{4}{5}\right|; \quad k=\left|6\frac{6}{7}\right| \\ \hline \end{array} \Rightarrow \begin{array}{|l} a=6,2 \\ b=6,2222... \\ c=6,8 \\ k=6,857... \\ \hline \end{array} \quad k>c>b>a$$

Javob:(A)

Izoh: har birini moduldan chiqarib keyin taqqoslang.

2659. $m=|4,8|;\ n=|-4,(8)|;\ p=\left|4\frac{3}{5}\right|$; *va* $q=|-3,2|$ sonlarni kamayish tartibida yozing.

A) $m>n>p>q$ B) $n>m>p>q$

C) $m>q>n>q$ D) $q>n>m>q$

2660. $m=|8,(8)|;\ n=|-8,8|;\ p=\left|8\frac{7}{9}\right|$; *va* $q=\left|-8,\frac{6}{7}\right|$ sonlarni kamayish tartibida yozing.

A) $n>q>m>p$ B) $n>p>m>q$

C) $p>q>n>m$ D) $m>q>n>p$

✓ Agar $a=2$ *va* $b=-4$ bo'lsa, rasmda $|a-b|$ ga mos to'g'ri javobni toping.

A)



B)

C)



D)



Yechimi: Berilgan $a=2$ *va* $b=-4$ sonlarni $|a-b|$ ga qo'yib hisoblang.

$a=2$ *va* $b=-4$ $\quad |a-b|=|2-(-4)|=|2+4|=6$

javoblardan uzuligi "6" ga teng kesmani topamiz.**Javob:D**

2661. Agar $a=-2$ *va* $b=3$ bo'lsa, rasmda $|a-b|$ ga mos to'g'ri javobni toping.

A)



B)



C)



D)



2662. Agar $a=-5$ *va* $b=6$ bo'lsa, rasmda $|a-b|$ ga mos to'g'ri javobni toping.

A)



B)

C)



D)

2663. Agar $a=-13$ va $b=-11$ bo'lsa, rasmda $|a-b|$ ga mos to'g'ri javobni toping.

A)

B)



C)

D)



✓ $|x|=0,09$ tenglamani yeching.

A) –0,09; 0,09 B) 0,09
C) –0,09 D) 150

Yechimi:

formula		*misol*
$\|x\|=a$	$\Rightarrow$	$\|x\|=0,09$
$x_1=-a \quad x_2=a$		$x_1=-0,09 \quad x_2=0,09$

Javob: $x_1=-0,09 \quad x_2=0,09$

Izoh: $x_1=-0,09 \quad x_2=0,09$ ni bitta qilib $x_{12}=\pm 0,09$ ko'rinishda ham yozish mumkin.

2664. $|x|=39$ tenglamani yeching.

A) 39 B)–39 C) 28 D) ±39

2665. $|x|=2,5$ tenglamani yeching.

A) 2,5 B) –2,5 C) 25 D) ±2,5

2666. $|x|=\frac{9}{11}$ tenglamani yeching.

A) $-\frac{9}{11}$ B) $\pm\frac{11}{9}$ C) $\pm\frac{9}{11}$ D) $\frac{9}{11}$

✓ $|4x+3|=2$ tenglamani yeching.

A) –0,9; 0,25 B) 0,5
C) $-\frac{5}{2};\frac{1}{2}$ D) $-\frac{5}{4};\frac{1}{4}$

Yechimi:

formula		*misol*		
$\|x\|=a$		$4x+3=-2$		$4x+3=2$
$x_1=-a \quad x_2=a$		$4x=-2-3$		$4x=2-3$
$\Downarrow$		$4x=-5$		$4x=-1$
misol		$x=-\frac{5}{4}$		$x=-\frac{1}{4}$
$\|4x+3\|=2$				
$4x+3=-2 \quad 4x+3=2$				

Javob: D)

Izoh: $\underbrace{|x|=a}_{|4x+3|=2} \Rightarrow \begin{bmatrix} x_1=a \\ 4x+3=2 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \underbrace{x_2=-a}_{4x+3=-2} \end{bmatrix}$ ga ko'ra. 2 ta tenglamani yechamiz.

2667. $|x-1|=2$ tenglamani yeching.

A) 1;–3 B) –1; 3 C) 4; 2 D) 6

2668. $|x+3|=3$ tenglamani yeching.

A) 0;–6 B) 5; 6 C) 2; 3 D) 3;0

2669. $|3x-5|=5$ tenglamani yeching.

A) $\frac{3}{10};0$ B) $\frac{10}{3};0$ C) $\frac{7}{10};2$ D) $\frac{13}{3};10$

2670. $\left|\frac{2}{3}x+\frac{1}{6}\right|=\frac{1}{3}$ tenglamaning katta ildizini toping.

A) $-\frac{1}{4}$ B) $\frac{3}{4}$ C) $-\frac{3}{4}$ D) $\frac{1}{4}$

2671. $\left|\frac{3}{4}x-\frac{1}{2}\right|=\frac{1}{4}$ tenglamaning katta ildizini toping.

A) 1 B) $\frac{1}{3}$ C) -1 D) $-\frac{1}{3}$

2672. $|4-5x|=5$ tenglamaning kichik ildizini toping.

A) –1,8 B) –0,2 C) 1,8 D) 0,2

2673. $|3-4x|=3$ tenglamaning kichik ildizini toping.

A) 1,5 B) 0,5 C) 0 D) 2,5

2674. $|5-x|=5$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 10 B) 0 C) 5 D)15

2675. $|-x|=3,4$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

A) 3,4 B) 0 C) 6,8 D) –6,8

✓ $|4x+3|=0$ tenglamani yeching.

A) –0,9; 0,25 B) 0,5 C) $-\frac{3}{4}$ D) $-\frac{5}{4}$

Yechimi:

$a+b \geq 2\sqrt{ab} \Rightarrow 9a^2 + b^2 \geq 2\sqrt{9a^2 \cdot b^2}$ **Javob: 1; 3**

$9a^2 + b^2 \geq 6ab$

3320. Tengsizliklar uchun quyidagi keltirilgan mulohazalardan qaysilari noto'g'ri?

1) Agar $x > 0$ bo'lsa, u holda $x + \frac{1}{16x} \leq \frac{1}{2}$ bo'ladi.

2) $n, m > 0$ bo'lsa, u holda $\frac{1}{32nm} + 8nm \leq 1$ bo'ladi.

3) Agar $a, b > 0$ bo'lsa, u holda $a + \frac{1}{a} \geq 2$ bo'ladi.

4) Agar $a > 0$ bo'lsa, u holda $4a^2 + 1 \geq 4a$ bo'ladi.

A) 1; 2 B) 3; 4 C) 1; 3 D) 1; 2; 4

3321. Tengsizliklar uchun quyidagi keltirilgan mulohazalardan qaysilari to'g'ri?

1) Agar $x > 0$ bo'lsa, u holda $5x + \frac{1}{5x} \geq 2$ bo'ladi.

2) $n, m > 0$ bo'lsa, u holda $\frac{1}{125n^m} + 5n^m \leq \frac{2}{5}$ bo'ladi.

3) Agar $a > 0$ bo'lsa, u holda $a^3 + \frac{1}{a} \geq 2a$ bo'ladi.

4) $a > 0$ bo'lsa, u holda $100a^2 + 1 \geq 20a$ bo'ladi.

A) 1; 2 B) 3; 4 C) 1; 3 D) 1; 3; 4

✓ Agar $25 \leq x \leq y \leq z \leq t \leq 64$ bo'lsa, $\frac{x}{y} + \frac{z}{t}$ ifodaning eng kichik qiymatini toping.

A) 0,25 B) 1,25 C) 1,3 D) 4,2

Yechilishi: **Javob: (B)**

ko'shi tensizligi *misol*

$\frac{a+b}{2} \geq \sqrt{ab} \Rightarrow \frac{x}{y} + \frac{z}{t} \geq 2\sqrt{\frac{x}{y} \cdot \frac{z}{t}}$

$a+b \geq 2\sqrt{ab}$

$\frac{x}{y} + \frac{z}{t} \geq 2\sqrt{\frac{x}{y} \cdot \frac{z}{t}} = 2\sqrt{\frac{25}{y} \cdot \frac{z}{64}} = 2\sqrt{\frac{25}{64}} = 2 \cdot \frac{5}{8} = \frac{5}{4} = 1,25$

Izoh: kasrning kichik qiymati mahraji katta, surati kichik bo'lgani uchun "25" va "64" ni qo'yildi..

3322. Agar $16 \leq x \leq y \leq z \leq t \leq 121$ bo'lsa, $\frac{x}{y} + \frac{z}{t}$ ifodaning eng kichik qiymatini toping.

A) $\frac{8}{11}$ B) 1,5 C) $\frac{4}{11}$ D) $\frac{2}{11}$

3323. Agar $5 \leq x \leq y \leq z \leq t \leq 320$ bo'lsa, $\frac{x}{y} + \frac{z}{t}$ ifodaning eng kichik qiymatini toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{4}$ C) 12 D) $\frac{3}{2}$

3324. Agar $7 \leq x \leq y \leq z \leq t \leq 112$ bo'lsa, $\frac{x}{y} + \frac{z}{t}$ ifodaning eng kichik qiymatini toping.

A) $\frac{1}{8}$ B) $\frac{1}{4}$ C) 0,7 D) $\frac{1}{2}$

3325. Musbat x, y sonlari uchun $a = 9x + \frac{1}{9}y$ va $b = 2\sqrt{xy}$ bo'lsa, qaysi tengsizlik doim o'rinli?

1) $a > b$ 2) $a < b$ 3) $a \geq b$ 4) $a \leq b$

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

3326. Nomanfiy x, y sonlari uchun $a = \frac{x+4y}{2}$ va $b = 2\sqrt{xy}$ bo'lsa, qaysi tengsizlik doim o'rinli?

1) $a > b$ 2) $a < b$ 3) $a \leq b$ 4) $a \geq b$

A) 2 B) 4 C) 3 D) 1

3327. Har qanday x, y haqiqiy sonlari uchun $a = 2x^2 + \frac{1}{2}y^2$ va $b = 2|xy|$ bo'lsa, qaysi tengsizlik doim o'rinli? 1) $a \geq b$ 2) $a < b$ 3) $a \leq b$ 4) $a > b$

A) 2 B) 4 C) 3 D) 1

Kvadrat uchhadlarni ko'paytuvchilarga ajratish

✓ $2x^2-x-1$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $2(x-1)\cdot\left(x-\frac{1}{2}\right)$ B) $(x-1)\cdot\left(x-\frac{1}{2}\right)$

C) $4(x-1)\cdot\left(x-\frac{1}{2}\right)$ D) $2(x-1)\cdot\left(x-\frac{1}{2}\right)$

Yechimi: formula $ax^2+bx+c=a(x-x_1)\cdot(x-x_2)$

formula	*misol*
$ax^2+bx+c=0$	$2x^2-x-1=0$
$D=\sqrt{b^2-4ac}$	$D=\sqrt{(-1)^2-4\cdot2\cdot(-1)}=\sqrt{1+8}=3$
$x_{1,2}=\frac{-b\pm D}{2a}$	$x_{1,2}=\frac{1\pm3}{2\cdot2}$

$$x_{1,2}=\frac{1\pm3}{2\cdot2}$$

$$x_1=\frac{1+3}{4}=1 \qquad x_1=\frac{1-3}{4}=-\frac{1}{2}$$

$$ax^2+bx+c=a(x-x_1)(x-x_2)$$

$$2x^2-x-1=2(x-1)\left(x+\frac{1}{2}\right)$$

Javob: (D)

Izoh: har doim diskiriminant qilib x_1,x_2 topiladi va formulaga qo'yiladi.

ko'plab holatlarda javobda qavs oldidagi sonni kasrli qavs ichiga ko'paytiradi. $2(x-1)\left(x+\frac{1}{2}\right)=(x-1)(2x+1)$

3328. x^2-5x+6 ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $(x+3)(x+2)$ B) $(x-3)(x-2)$

C) $(x-1)(x-6)$ D) $(x+1)(x+6)$

3329. x^2+x-42 ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $(x-8)(x+7)$ B) $(x+6)(x-7)$

C) $(x-6)(x+7)$ D) $(x-21)(x+2)$

3330. $-4x^2-7x+2$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $(x-2)(1+4x)$ B) $-(x+2)(1-4x)$

C) $(x+2)(1-4x)$ D) $(x-2)(1+4x)$

3331. $x^2+5x-24$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $(x-6)(x+4)$ B) $(x-3)(x+8)$

C) $(x+3)(x-8)$ D) $(x+2)(x-12)$

3332. $-6x^2+7x-2$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $(1-2x)(3x-2)$ B) $(2x-1)(3x-2)$

C) $(1-x)(6x-2)$ D) $(1-3x)(2x-2)$

3333. $8x^2+10x+3$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $(2x-1)(4x-3)$ B) $(2x+1)(4x+3)$

C) $(2x+3)(2x+1)$ D) $(x+1)(x+6)$

3334. $-\frac{1}{3}x^2+8x+27$ ni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $-\frac{1}{3}(x-27)(x+3)$ B) $-\frac{1}{3}(x+27)(x-3)$

C) $\frac{1}{3}(x-27)(x+3)$ D) $\frac{1}{3}(x-27)(x-3)$

✓ $\frac{a^2+6a-7}{a^2-7a+6}$ ni qisqartiring.

A) $\frac{a+7}{a-6}$ B) $\frac{a-7}{a+6}$ C) $\frac{a+9}{a+6}$ D) $\frac{a-7}{a-6}$

Yechimi: formula $ax^2+bx+c=a(x-x_1)(x-x_2)$

$$\frac{a^2+6a-7}{a^2-7a+6}$$

a^2-7a+6	a^2+6a-7
$D=\sqrt{7^2-4\cdot1\cdot6}=\sqrt{49-24}=5$	$D=\sqrt{6^2-4\cdot1\cdot(-7)}=\sqrt{36+28}=8$
$a_{1,2}=\frac{7\pm5}{2}$	$a_{1,2}=\frac{-6\pm8}{2}$
$a_1=6\ \ a_2=1$	$a_1=6\ \ a_2=1$
$(a-6)(a-1)$	$(a+7)(a-1)$

$$\frac{a^2+6a-7}{a^2-7a+6}=\frac{(a+7)\cancel{(a-1)}}{(a-6)\cancel{(a-1)}}=\frac{a+7}{a-6}$$

Javob: (A)

Izoh: diskiriminant qilib x_1,x_2 topiladi va formulaga qo'yiladi,

keyin qisqartirish lozim

3335. $\frac{x^2-8x-9}{x^2+9x+8}$ ni qisqartiring.

A) $\frac{x+8}{x-9}$ B) $\frac{x-9}{x+8}$ C) $\frac{x-8}{x+9}$ D) $\frac{x-3}{x+6}$

3336. $\frac{y^2-8y+15}{y^2-5y+6}$ ni qisqartiring.

A) $\frac{y-2}{y-5}$ B) $\frac{y-4}{y-3}$ C) $\frac{y-5}{y-2}$ D) $\frac{y+5}{y+2}$

3337. $\frac{1+10b+25b^2}{5b^2-14b-3}$ ni qisqartiring.

A) $\frac{5b-1}{b+3}$ B) $\frac{5b-1}{b+3}$ C) $\frac{5b+1}{b-3}$ D) $\frac{b-3}{5b+1}$

3338. $\frac{c^2+c-2}{c-1}$ ni qisqartiring.

A) $c-1$ B) $c+2$ C) $2c+1$ D) $2-c$

3339. $\frac{n+3}{n^2-6n-27}$ ni qisqartiring.

A) $\frac{1}{n-9}$ B) $n-9$ C) $\frac{1}{n+9}$ D) $\frac{1}{n-6}$

3340. $\frac{9x^2-1}{3x^2+8x-3}$ ni qisqartiring.

A) $\frac{3x+1}{x+3}$ B) $\frac{x+3}{3x+1}$ C) $\frac{3x+1}{x-3}$ D) $\frac{3x-1}{x-3}$

✓ $\frac{1}{a^2-7a+12}+\frac{1}{a-3}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{a+7}{a-6}$ B) $\frac{1}{a+6}$ C) $\frac{1}{a-4}$ D) $\frac{a-7}{a-6}$

Yechimi: $\frac{1}{a^2-7a+12}+\frac{1}{a-3}$

$a^2-7a+12=0$

$D=\sqrt{7^2-4\cdot1\cdot12}=\sqrt{49-48}=1$

$a_{1,2}=\frac{7\pm1}{2};\ a_1=4\ a_2=3\Rightarrow(a-4)(a-3)$

$\frac{1}{a^2-7a+12}+\frac{1}{a-3}=\frac{1}{(a-4)(a-3)}+\frac{1}{a-3}=$

$=\frac{1+a-4}{(a-4)(a-3)}=\frac{a-3}{(a-4)(a-3)}=\frac{1}{a-4}$ **J: (C)**

3341. $\frac{7}{5y^2+3y-2}-\frac{5}{5y-2}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{1}{y+1}$ B) $-\frac{1}{y+1}$ C) $\frac{1}{y+3}$ D) $\frac{1}{y-1}$

3342. $\frac{5b+1}{b^2+9b-10}:\frac{5b^2+b}{b^2-2b+1}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{b-1}{b+10}$ B) $\frac{5b-1}{b+3}$ C) $\frac{b-1}{b(b+10)}$ D) $\frac{b-1}{b}$

3343. $\frac{3}{x^2+6x+9}-\frac{1}{x+3}$ ni soddalashtiring.

A) $-\frac{x+2}{x+3}$ B) $\frac{x}{(x+3)^2}$ C) $\frac{-x+2}{(x+3)^2}$ D) $-\frac{x}{(x+3)^2}$

✓ $x^2-2\sqrt{3}x-1=0$ tenglamani yeching.

A) $\sqrt{3}\pm3$ B) $\sqrt{3}\pm6$ C) $\sqrt{3}\pm2$ D) $\sqrt{3}\pm4$

Yechimi:

formula	*misol*
$ax^2+bx+c=0$	$x^2-2\sqrt{3}x-1=0$
$D=\sqrt{b^2-4ac}$	$D=\sqrt{\left(-2\sqrt{3}\right)^2-4\cdot1\cdot(-1)}=\sqrt{12+4}=4$
$x_{1,2}=\frac{-b\pm D}{2a}$	$x_{1,2}=\frac{2\sqrt{3}\pm4}{2\cdot1}$

$x_{1,2}=\frac{2\sqrt{3}\pm4}{2\cdot1}\Rightarrow\begin{cases}x_1=\frac{2\sqrt{3}+4}{2}=\frac{2\left(\sqrt{3}+2\right)}{2}=\sqrt{3}+2\\ x_2=\frac{2\sqrt{3}-4}{2}=\frac{2\left(\sqrt{3}-2\right)}{2}=\sqrt{3}-2\end{cases}$

Javob: (C)

3344. $x^2-2\sqrt{5}x+1=0$ tenglamani yeching.

A) $\sqrt{5}\pm3$ B) $\sqrt{5}\pm2$ C) $\sqrt{5}\pm6$ D) $\sqrt{5}\pm4$

3345. $x^2-4\sqrt{7}x+4=0$ tenglamani yeching.

A) $\sqrt{7}\pm\sqrt{6}$ B) $2\sqrt{7}\pm2$

C) $2\sqrt{7}\pm2\sqrt{6}$ D) $\sqrt{7}\pm2\sqrt{6}$

3346. $x^2+\sqrt{2}x-4=0$ tenglamani yeching.

A) $\sqrt{2};2\sqrt{2}$ B) $-\sqrt{2};2\sqrt{2}$

C) $-2\sqrt{2};2\sqrt{2}$ D) $-2\sqrt{2};\sqrt{2}$

✓ $x^2-2ax-3a^2=0$ tenglamani yeching. $a>0$

A) $3a;-a$ B) $-3a;\ a$ C) $3a$ D) $3a;\ a$

Yechimi:

formula	*misol*
$ax^2+bx+c=0$	$x^2-2ax-3a^2=0$
$D=\sqrt{b^2-4ac}$	$D=\sqrt{(-2a)^2-4\cdot1\cdot\left(-3a^2\right)}=\sqrt{4a^2+12a^2}=4a$
$x_{1,2}=\frac{-b\pm D}{2a}$	$x_{1,2}=\frac{2a\pm4a}{2\cdot1}$

$x_{1,2}=\frac{2a\pm4a}{2\cdot1}\Rightarrow\begin{cases}x_1=\frac{2a+4a}{2\cdot1}=\frac{6a}{2}=3a\\ x_2=\frac{2a-4a}{2\cdot1}=\frac{-2a}{2}=-a\end{cases}$

Javob: (A)

3347. $x^2-6ax+5a^2=0$ tenglamani yeching. $a>0$

A) $a;\ 5a$ B) $-a;\ 5a$ C) $a;\ -5a$ D) $9a$

3348. $x^2-11ax-60a^2=0$ tenglamani yeching. $a>0$

A) $15a;-4a$ B) $15a;4a$ C) $5a;-4a$ D) $a;4a$

3349. $x^2-2mx+m^2-n^2=0$ tenglamani yeching. $n>0$

A) $-m\pm n$ B) $m\pm n$ C) $m\pm2n$ D) $2m\pm2n$

3350. $x^2-3ax+2a^2-ab-b^2=0$ tenglamani yeching. $a\geq2b>0$

A) $2a-b;\ a-b$ B) $2a+b;\ a+b$

C) $2a+b;\ a-b$ D) $2a-b;\ a+b$

3351. $x^2-(2a-b)x+a^2-ab-2b^2=0$ tenglamani yeching.

A) $a-2b;\ a+b$ B) $a+2b;\ a-b$

C) $a-b;\ a+2b$ D) $a+b;\ a+2b$

3352. $x^2-5(a-b)x+6a^2-13ab+6b^2=0$ tenglamani yeching. $a\geq b>0$

A) $3a-2b;3a-6b$ B) $3a-2b;2a+3b$

C) $3a-2b;2a-3b$ D) $3a+2b;2a-3b$

✓ $(4x+1)\left(x-\frac{1}{4}\right)=0$ bo'lsa, $4x+1$ qanday qiymatlani qabul qilishi mumkin?

A) 0; 2 B) –1; 6- C) 3 D) 3; 1

Yechimi:

$$(4x+1)\left(x-\frac{1}{4}\right)=0 \Rightarrow \begin{array}{l} 4x+1=0 \\ 4x=-1 \\ x=-\frac{1}{4} \end{array} \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} x-\frac{1}{4}=0 \\ x=\frac{1}{4} \end{array}\right.$$

$4x+1$ *qanday qiymatlarni qabul qilishi mumkin.* $\Rightarrow$

$$\left[\begin{array}{l} x=-\frac{1}{4} \\ 4x+1=4\cdot\left(-\frac{1}{4}\right)+1=0 \end{array}\right.$$

$$\left[\begin{array}{l} x=\frac{1}{4} \\ 4x+1=4\cdot\left(\frac{1}{4}\right)+1=2 \end{array}\right.$$

Javob: (A)

Izoh: "0" ga tenglab yechamiz va so'ralgan $4x+1$ ifodaga qo'yiladi.

3353. $(2x+1)(x-1,5)=0$ bo'lsa, $2x+1$ qanday qiymatlani qabul qilishi mumkin?

A) 0; 4 B) 3; 6 C) 2; 3 D) 0; 2

3354. $(x+3)(5x-1)=0$ bo'lsa, $5x-1$ qanday qiymatlani qabul qilishi mumkin?

A) 0; –16 B) 3; 6 C) 2; 3 D) 0; 16

3355. $(8x+1)(x-0,5)=0$ bo'lsa, $4x+1$ qanday qiymatlani qabul qilishi mumkin?

A) 0; 4 B) 0,5; 3 C) 2; 3 D) 0; 2

Viyet Teoremasi

✓ Quyidagilardan qaysilari keltirilgan kvadrat tenglamalar.

1) $x^2+4x-5=0$ 2) $2x^2-3x-2=0$

3) $3x^2+8x-3=0$ 4) $x^2-6x-7=0$

5) $x^2+\frac{5}{4}x+\frac{3}{8}=0$

A) 1; 2; 4 B) 1; 2; 5 C) 2; 3 D) 1; 4; 5

Yechimi:

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilmagan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$ax^2+bx+c=0$

1) $x^2+4x-5=0 \Rightarrow$ *keltirilgan*

2) $2x^2-3x-2=0 \Rightarrow$ *keltirilmagan*

3) $3x^2+8x-3=0 \Rightarrow$ *keltirilmagan* **Javob: (D)**

4) $x^2-6x-7=0 \Rightarrow$ *keltirilgan*

5) $x^2+\frac{5}{4}x+\frac{3}{8}=0 \Rightarrow$ *keltirilgan*

Izoh: x^2 ning oldida "1" bo'lsa, keltirilgan kvadrat tenglamalardir.

Eslatma: x^2 ning oldida "–1" bo'lsa, keltirilgan kvadrat tenglama emas.

3356. Quyidagilardan qaysilari keltirilgan kvadrat tenglamalar.

1) $-x^2+7x-2=0$ 2) $4x^2-4x+1=0$ 3) $x^2+8x-9=0$

4) $x^2+5x-24=0$ 5) $x^2-\frac{3}{2}x-1=0$

A) 3; 4; 5 B) 1; 2 C) 1; 4; 5 D) 1; 3; 4;

3357. Quyidagilardan qaysilari keltirilgan kvadrat tenglamalar.

1) $x^2+x-2=0$ 2) $2x^2+4x-12=0$ 3) $-x^2+6x+27=0$

4) $2x^2-3x-2=0$ 5) $x^2-\frac{3}{2}x-1=0$

A) 3; 4 B) barchasi C) 1; 4; 5 D) 1; 2; 5

3358. Quyidagilardan qaysilari keltirilgan kvadrat tenglamalar.

1) $x^2+7x-2=0$ 2) $4x^2-4x+1=0$ 3) $x^2+x-20=0$

4) $x^2+7x-2=0$ 5) $-x^2+4x+5=0$

A) 3; 4; 5 B) barchasi C) 1; 3; 4 D) 1; 2; 4

✓ $2x^2-9x+5=0$ kvadrat tenglama ildizlari yig'indisini toping.

A) 3,5 B) 4,5 C) 2,5 D) 1,5

Yechimi: Viyet teoremasi formulasi:

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilmagan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$ax^2+bx+c=0$
$x_1+x_2=-p$	$x_1+x_2=-\frac{b}{a}$
$x_1\cdot x_2=q$	$x_1\cdot x_2=\frac{c}{a}$

$2x^2-9x+5=0$

$$x_1+x_2=-\left(-\frac{9}{2}\right)=4,5$$

Javob: (B)

Izoh: Viyet teoremasi tenglamani yechmasdan oldin javobini (ildizlarining yig'indisini va ko'paytmasini) topib bera oladi.

3359. $2x^2-9x+5=0$ kvadrat tenglama ildizlarining ko'paytmasini toping.

A) –5 B) 4,5 C) 2,5 D) 6

3360. $x^2-5x+6=0$ kvadrat tenglama ildizlari yig'indisini toping.

A) –5 B) 5 C) 2,5 D) 6

3361. $-x^2-x+42=0$ kvadrat tenglama ildizlari ko'paytmasini toping.

A) –5 B) –42 C) 2,5 D) 6

3362. $-4x^2-7x+2=0$ kvadrat tenglama ildizlari yig'indisini toping.

A) 1,75 B) –0,5 C) –1,75 D) 6

3363. $x^2+5x-24=0$ kvadrat tenglama ildizlari ko'paytmasini toping.

A) -24 B) 5 C) 1 D) -5

3364. $-4x^2-7x+2=0$ kvadrat tenglama ildizlari ko'paytmasini toping.

A) $-1{,}75$ B) $-0{,}5$ C) 1,75 D) 6

3365. $6x^2+7x-2=0$ kvadrat tenglama ildizlarining yig'indisini toping.

A) $-\frac{7}{6}$ B) $\frac{7}{6}$ C) $\frac{1}{3}$ D) $-\frac{1}{3}$

3366. $-\frac{1}{3}x^2+8x+27=0$ kvadrat tenglama ildizlari ko'paytmasini toping.

A) $-1{,}75$ B) 81 C) 24 D) -81

✓ x_1 *va* x_2 $x^2-22x+10=0$ tenglama ildizlari $x_1+x_1\cdot x_2+x_2$ ni toping.

A) 45 B) 42 C) 32 D) 15

Yechimi: Viyet teoremasi formulasi : misol:

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilgan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$x^2-22x+10=0$
$x_1+x_2=-p$	$x_1+x_2=22$
$x_1\cdot x_2=q$	$x_1\cdot x_2=10$

$x_1+x_1x_2+x_2=x_1+x_2+x_1x_2=22+10=32$ **J: (C)**

3367. a *va* b $x^2-11x+8=0$ tenglama ildizlari $a+a\cdot b+b$ ni toping.

A) -3 B) 4,5 C) 19 D) 6

3368. x_1 *va* x_2 $4x^2+10x-6=0$ tenglama ildizlari $x_1+x_1\cdot x_2+x_2$ ni toping.

A) -4 B) 4,5 C) 2,5 D) 6

3369. x *va* y $x^2-7x+6=0$ tenglama ildizlari $x+x\cdot y+y$ ni toping.

A) -1 B) 18 C) 2,5 D) 13

3370. $4x^2+14x-6=0$ tenglama ildizlari yig'indisi va ko'paytmasi yig'indisini toping.

A) -5 B) 4,5 C) 2,5 D) 6

3371. $3x^2-8x-15=0$ tenglama ildizlari yig'indisi va ko'paytmasi yig'indisini toping.

A) $-2\frac{1}{3}$ B) $2\frac{1}{3}$ C) $-2{,}5$ D) $-4\frac{1}{3}$

✓ x_1 *va* x_2 $3x^2-8x-9=0$ tenglama ildizlari $x_1\cdot x_2^2+x_1^2\cdot x_2$ ni toping.

A) -8 B) -2 C) 32 D) -5

Yechimi: Viyet teoremasi formulasi : misol:

keltirilmagan kvadrat tenglama	keltirilmagan kvadrat tenglama
$ax^2+bx+c=0$	$3x^2-8x-9=0$
$x_1+x_2=-\frac{b}{a}$	$x_1+x_2=\frac{8}{3}$
$x_1\cdot x_2=\frac{c}{a}$	$x_1\cdot x_2=-\frac{9}{3}=-3$

$x_1\cdot x_2^2+x_1^2\cdot x_2=x_1\cdot x_2\left(x_2+x_1\right)=-3\cdot\frac{8}{3}=-8$ **J: (A)**

3372. a *va* b $x^2-11x+8=0$ tenglama ildizlari $a^2\cdot b+a\cdot b^2$ ni toping.

A) -3 B) 4,5 C) 88 D) 19

3373. x *va* y $x^2-7x+6=0$ tenglama ildizlari $x\cdot y^2+x^2\cdot y$ ni toping.

A) -1 B) 32 C) 22 D) 42

3374. n *va* m $4x^2+14x-6=0$ tenglama ildizlari $n\cdot m^2+n^2\cdot m$ ni toping.

A) 5,25 B) 4,5 C) 2,5 D) $-5{,}25$

3375. $4x^2+10x-6=0$ tenglama ildizlari ko'paytmasi va yig'indisining ko'paytmasini toping.

A) 3,75 B) 4,5 C) 2,75 D) 37,5

✓ x_1 *va* x_2 $x^2+8x-28=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}$ ni toping.

A) $\frac{3}{7}$ B) $\frac{2}{7}$ C) 20 D) 15

Yechimi: **Javob: (B)**

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilgan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$x^2+8x-28=0$
$x_1+x_2=-p$	$x_1+x_2=-8$
$x_1\cdot x_2=q$	$x_1\cdot x_2=-28$

$\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}=\frac{x_1+x_2}{x_1\cdot x_2}=\frac{-8}{-28}=\frac{2}{7}$

Izoh: 1– viyet teoremasini, keyin ifodaga $\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}=\frac{x_1+x_2}{x_1\cdot x_2}$ qoyib hisoblang.

3376. n *va* m $x^2-2x-42=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{n}+\frac{1}{m}$ ni toping.

A) $-\frac{1}{21}$ B) 44 C) –21 D) 42

3377. a va b $x^2-3x-5=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{a}+\frac{1}{b}$ ni toping.

A) –5 B) 5/3 C) –0,6 D) 0,3

3378. x va y $-x^2-x+8=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{x}+\frac{1}{y}$ ni toping.

A) 0,125 B) 8 C) 2,5 D) –0,125

3379. $3x^2+x-6=0$ tenglama ildizlari teskarisining yig'indisini toping.

A) $-\frac{1}{6}$ B) $\frac{2}{15}$ C) $\frac{1}{6}$ D) 0,25

✓ x_1 va x_2 $x^2+8x-28=0$ tenglama ildizlari $x_1^2+x_2^2$ ni toping.

A) 110 B) 120 C) 200 D) 150

Yechimi: maxsus formula: $a^2+b^2=(a+b)^2-2ab$

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilgan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$x^2+8x-28=0$
$x_1+x_2=-p$	$x_1+x_2=-8$
$x_1\cdot x_2=q$	$x_1\cdot x_2=-28$

$$a^2+b^2=(a+b)^2-2ab \Leftrightarrow x_1^2+x_2^2=\left(x_1+x_2\right)^2-2x_1x_2$$

$$x_1^2+x_2^2=(-8)^2-2\cdot(-28)=64+56=120$$

Javob: (B)

Izoh: 1– viyet teoremasini, keyin maxsus formulani qo'llab topiladi.

3380. n va m $x^2-7x-8=0$ tenglama ildizlari n^2+m^2 ni toping.

A) –63 B) 65 C) 25 D) 53

3381. a va b $-2x^2-2x+3=0$ tenglama ildizlari a^2+b^2 ni toping.

A) –5 B) 5 C) 4 D) 3

3382. x va y $-x^2-x+8=0$ tenglama ildizlari x^2+y^2 ni toping.

A) –5 B) 16 C) 2,5 D) 17

3383. $-5x^2+16x+3=0$ tenglama ildizlari kvadratlari yig'indisini toping.

A) $\frac{286}{25}$ B) $\frac{416}{25}$ C) 25 D) 6,25

✓ x_1 va x_2 $x^2-7x-21=0$ tenglama ildizlari $\frac{x_2}{x_1}+\frac{x_1}{x_2}$ ni toping.

A) $-\frac{91}{21}$ B) $-\frac{71}{21}$ C) 200 D) 150

Yechimi:

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilgan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$x^2-7x-21=0$
$x_1+x_2=-p$	$x_1+x_2=7$
$x_1\cdot x_2=q$	$x_1\cdot x_2=-21$

$$\frac{x_2}{x_1}+\frac{x_1}{x_2}=\frac{x_1^2+x_2^2}{x_1\cdot x_2}=\frac{\left(x_1+x_2\right)^2-2x_1x_2}{x_1\cdot x_2}=\frac{7^2-2(-21)}{-21}=-\frac{91}{21}$$

Javob: (A)

Izoh: 1– viyet teoremasini, keyin ifodaga $\frac{x_2}{x_1}+\frac{x_1}{x_2}=\frac{x_1^2+x_2^2}{x_1\cdot x_2}$ qo'yib hisoblang.

3384. n va m $x^2-2x-42=0$ tenglama ildizlari $\frac{m}{n}+\frac{n}{m}$ ni toping.

A) –21 B) 44 C) $-\frac{44}{21}$ D) $\frac{44}{21}$

3385. $x_1 va x_2$ $3x^2+x-6=0$ tenglama ildizlari $\frac{x_2}{x_1}+\frac{x_1}{x_2}$ ni toping.

A) $\frac{2}{9}$ B) $-\frac{37}{18}$ C) $\frac{37}{18}$ D) 0,25

3386. a va b $x^2-3x-5=0$ tenglama ildizlari $\frac{b}{a}+\frac{a}{b}$ ni toping.

A) $\frac{19}{5}$ B) 5/3 C) $-\frac{19}{5}$ D) 0,3

3387. x va y $-x^2-x+8=0$ tenglama ildizlari $\frac{y}{x}+\frac{x}{y}$ ni toping.

A) –0,125 B) 8 C) –2,125 D) 0,25

✓ x_1 va x_2 $x^2-9x+4=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{x_1^2}+\frac{1}{x_2^2}$ ni toping.

A) 110 B) 120 C) $\frac{63}{16}$ D) $\frac{73}{16}$

Yechimi:

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilgan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$x^2-9x+4=0$
$x_1+x_2=-p$	$x_1+x_2=9$
$x_1\cdot x_2=q$	$x_1\cdot x_2=4$

$$a^2+b^2=(a+b)^2-2ab \Rightarrow x_1^2+x_2^2=\left(x_1+x_2\right)^2-2x_1x_2$$

$$\frac{1}{x_1^2}+\frac{1}{x_2^2}=\frac{x_1^2+x_2^2}{x_1^2\cdot x_2^2}=\frac{\left(x_1+x_2\right)^2-2x_1x_2}{\left(x_1\cdot x_2\right)^2}$$

$$\frac{1}{x_1^2}+\frac{1}{x_2^2}=\frac{9^2-2\cdot4}{(4)^2}=\frac{81-8}{16}=\frac{73}{16}$$ **Javob: (D)**

Izoh: 1– viyet teoremasini, keyin maxsus formulani qo'llab topiladi.

3388. n va m $x^2-3x-5=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{n^2}+\frac{1}{m^2}$ ni toping.

A) $-\frac{1}{25}$ B) $\frac{19}{25}$ C) 25 D) 0,25

3389. x_1 va x_2 $-2x^2-9x+3=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{x_1^2}+\frac{1}{x_2^2}$ ni toping.

A) $\frac{31}{3}$ B) $\frac{41}{9}$ C) 9 D) 6,25

3390. a va b $-x^2+x+9=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{a^2}+\frac{1}{b^2}$ ni toping.

A) –19 B) $\frac{19}{25}$ C) $\frac{19}{81}$ D) 81

3391. x va y $x^2-24x+12=0$ tenglama ildizlari $\frac{1}{x^2}+\frac{1}{y^2}$ ni toping.

A) $\frac{29}{6}$ B) 23 C) 2,5 D) $\frac{23}{6}$

✓ x_1 va x_2 $x^2-9x+4=0$ tenglama ildizlari $x_1^3+x_2^3$ ni toping.

A) 77 B) 621 C) $\frac{63}{16}$ D) $\frac{73}{16}$

Yechimi:

keltirilgan kvadrat tenglama	keltirilgan kvadrat tenglama
$x^2+px+q=0$	$x^2-9x+4=0$
$x_1+x_2=-p$	$x_1+x_2=9$
$x_1\cdot x_2=q$	$x_1\cdot x_2=4$

$$x_1^3+x_2^3=\left(x_1+x_2\right)\left(x_1^2-x_1\cdot x_2+x_2^2\right)$$

$$x_1^2+x_2^2=\left(x_1+x_2\right)^2-2x_1x_2$$

$$x_1^3+x_2^3=\left(x_1+x_2\right)\left(\left(x_1+x_2\right)^2-2x_1x_2-x_1\cdot x_2\right)$$

$$x_1^3+x_2^3=\left(x_1+x_2\right)\left(\left(x_1+x_2\right)^2-3x_1x_2\right)$$

$$x_1^3+x_2^3=9\cdot\left(9^2-3\cdot4\right)=621$$

Javob: (B)

Izoh: 1– viyet teoremasini, keyin maxsus formulani qo'llab topiladi.

3392. n va m $x^2-3x-5=0$ tenglama ildizlari n^3+m^3 ni toping.

A) $-\frac{1}{25}$ B) 72 C) 25 D) 42

3393. a va b $-x^2+x+9=0$ tenglama ildizlari a^3+b^3 ni toping.

A) –39 B) $\frac{10}{21}$ C) 28 D) 81

3394. $x^2-8x+2=0$ tenglama ildizlari kublari yig'indisini toping.

A) $\frac{29}{6}$ B) 496 C) 526 D) 464

3395. $-2x^2-9x+3=0$ tenglama ildizlari kublari yig'indisini toping.

A) $-\frac{891}{8}$ B) $\frac{579}{8}$ C) 959 D) –891

✓ x_1 va x_2 $x^2+8x-2=0$ tenglama ildizlari $x_1^4+x_2^4$ ni toping.

A) 1126 B) 4616 C) 2016 D) 4416

Yechimi: maxsus formula:

$$a^4+b^4=\left((a+b)^2-2ab\right)^2-2a^2b^2$$

$$\begin{cases} x^2+8x-2=0 \\ x_1+x_2=-8 \\ x_1\cdot x_2=-2 \end{cases}$$

$$x_1^4+x_2^4=\left((-8)^2+2\cdot2\right)^2-2\cdot(-2)^2$$

$$x_1^4+x_2^4=(64+4)^2-8=4616$$

Izoh: Javob: (B) 1– viyet teoremasini, keyin maxsus formulani qo'llab topiladi.

3396. n va m $x^2-x-8=0$ tenglama ildizlari n^4+m^4 ni toping.

A) –161 B) 161 C) 171 D) 53

3397. x_1 va x_2 $x^2+2x-3=0$ tenglama ildizlari $x_1^4+x_2^4$ ni toping.

A) 82 B) 72 C) 25 D) 62

3398. a va b $-x^2-2x+1=0$ tenglama ildizlari a^4+b^4 ni toping.

A) –5 B) 54 C) 34 D) 32

3399. $-x^2-x+4=0$ tenglama ildizlari to'rtinchi darajalari yig'indisini toping.

A) –5 B) 7 C) 59 D) 49

✓ x_1 va x_2 $x^2-22x+10=0$ tenglama ildizlari $|x_1-x_2|$ ni toping.

A) $\sqrt{444}$ B) $\sqrt{454}$ C) 32 D) 15

Yechimi: maxsus formula: $a-b=\pm\sqrt{(a+b)^2-4a\cdot b}$

$$\begin{array}{|l} x^2-22x+10=0 \\ x_1+x_2=22 \\ x_1\cdot x_2=10 \end{array} \quad \begin{array}{|l} x_1-x_2=\pm\sqrt{(x_1+x_2)^2-4x_1\cdot x_2} \\ |x_1-x_2|=\sqrt{(x_1+x_2)^2-4x_1\cdot x_2} \end{array}$$

$$|x_1-x_2|=\sqrt{22^2-4\cdot 10}=\sqrt{484-40}=\sqrt{444}$$

Javob: (A)

Izoh: modul qo'yilgani uchun "±" tashlab yubo'ramiz.

3400. a va b $x^2-11x+4=0$ tenglama ildizlari $a-b$ ni toping.

A) –3 B) 4,5 C) $\pm\sqrt{105}$ D) $\sqrt{105}$

3401. x_1 va x_2 $4x^2+10x-6=0$ tenglama ildizlari $|x_1-x_2|$ ni toping.

A) 3,5 B) 4,5 C) 2,5 D) 6

3402. $x^2-7x+6=0$ tenglama ildizlari ayirmasining absolyut qiymatini toping.

A) 5 B) $\sqrt{11}$ C) –2,5 D) $-4\frac{1}{3}$

✓ Ildizlari $x_1=-3$, $x_2=6$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-3x-18=0$ B) $x^2+3x+18=0$

C) $x^2+3x-18=0$ D) $x^2-3x+18=0$

Yechimi:

$$\begin{array}{|l} x_1+x_2=-p \\ x_1\cdot x_2=q \\ x^2+px+q=0 \end{array} \Rightarrow \begin{array}{|l} -3+6=-p \\ -3\cdot 6=q \\ p=-3,\ q=-18 \\ x^2-3x-18=0 \end{array}$$

Javob: (A)

Izoh: Berilgan ildizlarni qo'shing va ko'paytiring keyin viyet teoremasiga ko'ra joylang.

3403. Ildizlari $x_1=3$, $x_2=-1$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+2x-3=0$ B) $x^2-2x-3=0$

C) $x^2+3x-3=0$ D) $x^2-2x+3=0$

3404. Ildizlari $x_1=3$, $x_2=2$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-5x+6=0$ B) $x^2+5x+6=0$

C) $x^2+2x-5=0$ D) $x^2-6x+6=0$

3405. Ildizlari $x_1=-4$, $x_2=-5$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+9x-20=0$ B) $x^2-9x+20=0$

C) $x^2+9x+20=0$ D) $x^2-9x-20=0$

3406. Ildizlari $x_1=3/4$, $x_2=4/3$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-\frac{29}{12}x+1=0$ B) $x^2+3x+1=0$

C) $x^2-\frac{13}{12}x+1=0$ D) $x^2-\frac{25}{12}x+1=0$

3407. Ildizlari $x_1=4-\sqrt{7}$, $x_2=4+\sqrt{7}$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-8x-9=0$ B) $x^2-8x+9=0$

C) $x^2+8x+9=0$ D) $x^2-3x+9=0$

3408. Ildizlari $x_1=2-\sqrt{3}$, $x_2=2+\sqrt{3}$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-4x+1=0$ B) $x^2-4x-1=0$

C) $x^2+4x-1=0$ D) $x^2-3x+1=0$

✓ Ildizlaridan biri $\frac{1}{6-\sqrt{2}}$ bo'lgan ratsional koefitsentli kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-\frac{6}{17}x-1=0$ B) $x^2-\frac{6}{17}x+\frac{1}{34}=0$

C) $x^2+\frac{6}{17}x+1=0$ D) $x^2+\frac{6}{17}x-\frac{1}{34}=0$

Yechimi:

$$\frac{1}{6-\sqrt{2}}=\frac{6+\sqrt{2}}{(6-\sqrt{2})(6+\sqrt{2})}=\frac{6+\sqrt{2}}{34}$$

$$x_1=\frac{6+\sqrt{2}}{34} \Rightarrow x_2=\frac{6-\sqrt{2}}{34}$$

$$\left.\begin{array}{l} x_1+x_2=-p \\ x_1\cdot x_2=q \\ \underline{x^2+px+q=0} \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} \frac{6+\sqrt{2}}{34}+\frac{6-\sqrt{2}}{34}=-p \\ \frac{6+\sqrt{2}}{34}\cdot\frac{6-\sqrt{2}}{34}=q \\ \underline{-\frac{6}{17}=p \quad \frac{1}{34}=q} \end{array}\right.$$

$$x^2-\frac{6}{17}x+\frac{1}{34}=0$$

Javob: (B)

Izoh: agar tenglamaning berilgan ildizlaridan biri "–" bo'lsa, ikkinchisi "+" bo'ladi.

$$x_1=\frac{6+\sqrt{2}}{34} \Rightarrow x_2=\frac{6-\sqrt{2}}{34}$$

3409. Ildizlaridan biri $3+\sqrt{2}$ bo'lgan ratsional koefitsentli kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+6x+7=0$ B) $x^2-6x+7=0$

C) $x^2-6x-7=0$ D) $x^2+6x-7=0$

3410. Ildizlaridan biri $2-\sqrt{3}$ bo'lgan ratsional koefitsentli kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-4x+1=0$ B) $x^2-4x-1=0$

C) $x^2+4x-1=0$ D) $x^2+4x+1=0$

3411. Ildizlaridan biri $5+\frac{\sqrt{7}}{2}$ bo'lgan ratsional koefitsentli kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-10x-\frac{93}{4}=0$ B) $x^2+10x+\frac{93}{4}=0$

C) $x^2-10x+\frac{93}{4}=0$ D) $x^2+10x+\frac{97}{4}=0$

✓ Ildizlari $x^2-10x+4=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga qarama–qarshi sonlardan iborat bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+10x+4=0$ B) $x^2+10x-4=0$

C) $x^2-10x+4=0$ D) $x^2-10x-4=0$

Yechimi:

$$\left.\begin{array}{l} x^2-10x+4=0 \\ x_1\ ;\ x_2 \\ \underline{x_1+x_2=10\ ;\ x_1\cdot x_2=4} \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} y^2+py+q=0 \\ y_1=-x_1\ ;\ y_2=-x_2 \\ \underline{y_1+y_2=-p\ ;\ y_1\cdot y_2=q} \end{array}\right.$$

$$y^2+py+q=0$$

$$\left.\begin{array}{l} -x_1+(-x_2)=-p \\ \underline{(-x_1)\cdot(-x_2)=q} \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} -(x_1+x_2)=-p \\ \underline{x_1\cdot x_2=q} \end{array}\right.$$

$$\left.\begin{array}{l} x_1+x_2=10 \\ \underline{x_1\cdot x_2=4} \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} 10=p \\ \underline{4=q} \end{array}\right.$$

$$\boxed{\begin{array}{c} y^2+10y+4=0 \\ \Downarrow \\ x^2+10x-4=0 \end{array}}$$

Javob: (A)

Izoh: qarama–qarshi degani uchun $y_1=-x_1 \quad y_2=-x_2$ kabi belgilandi.

3412. Ildizlari $x^2-5x+1=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga qarama–qarshi sonlardan iborat bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-5x-1=0$ B) $x^2+5x+1=0$

C) $x^2-5x+1=0$ D) $x^2+5x-1=0$

3413. Ildizlari $x^2-x-2=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga qarama–qarshi sonlardan iborat bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-x+2=0$ B) $x^2+x-2=0$

C) $x^2-x-2=0$ D) $x^2+x+2=0$

3414. Ildizlari $3x^2+2x-4=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga qarama–qarshi sonlardan iborat bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $3x^2+2x+4=0$ B) $3x^2-2x+4=0$

C) $3x^2+2x-4=0$ D) $3x^2-2x-4=0$

✓ Ildizlari $x^2-18x+72=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikki marta katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+36x-288=0$ B) $x^2+36x+288=0$

C) $x^2-36x+288=0$ D) $x^2-36x-288=0$

Yechimi:

$$\left.\begin{array}{l} x^2-18x+72=0 \\ x_1\ ;\ x_2 \\ \underline{x_1+x_2=18\ ;\ x_1\cdot x_2=72} \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} y^2+py+q=0 \\ y_1=2x_1\ ;\ y_2=2x_2 \\ \underline{y_1+y_2=-p\ ;\ y_1\cdot y_2=q} \end{array}\right.$$

$$y^2+py+q=0$$

$$\left.\begin{array}{l} 2x_1+2x_2=-p \\ \underline{2x_1\cdot 2x_2=q} \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} 2(x_1+x_2)=-p \\ \underline{4x_1\cdot x_2=q} \end{array}\right.$$

$$\left.\begin{array}{l} x_1+x_2=18 \\ \underline{x_1\cdot x_2=72} \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} 2\cdot 18=-p \\ \underline{4\cdot 72=q} \end{array}\right| \begin{array}{l} p=-36 \\ \underline{q=288} \end{array}$$

Javob: (C)

$$y^2-36y+288=0$$

$$x^2-36x+288=0$$

Izoh: tenglamaning ildizlaridan ikki marta katta bo'lgan degani uchun $y_1=2x_1\ ;\ y_2=2x_2$ kabi belgilandi.

3415. Ildizlari $x^2-11x+28=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikki marta katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-22x+112=0$ B) $x^2+22x+112=0$

C) $x^2-22x-112=0$ D) $x^2+22x-112=0$

3416. Ildizlari $-x^2-3x+4=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikki marta katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+6x+16=0$ B) $x^2+6x-16=0$

C) $x^2-6x-16=0$ D) $x^2-6x+16=0$

3417. Ildizlari $x^2+x+11=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikki marta katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-2x-44=0$ B) $x^2+2x-44=0$

C) $x^2+2x+44=0$ D) $x^2-2x+44=0$

✓ Ildizlari $x^2-19x+84=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikkita katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+36x-288=0$ B) $x^2-23x-126=0$

C) $x^2+23x+126=0$ D) $x^2-23x+126=0$

Yechimi:

$$\left.\begin{array}{l} x^2-19x+84=0 \\ x_1;\ x_2 \\ x_1+x_2=19;\ x_1\cdot x_2=84 \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} y^2+py+q=0 \\ y_1=x_1+2;\ y_2=x_2+2 \\ y_1+y_2=-p;\ y_1\cdot y_2=q \end{array}\right.$$

$$y^2+py+q=0$$

$$\left.x_1+2+x_2+2=-p\right| \Rightarrow \left|(x_1+2)\cdot(x_2+2)=q\right.$$

$$(x_1+2)\cdot(x_2+2)=q$$

$$4+x_1+x_2=-p \qquad x_1\cdot x_2+2\cdot(x_1+x_2)+4=q$$

$$4+19=-p \qquad 84+2\cdot 19+4=q$$

$$p=-23 \qquad q=126$$

$$y^2-23y+126=0 \Rightarrow \quad x^2-23x+126=0$$

Javob: (D)

Izoh: tenglamaning ildizlaridan ikkita katta bo'lgan degani uchun $y_1=x_1+2;\ y_2=x_2+2$ kabi belgilandi.

3418. Ildizlari $x^2-10x+24=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikkita katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2+14x+48=0$ B) $x^2-14x-48=0$

C) $x^2+14x-48=0$ D) $x^2-14x+48=0$

3419. Ildizlari $x^2-11x+24=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikkita katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-15x-50=0$ B) $x^2+15x+50=0$

C) $x^2+15x-50=0$ D) $x^2-15x+50=0$

3420. Ildizlari $x^2-9x+18=0$ kvadrat tenglamaning ildizlaridan ikkita katta bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^2-13x-40=0$ B) $x^2+13x+40=0$

C) $x^2+2x+44=0$ D) $x^2-13x+40=0$

✓ Ildizlari $x^2-10x+24=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga teskari bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $24x^2-10x-1=0$ B) $24x^2-10x+1=0$

C) $24x^2+10x+1=0$ D) $24x^2+10x-1=0$

Yechimi:

$$\left.\begin{array}{l} x^2-10x+24=0 \\ x_1;\ x_2 \\ x_1+x_2=10 \\ x_1\cdot x_2=24 \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} y^2+py+q=0 \\ y_1=\dfrac{1}{x_1};\quad y_2=\dfrac{1}{x_2} \\ y_1+y_2=-p \\ y_1\cdot y_2=q \end{array}\right.$$

$$\left.\begin{array}{l} y^2+py+q=0 \\ \dfrac{1}{x_1}+\dfrac{1}{x_2}=-p \end{array}\right| \Rightarrow \left|\begin{array}{l} \dfrac{1}{x_1}\cdot\dfrac{1}{x_2}=q \end{array}\right. \qquad \left|\begin{array}{l} \dfrac{x_2+x_1}{x_1\cdot x_2}=-p \\ \dfrac{10}{24}=-p \\ \dfrac{5}{12}=-p \end{array}\right| \qquad \left|\begin{array}{l} \dfrac{1}{x_1\cdot x_2}=q \\ \dfrac{1}{24}=q \end{array}\right.$$

$$y^2-\frac{5}{12}y+\frac{1}{24}=0 \quad (\cdot 24)$$

$$\Downarrow$$

$$24x^2-10x+1=0$$

Javob: (B)

Izoh: ildizlariga teskari bo'lgan degani uchun $y_1=\dfrac{1}{x_1};\quad y_2=\dfrac{1}{x_2}$ kabi belgilandi.

3421. Ildizlari $x^2-20x+96=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga teskari bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $96x^2-20x+1=0$ B) $96x^2-20x-1=0$

C) $96x^2+20x+1=0$ D) $96x^2+20x-1=0$

3422. Ildizlari $x^2-17x-66=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga teskari bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $66x^2-17x+1=0$ B) $66x^2+17x-1=0$

C) $66x^2-17x-1=0$ D) $66x^2+17x+1=0$

3423. *Ildizlari* $x^2-11x+24=0$ kvadrat tenglamaning ildizlariga teskari bo'lgan kvadrat tenglamani tuzing.

A) $24x^2-11x-1=0$ B) $24x^2+11x+1=0$

C) $24x^2-11x+1=0$ D) $24x^2+11x-1=0$

✓ k ning qanday qiymatlarida $3x^2-10x+3k=0$ tenglamaning x_1 *va* x_2 ildizlari orasida $6x_1+13x_2=48$ munosabat o'rinli bo'ladi?

A) $-\frac{8}{3}$ B) $\frac{8}{3}$ C) $-\frac{10}{3}$ D) $\frac{10}{3}$

Yechimi:

$$\boxed{3x^2-10x+3k=0\,(:3)} \Downarrow \boxed{x^2-\frac{10}{3}x+k=0}$$

$$\boxed{\begin{matrix}x_1+x_2=\frac{10}{3}\\ x_1\cdot x_2=k\end{matrix}} \Rightarrow \begin{cases}x_1+x_2=\frac{10}{3}\\ 6x_1+13x_2=48\end{cases}$$

$$\begin{cases}x_1+x_2=\frac{10}{3} & (\cdot 6)\\ 6x_1+13x_2=48\end{cases} \Rightarrow \boxed{\begin{matrix}-\begin{cases}6x_1+6x_2=20\\ 6x_1+13x_2=48\end{cases}\\ \hline -7x_2=-28\\ x_2=4\end{matrix}}$$

$$\boxed{\begin{matrix}x_1+x_2=\frac{10}{3}\\ x_1+4=\frac{10}{3}\\ x_1=-\frac{2}{3}\end{matrix}} \Rightarrow \boxed{\begin{matrix}x_1=-\frac{2}{3}\\ x_2=4\\ x_1\cdot x_2=k\\ -\frac{2}{3}\cdot 4=k\end{matrix}} \Rightarrow \boxed{k=-\frac{8}{3}}$$

Javob: (A)

Izoh: viyet teoremasini qo'llab, sistema tuzib olish lozim.

3424. a ning qanday qiymatlarida $3x^2-5x+3a=0$ tenglamaning x_1 *va* x_2 ildizlari orasida $6x_1-x_2=24$ munosabat o'rinli bo'ladi?

A) $-\frac{22}{3}$ B) $\frac{46}{3}$ C) $\frac{23}{3}$ D) $\frac{-5}{3}$

3425. m ning qanday qiymatlarida $4x^2-25x+4m=0$ tenglamaning x_1 *va* x_2 ildizlari orasida $8x_1+6x_2=36$ munosabat o'rinli bo'ladi?

A) $\frac{21}{4}$ B) $\frac{-21}{4}$ C) $\frac{25}{4}$ D) $\frac{-25}{4}$

3426. n ning qanday qiymatlarida $2x^2-7x+2n=0$ tenglamaning x_1 *va* x_2 ildizlari orasida $8x_1+6x_2=20$ munosabat o'rinli bo'ladi?

A) -2 B) 2 C) $\frac{7}{2}$ D) $\frac{-7}{2}$

✓ k ning qanday qiymatlarida $5x^2+kx-1=0$ tenglamaning x_1 *va* x_2 ildizlari orasida $x_1+10x_2=1$ munosabat o'rinli bo'ladi?

A) $-\frac{8}{3}$ B) $2;\frac{8}{3}$ C) $4;\frac{19}{2}$ D) $2;\frac{10}{3}$

Yechimi:

$$\boxed{5x^2+kx-1=0\,(:5)} \Downarrow \boxed{x^2+\frac{k}{5}x-\frac{1}{5}=0}$$

$$\boxed{\begin{matrix}x_1+x_2=-\frac{k}{5}\\ x_1\cdot x_2=-\frac{1}{5}\end{matrix}} \Rightarrow \begin{cases}x_1+10x_2=1\\ x_1\cdot x_2=-\frac{1}{5}\end{cases}$$

$$\begin{cases}x_1+10x_2=1\\ x_1\cdot x_2=-\frac{1}{5}\end{cases} \Rightarrow \begin{cases}x_1=1-10x_2\\ x_1\cdot x_2=-\frac{1}{5}\end{cases}$$

$$x_1\cdot x_2=-\frac{1}{5}$$

$$(1-10x_2)\cdot x_2=-\frac{1}{5}$$

$$x_2-10x_2^2+\frac{1}{5}=0$$

$$-10x_2^2+x_2+\frac{1}{5}=0$$

$$D=\sqrt{1+4\cdot\frac{1}{5}\cdot 10}=3$$

$$\boxed{\begin{matrix}x_{2,1}=\frac{-1-3}{-20}=\frac{1}{5}\\ x_{2,2}=\frac{-1+3}{-20}=-\frac{1}{10}\end{matrix}} \Rightarrow \boxed{\begin{matrix}x_1=1-10x_2\\ x_{1,1}=1-10\cdot\frac{1}{5}=-1\\ x_{1,2}=1+10\cdot\frac{1}{10}=2\end{matrix}}$$

$$\left\{x_{1,1};\ x_{2,1}\right\} \Rightarrow \left\{-1;\ \frac{1}{5}\right\}$$

$$\left\{x_{1,2};\ x_{2,2}\right\} \Rightarrow \left\{2;\ -\frac{1}{10}\right\}$$

$$x_1+x_2=-\frac{k}{5}$$

$$\swarrow \quad \searrow$$

$$\boxed{\begin{matrix}-1+\frac{1}{5}=-\frac{k}{5}\\ -\frac{4}{5}=-\frac{k}{5}\\ k=4\end{matrix}} \qquad \boxed{\begin{matrix}2-\frac{1}{10}=-\frac{k}{5}\\ \frac{19}{10}=-\frac{k}{5}\\ k=-\frac{19}{2}\end{matrix}}$$

Javob: (C)

3427. k ning qanday qiymatlarida $x^2-kx-8=0$ tenglamaning x_1 va x_2 ildizlari orasida $x_1+x_2=2$ munosabat o'rinli bo'ladi?

A) $\pm\frac{1}{2}$ B) 2 C) $\pm\frac{1}{4}$ D) $\frac{-5}{3}$

3428. k ning qanday qiymatlarida i $x^2-kx+4=0$ tenglamaning x_1 va x_2 ildizlari orasida $2x_1-3x_2=2$ munosabat o'rinli bo'ladi?

A) $\frac{21}{4}$; 2 B) $-2;\frac{13}{4}$ C) $-4;\frac{13}{3}$ D) $\frac{-25}{4}$

✓ k ning qanday qiymatlarida $(3k+2)x^2+6x+1=0$ tenglama $x=-2$ yechimga ega?

A) $\frac{1}{4}$ B) $2;\frac{8}{3}$ C) 4 D) $-\frac{1}{4}$

Yechimi: tenlamaning ildizi berilgan bo'lsa, o'rniga qo'ying.

$(3k+2)x^2+6x+1=0$ | $x=-2$ | $(3k+2)\cdot(-2)^2+6\cdot(-2)+1=0$ *bu tenglamani yechsak* $k=\frac{1}{4}$

Javob: (A)

3429. n ning qanday qiymatlarida $nx^2-nx-11=0$ tenglama $x=0,5$ yechimga ega?

A) –44 B) –3 C) 11 D) 44

3430. a ning qanday qiymatlarida $x^2-(a-1)x+32=0$ tenglama $x=4$ yechimga ega?

A) 12 B) 13 C) 11 D) 14

3431. k ning qanday qiymatlarida $(2k+5)x^2+7x-2k^2=0$ tenglama $x=1$ yechimga ega?

A) 1; 3 B) 1; –3 C) –2; 3 D) –3; 2

✓ $x^2-11x+q=0$ tenglamaning ildizlaridan biri 5 ga teng. Shu tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisini toping.

A) 11 B) 15 C) 20 D) 18

Yechimi: tenlamaning ildizi berilgan bo'lsa, o'rniga qo'ying.

$x^2-11x+q=0$ | $x=5$ | $5^2-11\cdot5+q=0$ *bu tenglamani yechsak* $q=30$

demak, $x^2-11x+30=0$

Shu tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisini | $1-11+30=20$

Javob: (C)

3432. $x^2-12x+a=0$ tenglamaning ildizlaridan biri 5 ga teng. Shu tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisini toping.

A) –48 B) 48 C) 23 D) 24

3433. $x^2-12x+n=0$ tenglamaning ildizlaridan biri 4 ga teng. Shu tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisini toping.

A) 21 B) 13 C) 11 D) 44

3434. $x^2-11x+m=0$ tenglamaning ildizlaridan biri 6 ga teng. Shu tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisini toping.

A) 19 B) 15 C) 20 D) 24

✓ $x^2-\frac{9}{20}ax+a=0$ tenglamaning ildizlaridan biri 5 ga teng. Uning ikkinchi ildizini toping.

A) 11 B) 5 C) 2 D) 4

Yechimi: tenlamaning ildizi berilgan bo'lsa, o'rniga qo'ying.

$x^2-\frac{9}{20}ax+a=0$ | $x=5$ | $5^2-\frac{9}{20}a\cdot5+a=0$ *bu tenglamani yechsak* $a=20$

demak, $x^2-9x+20=0$

$x_1+x_2=9$, $x_1\cdot x_2=20$ $\Rightarrow$ $5+x_2=9$, $x_2=4$

Javob: (D)

3435. $x^2-\frac{a}{2}x+a=0$ tenglamaning ildizlaridan biri 6 ga teng. Uning ikkinchi ildizini toping.

A) 3 B) 8 C) 2 D) 4

3436. $x^2+\frac{5}{14}ax+a=0$ tenglamaning ildizlaridan biri –2 ga teng. Uning ikkinchi ildizini toping.

A) 7 B) –7 C) 8 D) 6

3437. $x^2+\frac{n}{20}x+n=0$ tenglamaning ildizlaridan biri –4 ga teng. Uning ikkinchi ildizini toping.

A) 5 B) –5 C) 2 D) 4

✓ $x^2-2x+3a=0$ tenglamaning x_1 va x_2 ildizlari orasida $\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}=\frac{2}{5}$ munosabat o'rinli. a ning qiymatini toping.

A) 5/3 B) 5 C) 2/5 D) 4

Yechimi:

$x^2-2x+3a=0$

$x_1+x_2=2$, $x_1\cdot x_2=3a$

$\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}=\frac{2}{5}$, $\frac{x_2+x_1}{x_1x_2}=\frac{2}{5}$

proporsiya $\frac{x_2+x_1}{x_1x_2}=\frac{2}{5}$ $\frac{2}{3a}=\frac{2}{5}$

$6a=10$

$a=\frac{5}{3}$

Javob: (A)
Izoh: Viyet teoremasini qo'llab, proporsiya tuzib olish lozim.

3438. $x^2+x+a=0$ tenglamaning x_1 va x_2 ildizlari orasida $\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}=\frac{2}{5}$ munosabat o'rinli. a ning qiymatini toping.
A) –1,5 B) –2 C) –1 D) –2,5

3439. $x^2-5x-4a=0$ tenglamaning x_1 va x_2 ildizlari orasida $\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}=\frac{1}{4}$ munosabat o'rinli. a ning qiymatini toping.
A) 5 B) –5 C) 2 D) 6

3440. $x^2-3x-2a=0$ tenglamaning x_1 va x_2 ildizlari orasida $\frac{1}{x_1}+\frac{1}{x_2}=5$ munosabat o'rinli. a ning qiymatini toping.
A) 0,3 B) –0,3 C) 2 D) 4

KVADRAT TENGLAMAGA KELTIRILADIGAN TENGLAMALAR

✓ $x^4-7x^2+12=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm 3;\pm\sqrt{5}$ B) $\pm 2;\pm\sqrt{3}$
C) $\pm 3;\pm\sqrt{3}$ D) $\pm 2;\pm\sqrt{2}$

Yechimi: $ax^4+bx^2+c=0$ ko'rinishdagi tenglamalar **BIKVADRAT** tenglama deyiladi.

$$x^4-7x^2+12=0$$

bu turdagi misollarni ishlashda belgilash kiritamiz:

$$x^2=t$$
$$x^4-7x^2+12=0$$
$$(x^2)^2-7x^2+12=0$$
$$t^2-7t+12=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz:

$$t^2-7t+12=0$$
$$t_1=4 \qquad t_2=3$$

$x^2=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$x^2=4$	$x^2=3$
$x_{1,2}=\pm 2$	$x_{3,4}=\pm\sqrt{3}$

Javob: $x_{1,2}=\pm 2;\quad x_{3,4}=\pm\sqrt{3}$ **(B)**

3441. $x^4-10x^2+9=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm 1;\pm 3$ B) $\pm 1;\pm 5$
C) $\pm 1;\pm 6$ D) $\pm 4;\pm 3$

3442. $x^4-13x^2+36=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm 2;\pm 3$ B) $\pm 4;\pm 3$
C) $\pm 5;\pm 2$ D) $\pm 2;\pm 4$

3443. $4x^4-17x^2+4=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm 2;\pm\frac{1}{2}$ B) ± 2
C) $\pm 2;\pm\frac{1}{4}$ D) $2;\frac{1}{4}$

✓ $9x^4+5x^2-4=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm\frac{2}{3}$ B) ± 2 C) $\pm 3;\pm\sqrt{3}$ D) $\pm\sqrt{2}$

Yechimi: $9x^4+5x^2-4=0$

belgilash kiritamiz: $x^2=t$

$$9t^2+5t-4=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz:

$$9t^2+5t-4=0$$
$$t_1=\frac{4}{9} \qquad t_2=-1$$

$x^2=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$x^2=\frac{4}{9}$	$x^2=-1$
$x_{1,2}=\pm\frac{2}{3}$	$\varnothing$

Javob: $x_{1,2}=\pm\frac{2}{3}$ **(A)**

3444. $x^4-3x^2-4=0$ tenglamani yeching.
A) ± 1 B) ± 2 C) $\varnothing$ D) ± 4

3445. $x^4+x^2-20=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm\sqrt{5}$ B) $\varnothing$ C) ± 2 D) $\pm\sqrt{5};\ \pm 2$

3446. $x^4-4x^2-5=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm 1;\pm\sqrt{5}$ B) $\varnothing$ C) ± 2 D) $\pm\sqrt{5}$

3447. $x^4+5x^2+6=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm\sqrt{2}$ B) $\pm\sqrt{3};\pm\sqrt{2}$ C) $\varnothing$ D) $\pm 2;\pm 3$

✓ Ildizlari ± 2 va ± 3 bo'lgan keltirilgan bikvadrat tenglamani tuzing.
A) $x^4-13x^2+36=0$ B) $x^4+13x^2+36=0$
C) $x^4-13x^2-36=0$ D) $x^4+13x^2-36=0$
Yechimi:

$x_{1,2}=\pm 2$	$x_{3,4}=\pm 3$	$x_1+x_2=-p$	$9+4=-p$
$x^2=4$	$x^2=9$	$x_1\cdot x_2=q$	$9\cdot 4=q$
$t_1=4$	$t_2=9$	$x^2+px+q=0$	$p=-13,\ q=36$
			$t^2-13t+36=0$

$x^2=t \Rightarrow \qquad x^4-13x^2+36=0$

Javob: (A)

3448. Ildizlari ± 5 *va* ± 7 bo'lgan keltirilgan bikvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^4-74x^2+1225=0$ B) $x^4+74x^2-1225=0$

C) $x^4-74x^2-1225=0$ D) $x^4+74x^2+1225=0$

3449. Ildizlari ± 1 *va* ± 6 bo'lgan keltirilgan bikvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^4-37x^2-36=0$ B) $x^4+37x^2-36=0$

C) $x^4+37x^2+36=0$ D) $x^4-37x^2+36=0$

3450. Ildizlari $\pm\sqrt{2}$ *va* $\pm\sqrt{3}$ bo'lgan keltirilgan bikvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^4-5x^2+6=0$ B) $x^4-5x^2-6=0$

C) $x^4+5x^2-6=0$ D) $x^4+5x^2+6=0$

3451. Ildizlari $\pm 3\sqrt{2}$ *va* $\pm 2\sqrt{3}$ bo'lgan keltirilgan bikvadrat tenglamani tuzing.

A) $x^4-30x^2-216=0$ B) $x^4-30x^2+216=0$

C) $x^4+30x^2+216=0$ D) $x^4+30x^2-216=0$

✓ $\dfrac{x^2+2x-3}{x-3}=0$ tenglamani yeching.

A) 1 B) –2 C) –1 D) –3

Yechimi: Agar kasr ko'rinishdagi tenglama berilsa suratini (tepasini) "0" ga tenglab yeching:

$x^2+2x-3=0$

bu kvadrat tenglamani yechamiz:

$x_1=-1 \qquad x_2=3$

$x=3$ tenglamaning yechimi bo'lmaydi ($x=3$ *chet ildiz* deyiladi) ya'ni maxraj "0" ga teng bo'lgani uchun:

Javob: $x=-1$; **(C)**

Izoh: Javobni olishdan oldin maxrajga qo'yib tekshirish lozim.

3452. $\dfrac{x+1}{x-2}=0$ tenglamani yeching.

A) –4 B) 2 C) 3 D) –1

3453. $\dfrac{2x-1}{3x+1}=0$ tenglamani yeching.

A) 0,3 B) –0,5 C) 0,5 D) –2

3454. $\dfrac{x-3x^2}{x}=0$ tenglamani yeching.

A) 0 B) 0; 3 C) ∅ D) $\dfrac{1}{3}$

3455. $\dfrac{25-x^2}{x-5}=0$ tenglamani yeching.

A) 5 B) –5 C) ∅ D) ± 5

3456. $\dfrac{(x-25)(7x-14)}{5-\sqrt{x}}=0$ tenglamani yeching.

A) 25; 0,5 B) 2 C) ± 2 D) ∅

3457. $\dfrac{-x^2+x+2}{x+1}=0$ tenglamani yeching.

A) 2 B) –1 C) ∅ D) ± 5

✓ $\dfrac{3}{x+2}-\dfrac{4}{x-3}=3$ tenglamani yeching.

A) ± 3 B) –1; $-\dfrac{1}{3}$ C) $\pm 3; \pm\sqrt{3}$ D) 1; $-\dfrac{1}{3}$

Yechimi: Umumiy mahraj beramiz.

$$\frac{3}{x+2}-\frac{4}{x-3}=3$$

$$\frac{(x-3)\cdot 3}{x+2}-\frac{(x+2)\cdot 4}{x-3}=3\cdot(x+2)(x-3)$$

$$3\cdot(x-3)-4\cdot(x+2)=3\cdot(x+2)(x-3)$$

$$3x-9-4x-8=3\cdot(x^2-3x+2x-6)$$

$$3x-9-4x-8=3x^2-9x+6x-18$$

$$3x^2-2x-1=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz: $x_1=1$; $x_2=-\dfrac{1}{3}$

bu yechimlarda maxraj nolga teng emas demak ikkilasi yechim bo'la oladi.

Javob: $x_1=1$; $x_2=-\dfrac{1}{3}$ **(D)**

3458. $\dfrac{10}{x-3}-\dfrac{8}{x}=1$ tenglamani yeching.

A) 8; –3 B) –1; 5 C) –1; 8 D) 4; –3

3459. $\dfrac{2}{x-5}+\dfrac{14}{x}=3$ tenglamani yeching.

A) 7; $\dfrac{10}{3}$ B) 7; $\dfrac{3}{10}$ C) 3; $\dfrac{10}{7}$ D) $\dfrac{3}{5}$; 7

3460. $\dfrac{1}{x}+\dfrac{1}{x+3}=\dfrac{3}{20}$ tenglamani yeching.

A) 12; $\dfrac{5}{3}$ B) $-\dfrac{5}{3}$; 12 C) ∅ D) 12; $-\dfrac{3}{5}$

3461. $\dfrac{40}{x-20}-\dfrac{40}{x}=1$ tenglamani yeching.

A) 40 B) ∅

C) –20; 40 D) –40; 20

3462. $\frac{4}{x-2}-\frac{4}{x+2}=1{,}5$ tenglamani yeching.

A) $\pm\sqrt{2}$ B) $\pm\sqrt{3};\pm\sqrt{2}$

C) $\pm\frac{2\sqrt{33}}{3}$ D) $\pm\sqrt{33}$

✓ $\frac{1}{(x-1)(x-2)}+\frac{3}{x-1}=\frac{3-x}{x-2}$ tenglamani yeching.

A) 1 B) $-1;\ -\frac{1}{3}$ C) $\frac{1}{3}$ D) $1;\ -\frac{1}{3}$

Yechimi: Umumiy mahraj beramiz.

$$\frac{1}{(x-1)(x-2)}+\frac{3}{x-1}=\frac{3-x}{x-2}$$

$$\frac{1}{(x-1)(x-2)}-\frac{(x-2)\cdot 3}{(x-1)(x-2)}=\frac{(x-1)\cdot(3-x)}{x-2}$$

$$1+3\cdot(x-2)=(3-x)(x-1)$$

$$1+3x-6=3x-3-x^2+x$$

$$x^2-x-2=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz:

$x_1=-1 \quad x_2=2$

$x=2$ tenglamaning yechimi bo'lmaydi ya'ni $x=2$ *chet ildiz* maxraj "0" ga teng bo'lgani uchun:

Javob: $x_1=1$ **(A)**

3463. $\frac{x+5}{x+2}+\frac{1}{(x+1)(x+2)}=\frac{1}{x+1}$ tenglamani yeching.

A) $-2;-3$ B) -4 C) $-2;-4$ D) $-4;-1$

3464. $\frac{x^2-2x-5}{(x-3)(x-1)}-\frac{1}{x-3}=1$ tenglamani yeching.

A) $7;\ \frac{10}{3}$ B) 7 C) 3; 7 D) 1; 7

3465. $\frac{x^2}{x+3}-\frac{x}{-3-x}=\frac{6}{x+3}$ tenglamaning ildizlari nechta?

A) 2 B) 1 C) ∅ D) 3

3466. $\frac{x^2}{x-1}-\frac{2x}{1-x}=\frac{3}{x-1}$ tenglamaning ildizlari nechta?

A) 4 B) 2 C) 3 D) 1

3467. x ning qanday qiymatlarida $\frac{6}{x^2-1}+\frac{2}{1-x}$ va $2-\frac{x+4}{1+x}$ *ifodalarning qiymatlari bir–biriga teng* bo'ladi?

A) 2 B) 0 C) 3 D) 1

3468. x ning qanday qiymatlarida $\frac{1}{x+2}-\frac{3}{x-2}$ va $1+\frac{4}{4-x^2}$ *ifodalarning qiymatlari bir–biriga teng* bo'ladi?

A) 0 B) 2 C) 3 D) 1

✓ $(x-1)^4-5(x-1)^2+4=0$ tenglamani yeching.

A) 1 B) −1; 3 C) −1; 0; 2; 3 D) 4; $-\frac{1}{3}$

Yechimi: $(x-1)^4-5(x-1)^2+4=0$

$(x-1)^2=t$

$t^2-5t+4=0$

bu kvadrat tenglamani yechamiz: $t_1=1;\ t_2=4$

$(x-1)^2=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$(x-1)^2=1 \quad (x-1)^2=4$

$x-1=\pm1 \quad x-1=\pm2 \qquad x-1=\pm2$

$x-1=1$	$x-1=-1$	$x-1=2$	$x-1=-2$
$x_1=2$	$x_2=0$	$x_3=3$	$x_4=-1$

Javob: −1; 0; 2; 3 **(C)**

3469. $(x+1)^4-10(x+1)^2+9=0$ tenglamani yeching.

A) $-2;-3;\ 0;\ 5$ B) $-4;-2;\ 0;\ 2$

C) $-2;-4;-3;-1$ D) $0;\ 4;-3;\ -1$

3470. $(x+5)^4+8(x+5)^2-9=0$ tenglamaning eng katta ildizini toping.

A) −4 B) −6 C) −6; −4 D) 1; 7

✓ $2x^8-x^4-15=0$ tenglamani yeching.

A) 1 B) −1; 3

C) $\pm\sqrt[4]{3}$ D) $4;\ -\frac{1}{3}$

Yechimi: $2x^8-x^4-15=0$

$x^4=t$

$2t^2-t-15=0$

bu kvadrat tenglamani yechamiz: $t_1=3;\ t_2=-\frac{5}{2}$

$x^4=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$x^4=3$	$x^4=-\frac{5}{2}$
$x_{1,2}=\pm\sqrt[4]{3}$	∅

Javob: $\pm\sqrt[4]{3}$ **(C)**

3471. $x^8-15x^4-16=0$ tenglamani yeching.
A) 24 B) $-2;\ 2$ C) ± 4 D) ± 1

3472. $x^{12}-26x^6-27=0$ tenglamani yeching.
A) $\pm\sqrt{3}$ B) -6 C) $\pm\sqrt[6]{3}$ D) 3

3473. $(2x-1)^6-6(2x-1)^3-16=0$ tenglamaning eng katta ildizini toping.
A) -4 B) $\frac{-\sqrt[3]{2}+1}{2};\ 1,5$ C) 1,5 D) $-\sqrt[3]{2}+1;\ 3$

✓ $(x^2-5x+4)(x^2-5x+6)=120$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) 1 B) 10 C) 6 D) 5
Yechimi:

$$\underbrace{(x^2-5x+4)}_{t}\cdot\underbrace{(x^2-5x+6)}_{t+2}=120$$

$$\Downarrow$$

$$t\cdot(t+2)=120$$

$$t^2+2\cdot t-120=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz: $t_1=10$; $t_2=-12$

$x^2-5x+4=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$x^2-5x+4=10$	$x^2-5x+4=-12$
$x^2-5x-6=0$	$x^2-5x+16=0$
$x_1+x_2=5$	$\varnothing$

Javob: (D)

Izoh: ildizlari yig'indisini topishda Viyet teoremasini qo'llang (Diskiriminant musbat bo'lishi lozim).

3474. $(x^2-7x+1)(x^2-7x+2)=20$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) 24 B) 12 C) 6 D) 7

3475. $(x^2+6x+4)(x^2+6x+13)=10$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) 4 B) 6 C) -6 D) 12

3476. $(3x^2-4x+1)(3x^2-4x+2)=56$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) $-4/3$ B) $-1/3$ C) 8 D) 4/3

3477. $(x^2+5x+1)(x^2+5x+2)=2$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) 10 B) 5 C) -10 D) -5

✓ $(x+1)(x+2)(x+4)(x+5)=40$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) -6 B) 10 C) 6 D) 5
Yechimi: boshi bilan oxirini va o'rtalarini o'zaro ko'paytiring.

$$\underbrace{(x+1)(x+5)}_{x^2+6x+5}\cdot\underbrace{(x+2)(x+4)}_{x^2+6x+8}=40$$

$$\underbrace{(x^2+6x+5)}_{t}\cdot\underbrace{(x^2+6x+8)}_{t+3}=40$$

$$\Downarrow$$

$$t\cdot(t+3)=40$$

$$t^2+3t-40=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz: $t_1=-8;\ t_2=5$

$x^2+6x+5=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$x^2+6x+5=-8$		$x^2+6x+5=5$
$x^2+6x+13=0$	$\Rightarrow$	$x^2+6x=0$
$\varnothing$		$x_1+x_2=-6$

Javob: (A)

Izoh: ildizlari yig'indisini topishda Viyet teoremasini qo'llang. (Diskiriminant musbat bo'lishi lozim.)

3478. $(y+3)(y+4)(y+6)(y+7)=10$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) 10 B) -12 C) -20 D) -10

3479. $(n-2)(n+1)(n+4)(n+7)=19$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) 5 B) -5 C) -10 D) 10

3480. $(x+2)(x+3)(x+5)(x+6)=28$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) -8 B) -16 C) 8 D) 16

✓ $(x+\frac{1}{x})^2-2(x+\frac{1}{x})-3=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) -1 B) 3 C) 1 D) 4
Yechimi: belgilash kiritish lozim.

$$\underbrace{(x+\tfrac{1}{x})}_{t}{}^2-2\underbrace{(x+\tfrac{1}{x})}_{t}-3=0$$

$$\Downarrow$$

$$t^2-2t-3=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz: $t_1=-1;\ t_2=3$

$x+\frac{1}{x}=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$x+\frac{1}{x}=-1\ (\cdot x)$		$x+\frac{1}{x}=3\ (\cdot x)$
$x^2+1=-x$		$x^2+1=3x$
$x^2+x+1=0$		$x^2-3x+1=0$
$\varnothing$		$x_1\cdot x_2=1$

Javob: (C)

Izoh: ildizlari ko'paytmasini topishda Viyet teoremasini qo'llang (Diskiriminant musbat bo'lishi lozim).

3481. $(x+\frac{1}{x})^2+2(x+\frac{1}{x})-15=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) Ø B) 1 C) –2 D) –1

3482. $5(x+\frac{1}{x})^2-8(x+\frac{1}{x})-4=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) 1 B) –5 C) –1 D) Ø

3483. $8(x+\frac{1}{x})^2-6(x+\frac{1}{x})+1=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) –8 B) –16 C) Ø D) 16

✓ $x^2+\frac{1}{x^2}-5(x+\frac{1}{x})-4=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) –1 B) 1 C) 3 D) 4

Yechimi: belgilash kiritish lozim.

$$x+\frac{1}{x}=t \Rightarrow \left|\begin{array}{l}(x+\frac{1}{x})^2=t^2\\ x^2+2+\frac{1}{x^2}=t^2\\ x^2+\frac{1}{x^2}=t^2-2\end{array}\right.$$

$$\underbrace{x^2+\frac{1}{x^2}}_{t^2-2}-5\cdot\underbrace{(x+\frac{1}{x})}_{t}-4=0$$

$$\Downarrow$$

$$t^2-2-5t-4=0$$

$$t^2-5t-6=0$$

bu kvadrat tenglamani yechamiz: $t_1=-1$; $t_2=6$

$x+\frac{1}{x}=t$ bo'lgani uchun t ning o'rniga qo'yamiz:

$$\left|\begin{array}{l}x+\frac{1}{x}=-1\ (\cdot x)\\ x^2+1=-x\\ x^2+x+1=0\\ \varnothing\end{array}\right| \quad \left|\begin{array}{l}x+\frac{1}{x}=6\ (\cdot x)\\ x^2+1=6x\\ x^2-6x+1=0\\ x_1\cdot x_2=1\end{array}\right.$$

Javob: (B)

Izoh: Ildizlari ko'paytmasini topishda Viyet teoremasini qo'llang (Diskiriminant musbat bo'lishi lozim).

3484. $x^2+\frac{1}{x^2}+3(x+\frac{1}{x})+2=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) Ø B) 2 C) 1 D) –1

3485. $2(x^2+\frac{1}{x^2})-3(x+\frac{1}{x})-5=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) Ø B) –5 C) –1 D) 1

3486. $12(x^2+\frac{1}{x^2})-7(x+\frac{1}{x})+27=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) –8 B) –16 C) 1 D) Ø

✓ $\frac{x^2+1}{x}+\frac{x}{x^2+1}=2,5$ tenglamaning yechimlari quyidagi oraliqlarning qaysi birida joylashgan?
A) $[-1;8)$ B) $[2;7)$ C) $(-\infty;-1)$ D) $[3;8)$

Yechimi: belgilash kiritish lozim.

$$\frac{x^2+1}{x}=t \Rightarrow \left|\frac{x}{x^2+1}=\frac{1}{t}\right. \qquad \underset{t}{\frac{x^2+1}{x}}+\underset{\frac{1}{t}}{\frac{x}{x^2+1}}=2,5$$

$$\Downarrow$$

$$t+\frac{1}{t}=2,5$$

$$\Downarrow$$

$$t^2-2,5t+1=0$$

A) 7 B) 5 C) $-\infty$ D) ∞

5670. $S=\{\varnothing\}$ dan $n(S)=?$.

A) 2 B) 1 C) ∞ D) 0

5671. $A=\{x\le10 : x\in N\}$ dan $n(A)=?$.

A) 10 B) 9 C) ∞ D) 0

5672. $A=\{x>10 : x\in N\}$ dan $n(A)=?$.

A) 10 B) 9 C) ∞ D) 0

5673. $A=\{x\ge10 : x\in N\}$ dan $n(A)=?$.

A) 10 B) 9 C) ∞ D) 0

5674. 17 dan kichik bo'lgan barcha natural sonlar to'plamini sonini toping.

A) ∞ B) 17 C) 0 D) 16

5675. 17 dan kichik bo'lmagan barcha natural sonlar to'plamini sonini toping.

A) ∞ B) 17 C) 0 D) 16

5676. 23 dan kichik bo'lgan barcha natural sonlar to'plamini sonini toping.

A) ∞ B) 23 C) 0 D) 22

5677. 23 dan kichik bo'lmagan barcha natural sonlar to'plamini sonini toping.
A) ∞ B) 17 C) 0 D) 16

5678. A={6,11} , B={11, 6},C= {11, 6, 6,11} dan *n(A); n(B); n(C)* larni taqqoslang.
A) $n(A)<n(B)<n(C)$ B) $n(A)>n(B)>n(C)$
C) $n(A)=n(B)=n(C)$ D) $n(A)=n(B)<n(C)$

5679. $M=\{2;3;5;7;8;9\}$ va $N=\{3;4;6;9;10\}$ to'plamlar uchun quyidagi tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?
1) $3\in M$ 2) $7\notin M$ 3) $2\in M$ 4) $10\notin M$
5) $3\in N$ 6) $6\notin N$ 7) $8\in N$ 8) $4\notin M$
A) 1; 3; 4; 5; 8 B) 1; 2; 4; 5; 8
C) 1; 3; 4; 5; 6 D) barchasi

✓ $A=\{a;b\}$ ni nechta qism to'plami bor?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2

Yechimi:
Agar *A* to'plamning hamma elementlari *B* to'plamga tegishli bo'lsa, *A* to'plam *B* to'plamning *qism to'plami* deyiladi. va $A\subseteq B$ kabi yoziladi.
Bunday holatda "*A to'plam B dayotadi*" yoki "*A to 'plam B ning qismi*" ham deb yuritiladi.
Masalan: A={2, 3, 5} ; B= {1, 2, 3, 4, 5, 6}, $A\subseteq B$ chunki birinchi to'plamning hamma elementlari ikkinchi to'plamning ham elementlari bo'ladi.
C={3, 8,6; to'plam D={1,2,3,4,5,6} to'plamning qism to'plami emas $A\not\subset B$

$\{a\}$ to'plam Z va $\{a\}$, ya'ni 2 ta qism to'plami bor.
$\{a;b\}$ to'plam esa 4 ta : $\varnothing$, $\{a\}$, $\{b\}$,$\{a;b\}$ qism to'plamlarga ega.
QISM TO'PLAMLAR SONINI TOPISH FORMULASI
$\{a;b\}\Rightarrow 2^2=$ $\Rightarrow 2^3=$
$\{a;b;c;n\}\Rightarrow 2^4=$ $\{a;b;\ldots;m\}\Rightarrow 2^n=$

5680. "B: A={1,2, 3,4, 5, 6} to'plamning qism to'pl
A) $A\subseteq B$ B) $B\subseteq A$
C) $A\not\subset B$ D) $A\subset B$

5681. "C D={1; 2; 3; 4; 5; 6} to'plamning emas" ni toping.
A) $A\not\subset B$ B) $C\subseteq D$
C) $C\not\subset D$ D) $D\not\subset C$

5682. "S= E={a,b, c,d, e, n, m} to'plamning qism ni toping
A) $S\subseteq E$ B) $E\subseteq S$
C) $S\not\subset E$ D) $S\subset E$

5683. "N= M={ a, c,d, e, n, m } to'plamning emas" ni toping.
A) $A\not\subset B$ B) $M\subseteq N$
C) $M\not\subset M$ D) $N\not\subset M$

5684. $M=$ to'plamlar uchun qaysi tasdiq to'g'ri"
A) $M\subseteq N$ B) $N\subseteq M$
C) $B\not\subset E$ D) $N\not\subset M$

5685. $D=\{-2;-1;0;1\}$, $B=\{-3;-2;0;1\}$ va $E=\{-4;-3;-2;-1;0;1\}$ to'plamlar uchun qaysi tasdiq to'g'ri?
A) $E\subseteq D$ B) $D\subseteq B$
C) $B\not\subset E$ D) $D\not\subset B$

5686. $C=\{1;2;3\}$ ning qism to'plamlari nechta?
A) 8 B) 16 C) 32 D) 4

5687. $A=\{-1;2;33;24\}$ ning qism to'plamlari nechta?
A) 8 B) 16 C) 32 D) 4

5688. 5 ta elementli to'plamning qism to'plamlari nechta?
A) 8 B) 16 C) 32 D) 4

5689. $A=\{ingliz\ tili\ harflari\}$ $C=\{unli\ harflar\}$ to'plamlar uchun qaysi tasdiq to'g'ri?
A) $M\subseteq N$ B) $C\subseteq A$
C) $C\not\subset A$ D) $A\subseteq C$

5690. $B=\{Butun\ sonlar\}$ $E=\{manfiy\ sonlar\}$ to'plamlar uchun qaysi tasdiq to'g'ri?
A) $A\subseteq B$ B) $B\subseteq E$
C) $E\not\subset B$ D) $E\subseteq B$

✓ $A=\{x|-2\le x<4, x\in Z\}$ *n(A)* ni toping?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2

Yechimi:
Bizga ma'lumki *N,Z,Q,R* kabi sonlar to'plami bor.
1. **Natural sonlar to'plami** - *N*: $N=\{1, 2, 3, \ldots\}$.
2.**Butun sonlar to'plami** - *Z*
$Z=\{\ldots, -3,-2,-1, 0, 1, 2, 3, \ldots\}$.
3.**Ratsional sonlar to'plami** - *Q*
$Q=\left\{\frac{p}{q};\ p, q\in Z,\ q\neq 0\right\}$.
4. **Irratsional sonlar to'plami** - *I*. Cheksiz davriy bo'lmagan o'nli kasr ko'rinishidagi sonlarga irratsional sonlar deyiladi. **Masalan:**
$\pm 0{,}01001000100001\ldots$; $\pm 0{,}51511511311111\ldots$; π, e, $\sqrt{2}$, $\sqrt{3}$,....
5. **Haqiqiy sonlar to'plami** - *R*: $R=Q\cup I$.
Berilgan $-2\le x<4$ ni sonlar o'qida tasavur qilamiz.



$A=\{-2;-1;0;1;2;3\}$ $n(A)=6$
Agar $A=\{x|-2\le x<4, x\in N\}$ bo'lganda :
$A=\{1;2;3\}$ $n(A)=3$
Agar $A=\{x|-2\le x<4, x\in Z\}$ bo'lganda :
$A=\{-2;-1;0;1;2;3\}$ $n(A)=6$
Agar $A=\{x|-2\le x<4, x\in Q\}$ bo'lganda :
$A=\{-2;-1,9;-1,8\ldots0..1;1,1;\ldots3,9\ldots.\}$ $n(A)=\infty$

5691. $A=\{x|3<x\le 10, x\in Z\}$ to'plamning elementlarini to'liq yozilgan javobni toping?

A) $\{4;5;6;7;8;9\}$ B) $\{4;5;6;7;8;9;10\}$

C) $\{5;6;7;8;9;10\}$ D) $\{4;5;6;7;9;10\}$

5692. $A=\{x|-2<x\le 8, x\in N\}$ to'plamning elementlarini to'liq yozilgan javobni toping?

A) $\{1;2;3;4;6;7;8\}$ B) $\{0;1;2;3;4;5;6;7;8\}$

C) $\{1;2;3;4;5;6;7;8\}$ D) $\{1;2;3;4;5;6;7\}$

5693. $A=\{x|-2<x\le 8, x\in Z\}$ to'plamning elementlarini to'liq yozilgan javobni toping?

A) $\{-1;0;1;2;3;4;6;7;8\}$ B) $\{0;1;2;3;4;5;6;7;8\}$

C) $\{-1;1;2;3;4;5;6;7\}$ D) $\{-1;0;1;2;3;4;5;6;7;8\}$

5694. $A=\{x|-3\le x\le 1, x\in Z\}$ to'plamning elementlarini to'liq yozilgan javobni toping?

A) $\{-3;-2;-1;0\}$ B) $\{-3;-2;-1;0;1\}$

C) $\{-2;-1;0;1\}$ D) $\{-3;-2;0;1\}$

5695. Quyidagi to'plamlarning qaysi biri chekli?

A) $A=\{x|-2\le x\le 1, x\in Z\}$ B) $A=\{x|-2\le x\le 1, x\in R\}$

C) $A=\{x|x\ge 5, x\in Z\}$ D) $A=\{x|0\le x\le 1, x\in Q\}$

5696. Quyidagi to'plamlarning qaysi biri cheksiz?

A) $A=\{x|-2\le x\le 1, x\in Z\}$ B) $A=\{x|-2\le x\le 1, x\in N\}$

C) $A=\{x|0<x\le 5, x\in Z\}$ D) $A=\{x|0\le x\le 1, x\in Q\}$

5697. Quyidagi to'plamlarning qaysi biri chekli?

A) $A=\{x|8\le x\le 9, x\in Q\}$ B) $A=\{x|0\le x\le 9, x\in R\}$

C) $A=\{x|x\ge 5, x\in Z\}$ D) $A=\{x|0\le x\le 1, x\in N\}$

5698. Quyidagi to'plamlarning qaysi biri cheksiz?

A) $A=\{x|-2<x\le 1, x\in Z\}$ B) $A=\{x|-1\le x\le 7, x\in R\}$

C) $A=\{x|5<x\le 6, x\in Z\}$ D) $A=\{x|0\le x\le 1, x\in N\}$

5699. "-100 dan katta hamda 100 dan kichik bo'lgan barcha butun sonlar to'plami" qaysi javobda o'z ifodasini topgan?

A) $A=\{x|-100<x\le 100, x\in N\}$

B) $A=\{x|-100\le x\le 100, x\in Z\}$

C) $A=\{x|-100\le x\le 100, x\in Q\}$

D) $A=\{x|-100\le x\le 100, x\in R\}$

5700. "1000 dan katta bo'lgan barcha haqiqiy sonlar to'plami" qaysi javobda o'z ifodasini topgan?

A) $A=\{x|x\le 1000, x\in Q\}$

B) $A=\{x|x\ge 1000, x\in R\}$

C) $A=\{x|x\le 1000, x\in R\}$

D) $A=\{x|x\ge 1000, x\in Z\}$

5701. "2 dan katta yoki teng hamda 3 dan kichik yoki teng bo'lgan barcha ratsional sonlar to'plami" qaysi javobda o'z ifodasini topgan?

A) $A=\{x|2<x<3, x\in Q\}$ B) $A=\{x|2<x<3, x\in R\}$

C) $A=\{x|2\le x\le 3, x\in Q\}$ D) $A=\{x|2\le x<3, x\in Q\}$

5702. $M=\{x|2\le x\le 3, x\in R\}$ $N=\{x|x\in R\}$ to'plamlar uchun qaysi tasdiq to'g'ri?

A) $N\subseteq M$ B) $M\subseteq N$

C) $B\not\subset E$ D) $N\not\subset M$

5703. $D=\{x|3\le x\le 9, x\in Q\}$, $B=\{x|0\le x\le 10, x\in R\}$ va to'plamlar uchun qaysi tasdiq to'g'ri?

A) $E\subseteq D$ B) $D\subseteq B$

C) $B\not\subset E$ D) $D\not\subset B$

5704. $C=\{x|0\le x\le 5, x\in Z\}$ ning qism to'plamlari nechta?

A) 64 B) 16 C) 32 D) 4

5705. $S=\{x|-2\le x\le 2, x\in N\}$ ning qism to'plamlari nechta?

A) 64 B) 16 C) 32 D) 4

5706. $\{x|\,x\in N,\ -6\le x\le 5\}$ ning qism to'plamlari nechta?

A) 64 B) 16 C) 32 D) 4

5707. $\{x|\,x\in N,\ x^2<21\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) 64 B) 16 C) 32 D) 4

5708. $\{x|\,x\in N,\ x^2<26\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) 64 B) 16 C) 32 D) 4

5709. $\{x|\,x\in N,\ 2\le x^2\le 43\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) 64 B) 16 C) 32 D) 4

✓ $A=\{x|-3\le x\le 1, x\in Z\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism-to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 5 B) 32 C) 16 D) 8

Yechimi:

Berilgan $-3\le x\le 1$ ni sonlar o'qida tasavur qilamiz.



Agar $A=\{x|-3\le x\le 1, x\in Z\}$ bo'lganda :

$A=\{-3;-2;-1;0;1\}\ \Rightarrow 2^4=16ta$

KESISHMAYDIGAN QISM TO'PLAMLAR SONINI TOPISH FORMULASI

$\{a;b\}\Rightarrow 2^1 ta$ $\{a;b;c\}\Rightarrow 2^2 ta$

$\{a;b;c;n\}\Rightarrow 2^3 ta$ $\underbrace{\{a;b....m\}}_{n}\Rightarrow 2^{n-1} ta$

5710. $\{x \mid x \in N,\ -2 < x \le 5\}$ to'plamni **nechta** usul bilan ikkita **kesishmaydigan** qism-to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 8 B) 16 C) 32 D) 4

5711. $\{x \mid x \in N,\ -3 < x \le 5\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism-to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 8 B) 16 C) 32 D) 4

5712. $\{x \mid x \in N,\ -4 \le x < 5\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism-to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 8 B) 16 C) 32 D) 4

✓ $A=\{2;3;5;7;8;9\}$ va $B=\{3;4;6;9;10\}$ to'plamlar uchun $n(A \cap B)$ ni toping.

A) 5 B) 4 C) 3 D) 2

Yechimi:

A, B to'plamlarning **birlashmasi deb** bu to'plamlardan kamida bittasining elementi bo'lgan elementlardan tashkil topgan to'plamga aytiladi.

A, B to'plamlarning birlashmasi $A \cup B$ kabi belgilanadi.

Masalan: P ={1; 3; 4} va Q ={2; 3; 5} uchun $P \cup Q = \{1,2,3,4,5\}$ *(ikkalasida "3" qatnashgani uchun 1 tasi olingan)*

A, B to'plamlarning **kesishmasi deb** bu to'plamlarning umumiy elementlaridan tashkil topgan to'plamga aytiladi.

A, B to'plamlarning kesishmasi $A \cap B$ kabi belgilanadi.

Masalan, P={ 1; 3; 4} va Q={2; 3; 5} uchun $P \cap Q = \{3\}$

$A=\{2;3;5;7;8;9\}$ va $B=\{3;4;6;9;10\}$ to'plamlar uchun $A \cap B = \{3;9\}$ $n(A \cap B) = 2$

5713. $A=\{6,7,9,11,12\}$ $B=\{5;8;10;13;9\}$ to'plamlar uchun $A \cap B$ ni toping.

A) {1} B) {9} C) {6;9} D) {5;9}

5714. $C=\{6,7,9,11,12\}$ $D=\{5;8;10;13;9\}$ to'plamlar uchun $C \cup D$ ni toping.

A) {1;2;3;4;5;6;7;8;9} B) {5;6;7;8;9;10;11;13}

C) {1;2;3;4;5;7;8;9} D) {5;6;7;8;9;10;11;12;13}

5715. $N=\{1,2,3,4\}$ $D=\{5;6;7;8\}$ to'plamlar uchun $N \cup D$ ni toping.

A) {1;2;3;4;5;6;7;8} B) {2;3;4;5;6;7;8;9}

C) {1;2;3;4;5;7;8;9} D) {1;2;3;4;5;6;7;8;9;10}

5716. $N=\{1,2,3,4\}$ $D=\{5;6;7;8\}$ to'plamlar uchun $N \cap D$ ni toping.

A) {0} B) ∅ C) {1} D) {1;3;5;7}

5717. $Q=\{1;2;3;4;5;6;7;8;9\}$ $P=\{1;3;5;7\}$ to'plamlar uchun $P \cap Q$ ni toping.

A) {1;3;5;9} B) {1;2;5;7}

C) {1;3;5;7} D) {1;3;6;7}

5718. $Q=\{1;2;3;4;5;6;7;8;9\}$ $P=\{1;3;5;7\}$ to'plamlar uchun $P \cup Q$ ni toping.

A) {2;3;4;5;6;7;8;9} B) {1;2;3;4;5;6;7;8;9}

C) {1;2;3;4;5;7;8;9} D) {1;2;3;4;5;6;7;8;9;10}

5719. $A=\{6;7;9;11;12\}$ $B=\{1;2;3;4;5;6;7;8;9\}$ to'plamlar uchun $n(A \cap B)$ ni toping.

A) 3 B) 4 C) 2 D) 5

5720. $A=\{6;7;9;11;12\}$ $B=\{1;2;3;4;5;6;7;8;9\}$ to'plamlar uchun $n(A \cup B)$ ni toping.

A) 8 B) 9 C) 11 D) 10

Mulohazalar

✓ Quyidagilardan qaysi biri mulohaza bo'ladi?

1) 20:4=80; 2) 25·8=200;

3) Mening qalamim qayerda?

4) Sening ko'zlaring moviy rangda.

A) 1; 2 B) 1;3 C) 3; 4 D) 2; 4

Yechimi:

Rost yoki *yolg'on* bo'lgan darak gap *mulohaza* deyiladi.

Savol shaklidagi gaplar(so'roq gaplar), shaxsning munosabatini bildiruvchi darak gaplar, masalan, "Yashil rang yoqimlidir" **mulohaza bo'la olmaydi.**

Ayrim mulohazalarning rost-yolg'onligi bir qiymatli aniqlanmaydi.

Masalan, "Bu yozuvchi Toshkentda tavallud topgan" mulohaza tayin bir yozuvchiga nisbatan rost, boshqasiga nisbatan yolg'on bo'lishi mumkin.

1) 20:4=80 – Bu mulohaza bo'ladi, chunki ta'rifda aytilganidek *rost yoki yolg'on ligini aniq* aytolimiz. U yolg'on, chunki 20:4=5 bo'ladi;

2) 25·8=200 bu mulohaza va u rost;

3) "Mening qalamim qayerda?" bu so'roq gap bo'lgani uchun, u mulohaza bo'lmaydi;

4) "Sening ko'zlaring moviy rangda" bu mulohaza, uning rost-yolg'onigi bir qiymatli aniqlanmaydi, chunki ayrim insonlarga nisbatan u yolg'on, ayrimlariga nisbatan esa rost. bu mulohaza bo'lmaydi;

Javob: 1; 2

5721. Quyidagilardan qaysi biri mulohaza bo'ladi?

1) 11 – 5=7; 2) 12 – juft son;

3) 37 - tub son;

4) Sening ukang 13 yoshda.

A) 1; 2 B) 1; 2; 3 C) 3; 4 D) 4

5722. Quyidagilardan qaysi biri mulohaza bo'lmaydi?
1) Sening bo'ying necha santimetr?;
2) Laylo "TESTOLOG SERVIS" da o'qiydi ;
3) Madina yaxshi kuylaydi;
4) Sen Samarqandda tug'ilgansan.
A) hech biri B) 1; 2; 3 C) 3; 4 D) barchasi

5723. Quyidagilardan qaysi biri mulohaza bo'ladi?
1) Senga tarixiy kitoblar yoqadimi?;
2) $\sqrt{15}$ – irratsional son ;
3) 15 -ratsional son ;
4) shanba kuni qor yog'adi.
A) 2; 3 B) 2; 3; 4 C) 1; 4 D) barchasi

5724. Quyidagilardan qaysi biri mulohaza bo'lmaydi?
1) Qarama-qarshi burchaklar o'zaro teng ;
2) To'rtburchak parallelogramm emas;
3) Barcha kvadratlar to'rtburchak;
4) Parallelogramm 4 ta tomonga ega .
A) 3; 4 B) 1; 2; 3 C) 1; 2 D) barchasi

✓ Quyidagi mulohazalardan qaysi biri inkor mulohaza bo'ladi?
1) p : Seshanba kuni yomg'ir yog'di
$\neg$ p : Seshanba kuni yomg'ir yog'madi;
2) q: Madinaning ko'zi moviy
$\neg q$: Madinaning ko'zi moviy emas ;
3) r: $x>1$ $\neg r$: $x<1$
4) s: Men bugun qora choy ichdim;
$\neg s$: Men bugun ko'k choy ichdim;
A) 1; 2 B) 1;3 C) 3; 4 D) 2; 4
Yechimi:

Biz mulohazalarni p, q, r ... harflar bilan belgilaymiz.

Masalan, p: Seshanba kuni yomg'ir yog'di;

q: 20:4=5; r: x – juft son.

p mulohaza uchun "**p emas**" yoki "**p ekani noto'g'ri**" shakldagi mulohaza p ning *inkori* deyiladi va $\neg p$ kabi belgilanadi. Masalan:

1) p : Seshanba kuni yomg'ir yog'di
$\neg p$: Seshanba kuni yomg'ir yog'madi;

2) q: Madinaning ko'zi moviy
$\neg q$: Madinaning ko'zi moviy emas ;
Quyidagilar esa mulohaza inkori emas
3) r: $x>1$; $\neg$r : $x<1$
Agar bu mulohaza qilmoqchi bo'linsa
r: $x>1$; $\neg$r : $x\le 1$ qilish lozim edi.

4) s: Men bugun qora choy ichdim;
$\neg s$: Men bugun ko'k choy ichdim;
Agar buni ham mulohaza qilmoqchi bo'linsa
s: Men bugun qora choy ichdim;
$\neg s$: Men bugun qora choy ichdimadim; qilish lozim edi.

Ravshanki,

p: rost
$\neg p$: yolg'on

p: yolg'on
$\neg p$: rost

mulohaza bo'ladi. Bu ma'lumot *rostlik jadvali* yordamida sharhlanadi. (T va F harflari, mos ravishda, inglizcha "true" (rost), "false" (yolg'on) so'zinning bosh harflaridir.)

inkor amalining rostlik jadvali ⇒

p	$\neg p$
T	F
F	T

⇔

p	$\neg p$
1	0
0	1

Izoh: rost mulohazaga "1", yolg'on mulohazaga "0" qo'yish mumkin.

5725. A mulohaza "16— juft son", B mulohaza "31— tub son". Ushbu mulohazalar asosida to'g'ri javobni toping.
A) A rost va B yolg'on B) A va B yolg'on
C) A va B rost D) A yolg'on va B rost.

5726. A mulohaza "39 — murakkab son", B mulohaza "51 — tub son". Ushbu mulohazalar asosida to'g'ri javobni toping.
A) A rost va B yolg'on B) A va B yolg'on
C) A va B rost D) A yolg'on va B rost.

5727. A mulohaza "$\sqrt{2}$ — irratsional son", B mulohaza "57 — tub son". Ushbu mulohazalar asosida to'g'ri javobni toping.
A) A rost va B yolg'on B) A va B yolg'on
C) A va B rost D) A yolg'on va B rost.

5728. A mulohaza "$\sqrt{25}$ —irratsional son", B mulohaza "11—ratsional son". Ushbu mulohazalar asosida to'g'ri javobni toping.
A) A rost va B yolg'on B) A va B yolg'on
C) A va B rost D) A yolg'on va B rost.

5729. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri inkor mulohaza bo'ladi?
A) p: $x\ge 1$; $\neg$p : $x\le 1$
B) r: Akbar futbol bilan shug'ullanadi;
$\neg r$: Akbar musiqa bilan shug'ullanadi;
C) q: ixtiyoriy ikkita juft sonlar ayirmasi toq bo'ladi;
$\neg q$: ixtiyoriy ikkita juft sonlar ayirmasi toq bo'lmaydi;
D) s: Men bugun qora choy ichdim;
$\neg s$: Men bugun ko'k choy ichdim;

5730. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri inkor mulohaza bo'ladi?
A) p: $x\ge 5$; $\neg$p : $x<5$ B) $r=\{qovunlar;\ tarvuzlar\}$
r: qovun ; $\neg r$: xandalak;
C) q: Madinaning bo'yi 140 sm dan baland ;
$\neg q$: Madinaning bo'yi 140 sm dan past;
D) s: ketma-ket natural sonlar ko'paytmasi doimo juft bo'ladi;
$\neg s$: ketma-ket natural sonlar ko'paytmasi barchasi juft bo'ladi;

5731. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri inkor mulohaza bo'ladi?
A) p: $x\ge 5$; $\neg$p : $x<3$ B) $r=\{qovunlar;\ tarvuzlar\}$
r: qovun ; $\neg r$: tarvuzlar;
C) q: $x>2$; $\neg$q : $x=1$ $(x\in N)$
D) $s=\{o'quvchilar\}$ s: o'quvchi bola;
$\neg s$: ishyoqmas o'quvchi bola;

5732. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri inkor mulohaza bo'ladi?

A) *s:* Men Samarqandda bo'lganman;
$\neg s$: Men hech qachon Samarqandda bo'lmaganman.

B) *s:* ketma-ket natural sonlar ko'paytmasi doimo juft bo'ladi;
$\neg s$: ketma-ket natural sonlar ko'paytmasi doimo toq bo'ladi;

C) $r = \{qo'ylar;\ otlar\}$
r: qo'ylar; $\neg r$: otlar;

D) barchasi

5733. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri inkor mulohaza bo'ladi?

A) $p: x \geq 5;\ \neg p: x < 3$

B) $r = \{qovunlar;\ tarvuzlar\}$
r: qovun ; $\neg r$: xandalak;

C) $q: x \geq 2;\ \neg q: x = 1\ (x \in N)$

D) $s = \{o'quvchilar\}$ *s:* o'quvchi bola;
$\neg s$: ishyoqmas o'quvchi bola;

5734. Quyidagi jadvallardan qaysi biri inkor amalining rostlik jadvali bo'ladi?

A)

s	$\neg s$
F	F
F	T

B)

s	$\neg s$
T	F
F	T

C)

s	$\neg s$
T	F
T	T

D)

s	$\neg s$
T	F
F	F

5735. Quyidagi jadvallardan qaysi biri inkor amalining rostlik jadvali bo'ladi?

A)

r	$\neg r$
1	1
0	1

B)

r	$\neg r$
1	0
0	0

C)

r	$\neg r$
1	0
0	1

D)

r	$\neg r$
0	0
0	1

✓ "*q*: 13 - tub son, *p*: 13 - toq son" bo'lsa, $p \wedge q$ mulohazaning **rost yoki** yolg'on ekanligini aniqlang.

A) rost
B) yolg'on
C) rost ham, **yolg'on ham emas.**
D) soda mulohazalardan **bazilarini** qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

Yechimi:

Agar ikki mulohaza "va" so'zi bilan bog'lansa, hosil bo'lgan yangi mulohaza berilgan mulohazalar konyunksiyasi **deyiladi** (**"va"**, *"hamda", "ammo")*

p, q mulohazalarning **konyunksiyasi** $p \wedge q$ kabi belgilanadi. **Masalan,**

***p*: Elder tushlikda palov yedi:**
***q*: Eldor tushlikda somsa yedi.**

Mulohazalarning **konyunksiyasi** quyidagicha bo'ladi:
$p \wedge q$ **: Eldor tushlikda palov va somsa yedi.**

Ko'rinib turibdiki, $p \wedge q$ **mulohaza** *Eldor tushlikda ham palov, ham somsa yegan***da, ya'ni** *p, q* mulohazalarning ikkalasi ham rost **bo'lgandagina** rost bo'ladi. Agar *p, q* mulohazalarning birortasi yolg'on bo'lsa, u holda $p \wedge q$ mulohaza rost **bo'lmaydi.**

p, q mulohazalarning konyunksiyasi quyidagi rostlik jadvaliga ega:

p	*q*	$p \wedge q$
T	T	T
T	F	F
F	T	F
F	F	F

p	*q*	$p \wedge q$
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	0

$\underbrace{q: 13 - \text{tub son}}$, $\underbrace{p: 13 - \text{toq son}}$ bo'lsa,

$p \wedge q$
$1 \wedge 1 = 1$

Javob: **rost**

Izoh: *konyuksiyani = ko'paytirish* deyilsa ham bo'ladi $p \wedge q$ ni jadvalini yodlash imkoni beradi. Ya'ni

$1 \cdot 1 = 1$
$1 \cdot 0 = 0$
$0 \cdot 1 = 0$
$0 \cdot 0 = 0$

5736. *p* mulohaza "Madina - terapevt", *q* mulohaza "Munisa - stomatolog". *p, q* mulohazalarning konyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.

A) Madina – terapevt va stomatolog
B) Munisa – stomatolog va terapevt
C) Madina va Munisa doktor
D) Madina va Munisa jarroh.

5737. *s* mulohaza "*x* son 15 dan katta", *r* mulohaza "*x* son 30 dan kichik". *s, r* mulohazalarning konyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.

A) *x* son 30 dan katta va 15 dan kichik
B) *x* son 15 dan katta va 30 dan kichik
C) *x* son musbat
D) *x* son manfiy .

5738. *q* mulohaza "havo bulutli", *r* mulohaza "yomg'ir yog'moqda". *q, r* mulohazalarning konyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.

A) havo bulutli va yomg'ir yog'ada
B) bulutli va yomg'ir yog'moqda
C) havo bulutli va yomg'ir yog'ganda
D) havo bulutli va yomg'ir yog'moqda.

5739. *s* mulohaza "Olimning sochlari qora ", *r* mulohaza "Olimning ko'zlari moviy ". *s, r* mulohazalarning konyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.

A) sochlari qora va ko'zlari moviy
B) Olimning sochlari qora va ko'zlari moviy
C) Olimning sochlari qora *va* moviy
D) Olimning ko'zlari moviy va qora

5740. *s* mulohaza "$x > 7$", *r* mulohaza "$x < 26$". *s, r* mulohazalarning konyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.

A) $7 < x < 26$ B) $6 < x < 20$
C) $7 < x \leq 26$ D) $x < 7 < 26$

5741. "q: $39 < 27$, p: $16 > 23$" bo'lsa, $p \wedge q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5742. "r: $6+9=15$, p: $5+8=12$" bo'lsa, $r \wedge q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5743. "q: 12 soni 3 ga bo'linadi, p: 12 soni 4 ga bo'linadi" bo'lsa, $p \wedge q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5744. "s: kvadrat to'rtta tomonga ega, p: uchburchak beshta tomonga ega" bo'lsa, $s \wedge q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5745. Quyidagi jadvallardan qaysi biri konyunksiya amalining rostlik jadvali bo'ladi?

A)

p	q	$p \wedge q$
T	T	T
F	T	F
F	T	F
F	F	F

B)

p	q	$p \wedge q$
T	F	T
T	F	F
F	T	F
F	F	F

C)

p	q	$p \wedge q$
T	T	T
T	F	F
F	T	F
F	F	F

D)

p	q	$p \wedge q$
T	T	T
T	F	T
F	T	F
F	F	F

5746. Quyidagi jadvallardan qaysi biri konyunksiya amalining rostlik jadvali bo'ladi?

A)

p	q	$p \wedge q$
1	1	0
1	0	1
0	1	0
0	0	0

B)

p	q	$p \wedge q$
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	0

C)

p	q	$p \wedge q$
1	1	1
0	0	0
0	1	0
0	0	0

D)

p	q	$p \wedge q$
1	1	1
1	0	1
0	1	0
0	0	0

✓ " p: $-8>-5$, q: $-5<0$." bo'lsa, $p \vee q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

Yechimi:

Agar ikki mulohaza "*yoki*" so'zi bilan bog'lansa, hosil bo'lgan yangi mulohaza berilgan mulohazalarning dizyunksiyasi deyiladi.

p, q mulohazalarning dizyunksiyasi $p \vee q$ kabi belgilanadi. Masalan,

p: Eldar bugun kutubxonaga bordi;
q: Eldor bugun teatrga bordi.

Mulohazalaming dizyunksiyasi quyidagicha ifodalanadi:
$p \vee q$: **Eldor bugun yoki kutubxonaga yoki teatrga bordi.**

Ko'rinib turibdiki. $p \vee q$ mulohaza *Eldor bugun kutubxona yoki teatrdan* biriga yoki ikkalasiga **borganda rost** bo'ladi.

p, q mulohazalarning dizyunksiyasi quyidagi rostlik jadvaliga ega:

p	q	$p \vee q$
T	T	T
T	F	T
F	T	T
F	F	F

p	q	$p \vee q$
1	1	1
1	0	1
0	1	1
0	0	0

Agar p, q mulohazalaming ikkalasi yolg'on bo'lsa, u holda $p \vee q$ mulohaza rost bo'lmaydi.

$\underbrace{p: -8>-5}_{0}$ $\underbrace{q: -5<0}_{1}$ bo'lsa,

$p \vee q$ *Javob:* **rost**

$0 \vee 1 = 1$

Izoh: *dizyunksiya* = *qo'shish* deyilsa ham bo'ladi $p \vee q$ ni jadvalini yodlash imkoni beradi. Ya'ni

$1+1=1$
$1+0=1$
$0+1=1$
$0+0=0$

5747. p mulohaza "Sardor ertaga suzishga boradi ", q mulohaza "Sardor ertaga futbolga boradi ". p, q mulohazalarning dizyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.
A) Sardor ertaga suzishga bormaydi
B) Sardor ertaga suzishga va futbolga boradi
C) Sardor ertaga yoki suzishga, yoki futbolga boradi
D) Sardor ertaga suzishga boradi, ammo futbolga bormaydi.

5748. r mulohaza "Sardor olmani yaxshi ko'radi ", q mulohaza "Sardor uzumni yaxshi ko'radi ". r, q mulohazalarning dizyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.
A) Sardor olmani yaxshi ko'rmaydi
B) Sardor olmani va uzumni yaxshi ko'radi.
C) Sardor olmani yaxshi ko'radi, ammo uzumni yomon ko'radi.
D) Sardor olmani yoki uzumni yaxshi ko'radi.

5749. Dizyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.
A) *s:* Salim uyda *p:* Salim uyda emas
B) Akmal va Sunnat ikkalasi o'qituvchi.
C) Ra'no yoki metroda yoki avtobusda keladi.
D) Bobir kuchli, ammo A'lo undan kuchliroq.

5750. Dizyunksiyasini to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.
A) *s:* Salim uyda *p:* Salim uyda emas
B) Akmal va Sunnat ikkalasi o'qituvchi.
C) Mablag' osonlikcha topilmaydi.
D) Bobir yoki Akmal sportning bu turini tanladi.

5751. "*q*: 24 soni 4 ga bo'linadi, *p*: 24 soni 6 ga bo'linadi" bo'lsa, $p \vee q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5752. "$s: (a-b)^3=(a-b)\left(a^2+ab+b^2\right)$,
$p: a^3+b^3=a^3+3a^2b+3ab^2+a^3$" bo'lsa, $s \vee q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5753. "*r*: 5 va 9 sonlarining o'rta arifmetigi 7 ga teng, 8 va 14 sonlarining o'rta arifmetigi 10 ga teng" bo'lsa, $r \vee q$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5754. Quyidagi jadvallardan qaysi biri dizyunksiya amalining rostlik jadvali bo'ladi?
A)

p	q	$p \vee q$
T	F	T
T	F	T
F	T	T
F	F	F

B)

p	q	$p \vee q$
T	F	T
T	F	T
F	T	T
F	F	F

C)

p	q	$p \vee q$
T	T	T
T	F	T
F	T	T
F	F	F

D)

p	q	$p \vee q$
T	F	T
T	F	F
F	T	T
F	F	F

5755. Quyidagi jadvallardan qaysi biri dizyunksiya amalining rostlik jadvali bo'ladi?
A)

p	q	$p \vee q$
1	1	0
1	0	1
0	1	0
0	0	0

B)

p	q	$p \vee q$
1	1	1
1	0	1
0	1	1
0	0	0

C)

p	q	$p \vee q$
1	1	1
1	0	1
0	1	0
0	0	0

D)

p	q	$p \vee q$
1	1	1
0	0	0
0	1	1
0	0	0

✓ "*s*: 2, 3, 5 sonlari tub sonlar, *r*: Har qanday son musbat" bo'lsa, $s \vee \neg r$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost
B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.
Yechimi:
Amalar bajarish tartibi: $\neg; \wedge; \vee$
Ya'ni 1-inkor, 2-konyuksiya, 3-dizyunksiya
s: 2, 3, 5 sonlari tub sonlar–1 (rost)
r: Har qanday son musbat – 0 (yolg'on)

$s \vee \neg r$

$1 \vee \neg 0$

$1 \vee 1 = 1$

Javob: ***rost (true)***

5756. "*s*: 5 soni 25 va 70 sonlarining eng katta umumiy bo'luvchisi, *r*: 0 soni musbat" bo'lsa, $s \wedge \neg r$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5757. "*p*: Barcha tub sonlar toq, *r*: Shunday tub son mavjud-ki, u juft" bo'lsa, $\neg p \vee r$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5758. "*p*: Irrasional sonlar mavjud, *r*: Barcha sonlar rasional" bo'lsa, $\neg p \wedge r$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5759. "*s*: 5 soni 25 va 70 sonlarining eng katta umumiy bo'luvchisi, *r*: 0 soni musbat" bo'lsa, $s \wedge \neg r$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5760. "*q*: Agar 12 soni 6 ga bo'linsa, u holda 12 soni 3 ga bo'linadi, *s*: Agar 12 soni 6 ga bo'linsa, u holda 12

soni 2 ga bo'linadi " bo'lsa, $\neg(q \vee s)$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5761. " q : Agar 15 soni 3 ga bo'linsa, u holda 15 soni 6 ga bo'linadi, s : Agar 15 soni 3 ga bo'linsa, u holda 15 soni 5 ga bo'linadi " bo'lsa, $\neg(q \wedge s)$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5762. " q : Siz qaysi oliygohda o'qiysiz ? , s : 2<0 " bo'lsa, $\neg(q \wedge s)$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5763. A mulohaza "true", B mulohaza "false" $\neg A \vee \neg B$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5764. A mulohaza "true", B mulohaza "false" $\neg A \wedge \neg B$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5765. A mulohaza "rost", B mulohaza "yolg'on" $A \wedge A$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5766. A mulohaza "rost", B mulohaza "yolg'on" $B \vee B$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5767. A mulohaza "yolg'on" , B mulohaza "rost" $(A \vee B) \vee \neg B$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5768. A mulohaza "rost", B mulohaza "yolg'on" $(A \vee B) \wedge \neg A$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5769. A mulohaza "rost", B mulohaza "yolg'on" $(A \wedge B) \wedge \neg A$ mulohazaning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

Mantiqiy bog'lovchilar (inkor, konyunksiya, dizyunksiya) **ustida rostlik jadvallari**

✓ $s \vee \neg r$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost
Yechimi:
1-qodam:
Birinchi va ikkinchi ustunlar s va r larning mumkin bo'lgan rostlik qiymatlaridan tashkil topgan jadvalni yozamiz.

s	r	$\neg r$	$s \vee \neg r$
1	1		
1	0		
0	1		
0	0		

2-qodam:
Uchinchi ustundagi r ning rostlik qiymatlariga qarab $\neg r$ ning rostlik qiymatlarini yozamiz:

s	r	$\neg r$	$s \vee \neg r$
1	1	**0**	
1	0	**1**	
0	1	**0**	
0	0	**1**	

3-qodam:
To'rtinchi ustundagi s va $\neg r$ ning rostlik qiymatlariga qarab $s \vee \neg r$ ning rostlik qiymatlarini yozamiz:

s	r	$\neg r$	$s \vee \neg r$
1	1	**0**	**1**
1	0	**1**	**1**
0	1	**0**	**0**
0	0	**1**	**1**

*Javob: **3 ta rost 1 ta yolg'on***

5770. $s \wedge \neg r$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5771. $\neg p \vee r$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5772. $\neg p \wedge r$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5773. $\neg(q \vee s)$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5774. $\neg(q \wedge s)$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5775. $\neg p \vee \neg s$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5776. $\neg p \wedge \neg s$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5777. $p \vee p$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 2 ta yolg'on, 2 ta rost
D) 1 ta yolg'on, 1 ta rost

5778. $p \wedge p$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 1 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5779. $(p \vee r) \vee \neg p$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 2 ta yolg'on, 2 ta rost

5780. $(s \vee r) \wedge \neg s$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 4 ta yolg'on

5781. $(s \wedge q) \wedge \neg s$ mulohazaning rostlik jadvalida aniqlangan javobni toping.
A) 4 ta rost
B) 3 ta yolg'on, 1 ta rost
C) 1 ta yolg'on, 3 ta rost
D) 4 ta yolg'on

Aralash bo'lim

5782. Konyunksiyani to'g'ri yozilgan javobni aniqlang.
A) *s:* Salim uyda *p:* Salim uyda emas
B) Akmal yoki Sunnat sportning bu turi bilan shug'ullanadi.
C) Ra'no yoki metroda yoki avtobusda keladi.
D) Bobir kuchli, ammo Akmal undan kuchliroq.

5783. A mulohaza "true", B mulohaza "false" bo'lsa, ularning dizyunksiyasini aniqlang.
A) true B) false
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

5784. A mulohaza "false", B mulohaza "false" bo'lsa, ularning konyunksiya aniqlang.
A) rost B) yolg'on
C) rost ham, yolg'on ham emas.
D) soda mulohazalardan bazilarini qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

Ketma-ketlik, qonuniyat, mantiq, algoritm.

✓ Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

11 16 21 26 ?

A) 29 B) 31 C) 30 D) 45

Yechimi:
Bu yerda bir xil "5" son qo'shilib ketayapti



Izoh: har doim ham "+"(qo'shish) bo'lmaydi

63 55 47 39 ?

Yechimi:



6 18 42 126 ?.

Yechimi:



400 200 100 50 ?

Yechimi:



5785. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

10 13 16 19 ?

A) 21 B) 22 C) 23 D) 24

5786. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

7 14 21 28 ?

A) 33 B) 34 C) 32 D) 35

5787. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

13 26 39 52 ?

A) 69 B) 62 C) 65 D) 64

5788. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

50 46 42 38 ?

A) 30 B) 32 C) 34 D) 36

5789. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

3 6 12 24 48 ?

A) 70 B) 72 C) 94 D) 96

5790. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

80 40 20 10 ?

A) 2 B) 1 C) 3 D) 5

5791. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

4 8 16 32 ?

A) 64 B) 48 C) 24 D) 68

5792. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

50 47,75 45,5 43,25 ?

A) 36 B) 41 C) 32 D) 54

5793. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

2 –3 –8 –13 ? –23

A) –18 B) –21 C) –24 D) 18

5794. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

2 4 16 256 ?

A) 65536 B) 2056- C) 1024 D) 512

✓ Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

8 24 12 36 18 ?

A) 29 B) 31 C) 54 D) 45

Yechimi:

Bu yerda 2 xil (* va :) amallar bor:



5795. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

30 20 27 17 24 ?

A) 34 B) 17 C) 14 D) 31

5796. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

20 29 23 32 26 ?

A) 20 B) 29 C) 33 D) 35

5797. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

3 9 6 18 15 45 ?

A) 42 B) 21 C) 3 D) 135

5798. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

(1; 14) (3; 12) (5; 10) (7; 8) ?

A) (8; 7) B) (9; 6) C) (10; 5) D) (14; 1)

5799. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

–2 2 5 –5 -2 ?

A) 2 B) 4 C) 3 D) 5

5800. Berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi son "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos kelishini aniqlang.

2 4 12 48 240 ?

A) 1440 B) 1680 C) 24 D) 5820

5801. Berilgan qonuniyat bo'yicha "?"(so'roq belgisi) ning o'rniga mos shaklni aniqlang.



1 2 3 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5802. Berilgan qonuniyat bo'yicha "?" (so'roq belgisi)ning o'rniga mos shaklni aniqlang.



1 2 3 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5803. Berilgan qonuniyat bo'yicha "?"(so'roq belgisi) ning o'rniga mos shaklni aniqlang.



1 2 3 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5804. Berilgan qonuniyat bo'yicha "?"(so'roq belgisi) ning o'rniga mos shaklni aniqlang.



1 2 3 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5805. Berilgan qonuniyat bo'yicha "?"(so'roq belgisi) ning o'rniga mos shaklni aniqlang.



1 2 3 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5806. Berilgan qonuniyat bo'yicha "?"(so'roq belgisi) ning o'rniga mos shaklni aniqlang.



1 2 3 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5807. Berilgan qonuniyat bo'yicha "?"(so'roq belgisi) ning o'rniga mos shaklni aniqlang.



1 2 3 4

A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

Ma'lumotlar tahlili

✓ *Tenis o'yini* musobaqasida 11-sinfning 9 nafar o'quvchisi, mos ravishda, 15; 12; 14; 15; 12; 15; 14; 12; 11 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning absolut chastotasini aniqlang .

1) 3 ; 3; 3; 2) 4; 4; 1 3) 3; 2; 3; 1 4) 3;1; 1 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

Yechimi:

Berilgan sonlar qatorida biror-bir sonning *necha marta takroran uchrashini* ko'rsatuvchi son o'sha sonning **absolut chastotasi** deyiladi.

Ochkolar soni	Ochkolarning absolut chastotasi
15	3
14	2
12	3
11	1

Demak, **absolut chastotasi :** 3; 2; 3; 1 (yoki 1; 3; 2; 3)

5808. Shaxmat o'yini musobaqasida 6-sinfning 8 nafar o'quvchisi, mos ravishda, 13; 13; 12; 13; 10; 13; 12; 10 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning absolut chastotasini aniqlang .

1) 3 ; 3; 1; 2) 4; 2; 2 3) 3; 2; 3; 4) 3;1; 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5809. O'quvchining matematika darsidan olgan baholari: 5, 5, 5, 4, 3, 4, 5, 4, 5, 5. o'quvchilarning matematikadan olgan baholarining absolut chastotalarini quyidagi qaysi ko'rinishida yozamiz.

1) 3 ; 3; 4; 2) 6; 2; 2 3) 6; 3; 1; 4) 6;3; 2

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5810. Mart oyining birinchi haftasidagi havoning o'rtacha sutkalik temperaturasi hafta kunlari bo'yicha mos ravishda 3 °C; 4°C; 5 °C; 8 °C; 6°C; 4°C; 7°C bo'ldi. Ular olgan natijalarining absolut chastotasini aniqlang

1) 1 ; 1; 1; 2; 2 2) 1; 1; 1; 1; 2; 1

3) 1; 3; 1; 1; 1 4) 1;3; 2; 1; 1

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5811. Sonlar qatorining absolut chastotasini aniqlang :

3,5; 2,6; 3,5; 1,3; 2,6; 3,5;

1) 3 ; 2; 1; 2) 3; 4; 1 3) 3; 1; 1 4) 3;1; 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5812. Sonlar qatorining absolut chastotasini aniqlang :

32,3; 27,1; 45; 27,1; 43,6; 32,3

1) 1 ; 2; 1; 2) 1; 1; 2; 2 3) 2; 2; 1; 2 4) 1;1; 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5813. Ma'lumot qatorining absolut chastotasini aniqlang :

2; 5; 9; 1; 2; 3; 3; 5; 5; 5; 7; 3; 3

1) 1 ; 2; 4; 4; 1; 1 2) 1; 1; 2; 2

3) 4; 4; 1; 1 4) 1;1; 4; 4; 1; 1

A) 4 B) 2 C) 3 D) 1

5814. Yanvar oyining bir sutkasida havoning temperaturasi er-talab 2 °C, tushda 6 °C, tushdan keyin 4 °C, kechqurn 3 °C, tunda 0 °C bo'ldi.Sutka davomida havoning absolut chastotasi qanday?

1) 1 ; 2; 1; 2) 1; 1; 2; 2 3) 1; 1; 1; 1;1 4) 1;1; 4

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

✓ Tenis o'yini musobaqasida 11-sinfning 9 nafar o'quvchisi, mos ravishda, 15; 12; 14; 15; 12; 15; 14; 12; 11 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning o'zgarish kengligini aniqlang .

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

Yechimi:

O'zgarish kengligi deb, berilgan sonlar qatoridagi eng *katta* son bilan eng *kichik* son <u>*ayirmasiga*</u> aytiladi.

Ochkolar soni	Ochkolarning absolut chastotasi
15	3
14	2
12	3
11	1

Demak, O'zgarish kengligi : 15–11=4

Izoh: jadval qilib yozish shart emas

5815. Shaxmat o'yini musobaqasida 6-sinfning 8 nafar o'quvchisi, mos ravishda, 13; 13; 12; 13; 10; 13; 12; 10 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning o'zgarish kengligini aniqlang .

A) 1 **B) 2** C) 3 D) 4

5816. O'quvchining matematika darsidan olgan baholari: 5, 5, 5, 4, 3, 4, 5, 4, 5, 5. o'quvchilarning matematikadan olgan baholarining o'zgarish kengligini quyidagi qaysi ko'rinishida yozamiz.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5817. Mart oyining birinchi haftasidagi havoning o'rtacha sutkalik temperaturasi hafta kunlari bo'yicha mos ravishda 3 °C; 4°C; 5 °C; 8 °C; 6°C; 4°C; 7°C bo'ldi. Ular olgan natijalarining o'zgarish kengligini aniqlang.

A) 2 B) 5 C) 3 D) 4

5818. Sonlar qatorining o'zgarish kengligini aniqlang :

3,5; 2,6; 3,5; 1,3; 2,6; 3,5;

A) 2,2 B) 1,6 C) 0,9 D) 1,3

5819. Sonlar qatorining o'zgarish kengligini aniqlang :

32,3; 27,1; 45; 27,1; 43,6; 32,3

A) 17,7 B) 17,9 C) 1,4 D) 2,4

5820. Sonlar qatorining o'zgarish kengligini aniqlang :

5,9; 6,1; 4,85; 5,3; 4,9; 5,35.

A) 1,25 B) 1,05 C) 1 D) 0,55

5821. Ma'lumot qatorining o'zgarish kengligini aniqlang :

2; 5; 9; 1; 2; 3; 3; 5; 5; 5; 7; 3; 3

A) 1 **B) 2** C) 7 D) 8

5822. Yanvar oyining bir sutkasida havoning temperaturasi ertalab 2 °C, tushda 6 °C, tushdan keyin 4 °C, kechqurn 3 °C, tunda 0 °C bo'ldi. Sutka davomida havoning o'zgarish kengligi qanday?

A) 5 B) 2 C) 6 D) 4

5823. Futbol jamoasi ishqibozlari soni 1-o'yinda 18 000 nafar, 2-o'yinda 15 200 nafar, 3-o'yinda 16 900 nafar va 4-o'yinda 17 500 nafar bo'ldi. Futbol jamoasi ishqibozlari sonining o'zgarish kengligini toping.

A) 3800 B) 200 C) 1100 D) 2800

5824. Oyning Quyoshga qaragan tomonida temperatura 130 °C, qarama-qarshi tomonida esa –170 °C ga teng. o'zgarish kengligini toping.

A) 1 B) 200 C) 300 D) 40

5825. Sonlarning berilgan absolut chastotasi jadvaliga asosan o'zgarish kengligini toping.

sonlar	Absolut chastotasi
14,35	4
11.9	3
7,9	2

A) 2,45 B) 6,8 C) 6,4 D) 6,45

✓ Tenis o'yini musobaqasida 11-sinfning 9 nafar o'quvchisi. mos ravishda, 15; 12; 14; 15; 12; 15; 14; 12; 11 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning modasini aniqlang.

A) 15 B) 15 va 12 C) 12 D) 11

Yechimi:

Ochkolar soni	Ochkolarning absolut chastotasi
15	3
14	2
12	3
11	1

Berilgan sonlar qatoridagi *absolut chastotasi* eng katta bo'lgan son sonlar qatorining **modasi** deyiladi. Demak, **modasi 15 va 12** (chunki ularda absolut chastotasi teng 3 dir)

5826. Shaxmat o'yini musobaqasida 6-sinfning 8 nafar o'quvchisi, mos ravishda, 13; 13; 12; 13; 10; 13; 12; 10 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning modasini aniqlang.

A) 4 B) 10 C) 13 D) 12

5827. O'quvchining matematika darsidan olgan baholari: 5, 5, 5, 4, 3, 4, 5, 4, 5, 5. o'quvchilarning matematikadan olgan baholarining modasini quyidagi qaysi ko'rinishida yozamiz.

A) 6 B) 5 C) 3 **D) 4**

5828. Mart oyining birinchi haftasidagi havoning o'rtacha sutkalik temperaturasi hafta kunlari bo'yicha mos ravishda 3 °C; 4°C; 5 °C; 8 °C; 6°C; 4°C; 7°C bo'ldi. Ular olgan natijalarining modasini aniqlang :

A) 2 B) 5 C) 3 D) 4

5829. Sonlar qatorining modasini aniqlang :

3,5; 2,6; 3,5; 1,3; 2,6; 3,5;

A) 3,5 B) 2,6 C) 1,3 D) 3

5830. Sonlar qatorining modasini aniqlang :

32,3; 27,1; 45; 27,1; 43,6; 32,3

A) 32,3 B) 32,3 va 27,1 C) 45 D) 27,1

5831. Sonlar qatorining modasini aniqlang :

5,9; 6,1; 4,85; 5,3; 4,9; 5,35.

A) bu qatorning modasi yo'q B) 1,05

C) 1 D) 0,55

5832. Ma'lumot qatorining modasini aniqlang :

2; 5; 9; 1; 2; 3; 3; 5; 5; 5; 7; 3; 3

A) 3 B) 5 C) 7 D) 3 ; 5

5833. Yanvar oyining bir sutkasida havoning temperaturasi ertalab 2 °C, tushda 6 °C, tushdan keyin 4 °C, kechqurn 3 °C, tunda 0 °C bo'ldi. Sutka davomida havoning modasini qanday?

A) 5 B) 6 C) 4

D) Shu sutkadagi havo temperaturasining modasi yo'q

5834. Oyning Quyoshga qaragan tomonida temperatura 130 °C, qarama-qarshi tomonida esa –170 °C ga teng. modasini toping.

A) 1 B) 200

C) Ma'lumot asosida modasi yo'q D) 40

5835. Sonlarning berilgan absolut chastotasi jadvaliga asosan modasini toping.

sonlar	Absolut chastotasi
14,35	4
11,9	3
7,9	2

A) 14,45 B) 7,9 C) 11,9 D) 14,35

✓ Tenis o'yini musobaqasida 11-sinfning 9 nafar o'quvchisi, mos ravishda, 15; 12; 14; 15; 12; 15; 14; 12; 11 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning medianasini aniqlang.

A) 15 B) 15 va 12 C) 13 D) 14

Yechimi:

Berilgan sonlarning *soni toq* bo'lsa, u holda ularning **medianasi** o'sha sonlarni tartib bilan joylashtirgandagi *eng o'rtada* turgan sondir.

Berilgan sonlar *soni juft* bo'lsa, u holda ularning **medianasi** o'sha sonlarni o'sish tartibida joylashtirganda o'rtada turgan ikki sonning *o'rta arifmetigiga* teng bo'ladi.

Ochkolar soni	Ochkolarning absolut chastotasi
15	3
14	2
12	3
11	1

Ular olgan natijalarini tartiblab teramiz va sanaymiz:

11; 12; 12; 12; 14; 14; 15; 15; 15

9 ta

11; 12; 12; 12; 14; 14; 15; 15; 15

4 ta **4 ta**

medianasi

Toq son (9 ta) bo'lganidan Demak, **medianasi 14 .**

J: D

Agar juft bo'lganda

10; 11; 12; 12; 12; 14; 14; 15; 15; 15

10 ta

10; 11; 12; 12; 12; 14; 14; 15; 15; 15

4 ta **4 ta**

medianasi

Agar jut son (10 ta) bo'lganida **medianasi** $\frac{12+14}{2}=13$.

5836. Shaxmat o'yini musobaqasida 6-sinfning 8 nafar o'quvchisi, mos ravishda, 13; 13; 12; 13; 10; 13; 12; 10 ochko to'pladi. Ular olgan ochkolarning medianasini aniqlang.

A) 11,5 B) 14 C) 12,5 D) 13

5837. O'quvchining matematika darsidan olgan baholari: 5, 5, 5, 4, 3, 4, 5, 4, 5, 5. o'quvchilarning matematikadan olgan baholarining medianasini quyidagi qaysi ko'rinishida yozamiz.

A) 6 B) 5 C) 3 D) 4

5838. Mart oyining birinchi haftasidagi havoning o'rtacha sutkalik temperaturasi hafta kunlari bo'yicha mos ravishda 3 °C; 4°C; 5 °C; 8 °C; 6°C; 4°C; 7°C bo'ldi. Ular olgan natijalarining medianasini aniqlang :

A) 2 B) 5 C) 3 D) 4

5839. Sonlar qatorining medianasini aniqlang :

3,5; 2,6; 3,5; 1,3; 2,6; 3,5;

A) 3,05 B) 2,6 C) 3,5 D) 3

5840. Sonlar qatorining medianasini aniqlang :

32,3; 27,1; 45; 27,1; 43,6; 32,3

A) 32,3 B) 32,3 va 27,1 C) 45 D) 27,1

5841. Ma'lumot qatorining medianasini aniqlang .

2; 5; 9; 1; 2; 3; 3; 5; 5; 5; 7; 3; 3

A) 2 B) 5 C) 7 D) 3

5842. Sonlarning berilgan absolut chastotasi jadvaliga asosan medianasini toping.

sonlar	Absolut chastotasi
14,35	4
11,9	3
7,9	2

A) 4 B) 7,9 C) 11,9 D) 14,45

5843. Ma'lumot qatorining medianasini aniqlang.

